ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

4-son

(Iyul-Avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Sohaga oid davriy nashrlarning o‘qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi hamda bolalar nashrlarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni muhimdir
		TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
Z.S.Teshabayeva	6	Oliy ta’limda bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglar kvalimetrik kompetensiyasini shakllantirish omillari
D. Norbutayeva	9	Bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarining dizaynerlik kompetensiya-larini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari
Sh. Xalmuratova	14	Pedagogik riskning tarixiy va nazariy asoslari
I. Hoshimov	18	Respublikamizdagi umumta’lim maktablarida o‘quv-tarbiya jarayoni va mazmuni
N. Utaeva	22	Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash va kreativligini rivojlantirish muammolari tahlili
J. Mamatov	26	O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda darsga nisbatan intizomli munosabatni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari
J. Fozilov	30	Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchi-yoshlarda obyektiv dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi
F. Usmanova	34	Talabalar kompetentligini rivojlantirish jarayonida muloqot madani-yatining o‘rni
		TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI
R. Toshpulatov	38	IInformatika fanini o‘qitish metodikasi – pedagogik fan sifatida
A. Gulyamova	42	Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda, ta’lim-tarbiya beruvchi pedagogning nutqiy qobiliyati
N. Ruziyev	46	Amaliy san’at mashg‘ulotlarida talabalarni fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish
S. Sanakulova	51	Boshlang‘ich sinflarda horijiy tilni o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik asoslari
		ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
D. Xolbo‘tayeva	55	Bo‘lajak o‘qituvchilarning madaniy dunyoqarashini boyituvchi didaktik vositalar
L. Qaraxonova	58	O‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda zamo-naviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
D. Malikova	61	Uzluksiz ta’lim jarayonida qadim ajdodlar tarixini o‘rganish – pedagogik zarurat sifatida
S. Azimova	64	Ota-onalarning virtual- pedagogik madaniyatini rivojlantirish omillari
N. Masharipova	68	O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda Pahlavon Mahmud faoliyatidan didaktik manba sifatida foydalanishning pedagogik imkoniyatlari
		TA’LIMDA MENEJMENT
M. Taylakov	72	Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o‘rta ta’lim mak-tablarini innovatsion boshqarish manbalari

G. Ibragimova	76	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirish texnologiyasi
M. Xushnazarova	79	Maktabgacha ta’limni modernizasiyalash jarayonida boshqaruv kadrlari va pedagog-tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini rivojlan-tirishning dolzarb muammolari
		HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA
Sh. Namazov	82	O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni rivojlantirish
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
N. Abdukarimov, E. Xojmatov	85	O‘quvchilarni jismoniy sog‘lom qilib tarbiyalashda milliy harakatli o‘yinlarning roli
		MADANIYAT, SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI
G. Kaxarova	88	Xalq qo‘shiqlari vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish texnologiyalari
J. Begijonov	92	Badiiy kulolchilik mashg‘ulotlarida talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari
		MAKTABGACHA TA’LIM
Z. Mo‘minova	96	Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda gender yondashuv
S.X. Xolto‘rayeva	99	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash jarayonida tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning dolzarbligi
		ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
M.A. Maxmudova	102	Ta’lim jarayonida didaktik kompyuter muhitini yaratishda raqamli texnologiyalarni samaradorligi
Yu.I. Mavlonova	106	Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish imkoni-yatlari
Z. Saidova	109	Masofaviy ta’lim sharoitida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish
A.X. Maxmudov	113	Maktab ta’lim tizimida raqamli transformatsiyasining metodologik aspektlari
		PSIXOLOGIYA
D. Polvanova	118	Talabalarning muhim ijtimoiy-psixologik xususiyatlari
B. Boltayeva, X.Tojiboyeva	122	Matnni tushunish jarayonining psixologik- pedagogik jihatlari
G. Muminova	126	Ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik-psixologik asoslari
		ТЕОРИЯ ОБРАЗХОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Р.М. Сулейманова	129	Роль информационной образовательной среды в формировании функциональной компетентности будущего учителя информатики
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Г. Ескараева	132	Тематическая, жанровая, композиционная и стилевая специфика русской народной сказки на уроках рки
С.С. Эгамбердиев	136	Использование икт в процессе обучения математики в академических лицеях
Ш. Позилова	140	Научно-методический анализ развития профессиональной креативности преподавателей профессионального образования

SOHAGA OID DAVRIY NASHRLARNING O‘QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI HAMDA BOLALAR NASHRLARINING TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O‘RNI MUHIMDIR

Zamonaviy dunyoda sohaga oid davriy nashrlar hamda bolalar nashrlari katta pedagogik salohiyatga egadir. Uzluksiz ta’limda sohaga oid davriy nashrlarning o‘qituvchi kasbiy kompetentligi rivojlantirishda hamda bolalar nashrlarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi pozitiv ahamiyatini ilmiy tadqiqot ishlarida, pedagoglar, psixolog olimlar ham ko‘rsatib o‘tishgan. Kitoblar va an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan tashqari – radio va televidenie, turli shakllardagi ko‘plab internet resurslari – ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, videobloglar va h.k. paydo bo‘lib bormoqda. Natijada ko‘rib turibmizki, endi hamma kontent yaratayapti va ularning soni geometrik progressiya bo‘yicha ko‘payib bormoqda. Endilikda yoshlar o‘zining bilimlar manbaini tinimsiz va tezkorlik bilan to‘ldirib borishni va yangilab turishni afzal deb biladi.

Bunday betartib axborot makonida pedagoglar uchun ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya yo‘nalishida muloqot qilish tobora qiyinlashmoqda. Bugungi kunda faqatgina o‘qituvchi mavqyei va vakolati bilan hamda darsliklar yordamida ta’lim oluvchilarning o‘quv materialiga e'tiborini qaratish mumkin emas, chunki boshqa axborot manbalari bilan raqobat juda katta. Haqiqatni aytganda, “raqobatchilar” maktab sumkasining cho‘ntagiga bemalol joylashadi va ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarni doimiy chalg‘itib kelmoqda. Ushbu tengsiz kurashda g‘alaba qozonish uchun yangi pedagogik yechimlar zarur. Pedagoglar ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya yo‘nalishida samarali muloqot qilishi uchun o‘quv materiallarini izlash, tanlash, yetkazish, o‘zlashtirish, mustaqkamlash, baholashning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishlari, o‘quv materiallarini ta’lim oluvchilarga taqdim etish shakllarini diversifikatsiya qilishlari talab etilmoqda.

Darhaqiqat, bugunga kelib globallashuv jarayoni tezkor sur'atlarda avj oldi. U barcha jabhalarni, jumladan, jurnalistika sohasini ham tamomila zabt etdi. Albatta, bolalar matbuoti ham bu jarayondan tashqarida emas. Har bir nashr bolalar va o‘smirlarni tarbiyalashda faol va o‘z o‘rniga ega.

Ommaviy axborot vositalari bolalar ongini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Erta bolalikdan odam turli xil ma’lumot manbalaridan ta’sirlanadi. Shu bilan birga, axborotni tahlil qilish, real faktlarni yolg‘on fikrlardan (feyklardan) ajratish qobiliyatiga ega bo‘lmagan bolalar auditoriyasi ommaviy axborot vositalarining ta’siriga eng ko‘p duchor bo‘ladi. Shu munosabat bilan, yosh avlod uchun mo‘ljallangan maxsus ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, ijtimoiy mas'uliyatni xis qilishi va shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini amalga oshirish vazifasini o‘z zimmasiga olgan.

Kuzatishlar asosida aytish kerakki, bugungi kun o‘quvchilari ham kechagidan tubdan farq qiladi. Ular endilikda maktab darsliklaridan oladigan bilimlaridan tashqari yuqorida aytib o‘tilganidek, turli qo‘shimcha adabiyotlar hamda internet olamidan ham kerakli bilimlarni, o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumotlarini olishlari va o‘zlari istagancha yangiliklardan boxabar bo‘lishlari mumkin. Zero, bu tezkorlikni zamon talabi ham deyish mumkindir, biroq biz shu o‘rinda bilimlar ba’zasi qatoriga bemalol OAV

asosi sanalmish davriy nashrlarimizni ham kirtishimiz, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarimizni boytishimiz, davriy nashrlar orqali o'quvchining ham nazariy, ham amaliy bilimlarini boyitib borishimiz zarur.

So'nggi yillarda jamiyatda ta'lim maqsadlari va ularni amalga oshirish usullarini tushunishda keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Kompetensiyalar, bilim, ko'nikma va malakalarni ta'limning asosiy natijasi sifatida e'tirof etishdan boshlab, ta'limni o'quvchilarni real hayotga tayyorlash jarayoni, faol fuqarolik pozitsiyani egallashga, hayotiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga tayyor bo'lish jarayoni sifatida tushunishga o'tish sodir bo'ldi.

Davriy nashrlarining pedogoglarni kasbiy faoliyatini oshirishidagi muhim shartlari shuki, o'qituvchi akademik nashrlarga o'z ilmiy materiallari bilan faol ishtirok etib borishi, pedagogik ish faoliyati davomida chop etilgan badiiy-ilmiy maqolalar ustida ishlashi va amaliyotda qo'llashi, mavzu doirasida o'quv-seminarlar, ilmiy ma'ruzalar hamda nazariy va amaliy ochiq darslar tashkil etib borishi darkor. Jumladan, o'quvchi-yoshlarning sifatli ta'lim olishi jarayonida bosma nashrlarda chop etilgan maqolalar yuzasidan ochiq darslar va ma'lum ijodiy fan to'garaklarining tashkil etib borilishi ham zamonaviy ta'limning yana bir yangicha ko'rinishini namoyon etadi.

Demak, o'qituvchi dars o'tish jarayonida davriy nashrlar materiallaridan foydalanish, o'tiladigan fan yuzasidan amaliy darslar yoki qator to'garaklar tashkil etilishi, bu o'quvchi-yoshlarining zamonaviy ta'lim olish samaradorligini oshiribgina qolmay, ularning odob-axloq ko'nikmalarini rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bunda chop etilgan maqola yohud hikoyalar asosida matnlar hamda qator topshiriqlar, savol va javoblari tuzilishi hamda maqola mazmuni yuzasidan insholar yozilishi, topshiriqlar berilishi o'quvchining ta'lim olishdagi faolligini oshirib, fikr doirasini boyitishiga, nutqining ravonlashuviga va dunyo qarashining kengayishiga hamda taxliliy-tanqidiy fikrlashiga, ma'lum bir mavzu yuzasidan o'zining shaxsiy xulosasini chiqarishiga o'rgatadi. Va bu talab o'qituvchining zimmasidagi sharafli mas'uliyatni yanada oshiradi.

Endilikda o'qituvchi-pedagoglar akademik nashrlar bilan uzviy bog'lanishi, o'zining ilmiy maqolalarini muntazam chop ettirib turishi va qator bosma nashrlarda chop etilgan maqolalar yuzasidan amaliy hamda nazariy dars soatlarini tashkil ettirib borishi orqali faollikni doimiy ushlab turishi uning kasbiy faoliyatining o'sishiga, shuningdek, o'quvchi-yoshlarning uzluksiz zamonaviy ta'lim olishini yana bir bor mustahkamlab beradi.

O'qituvchining asosiy vazifasi – bolalarni voqyelik, atrofdagi dunyo bilan tanishtirish; hayotni idrok etishni o'rgatish. Kognitiv ta'lim faoliyatini shakllantirish muammosi bugungi kunda dolzarbdir.

Xulosa shuki, bugungi kunda ta'lim tizimida pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish borasida sohaga oid davriy nashrlarning o'qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi muhim o'rnini belgilab olish joiz. Shuningdek, bolalar nashrlarining maktab o'quvchilarini sifatli ta'lim olishi va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ijobiy ko'rsatgichlarini yanada o'stirish maqsadga muvofiq. Ushbu amaliyotlar hamda olib borilayotgan sa'y xarakatlar tizimning tubdan isloh bo'layotganini anglatadi, ya'ni bu jarayonda o'qituvchi-pedagoglar kasbiy malakalarini muntazam oshirib turishlari sohadagi istiqbolli yo'l sifatida tan olinishiga sabab bo'ladi. Demakki, taraqqiy etib borayotgan texnika asrida ma'naviy dunyoni ma'rifat nuri birla aslicha qoldirish, kitoblar va bosma nashrlar orqali bilimlar xazinasini boytish darkor. Zero, hyech bir ma'lumot manbaasi vositalari (televidenii, radio, telefon, kompyuter kabilar) davriy nashrlar, kitoblar beradigan zavqni, tuganmas va o'chmas bilimlarni bera olmaydi.

Z.S.TESHABAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
(PhD)

OLIY TA'LIMDA BO'LAJAK TARBIYACHI-PEDAGOGLAR KVALIMETRIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kvalimetrik kompetensiya elementlarini shakllantirish omillari bayon etilgan. Ta'riflab o'tilgan tafsiflar maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarining ish faoliyati tajribalarini o'rganish tufayli yoritildi.

Kalit so'zlar. Tarbiyachi-pedagog, kompetensiya, shakllantirish, kvalimetriya, pedagogik, faoliyat.

В данной статье описаны факторы формирования элементов квалиметрической компетентности учащихся дошкольного направления системы высшего образования. Описанные характеристики получили освещение благодаря изучению опыта работы воспитателей-педагогов дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова. Воспитатель-педагог, компетенция, формирование, квалиметрия, педагогика, деятельность.

This article describes the factors of formation of elements of qualimetric competence of preschool students in the higher education system.The described characteristics were highlighted due to the study of the work experience of educators-teachers of a preschool educational organization.

Key words. Educator-teacher, competence, formation, qualimetry, pedagogy, activity.

Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash, ularda kompetensiya elementlarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Holbuki bu jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi hisoblanadi. Shunday ekan, bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash ularda kvalimetrik kompetensiyani shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi.

J. Tolipovaning fikricha "kvalimetriya muayyan obyekt yoki jarayon borishi, xizmatlar, jarayonlar sifati etalon sifatida qabul qilingan modelning mezonlari bo'yicha o'lchash va olingan natijalarni taqqoslash orqali baholash amalga oshiriladi. Kvalimetriyaning amaliy tarmog'i bo'lgan pedagogik kvalimetriyada kadrlarni tayyorlashda malaka talablari etalon sifatida qabul qilingan bo'lib, pedagogik kadrlarning kasb malakasi va pedagogik mahorat sifatini taqqoslash orqali aniqlanadi".

Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mahoratning negizi bo'lgan, kasbiy kompetensiyani shakllantirishda ularning ishtirokini ta'minlash, faol ta'lim usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kompetentlik o'qituvchilarning ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi.

Bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda quyidagi kompetensiya turlari shakllangan bo'lishi lozim:

– **umumadaniy kompetensiya** – ma'lumotlarni idrok qilish, maqsad, qo'ya olish

va unga erishish yo‘llarini tanlash, inson madaniyati mohiyatini tushunish, u insoniyat ma’naviyatining muhim omili ekanligini anglash, kasbiy va ta’limiy faoliyatda ilmiy bilimlardan foydalanish, ijtimoiy va shaxsiy, falsafiy muammolarni keng dunyoqarashi asosida tahlil qilish, jamoada ishlashga psixologik tayyor bo‘lish;

– **umumkasbiy kompetensiya** bunda o‘z kasbining ijtimoiy ahamiyatini anglashi va tushunishi, ijtimoiy va kasbiy vazifalarni amalga oshirishda pedagogik-psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy va falsafa fanlariga oid nazariy bilimlardan o‘rinli foydalana olish, kommunikatsiyaning zamonaviy turlarini qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim;

– **kasbiy kompetensiyaga** ega bo‘lgan bo‘lajak tarbiyachilar ijtimoiy-kasbiy statusga ega bo‘ladilar. Ixtisosligi bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanadilar. Shuningdek, kasbiy faoliyatlarida shaxsiy sifatlari va individual xususiyatlarini namoyon qiladilar.

Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarda amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida mustaqil ravishda o‘qitishning yangi metodlarini o‘zlashtirishlari va ulardan pedagogik faoliyatida foydalanish qobiliyati shakllantiriladi.

Ta’lim natijalarini tahlil qilish, ularni takomillashtirish yo‘llarini izlash bo‘lajak tarbiyachilarda kvalimetrik kompetensiyani shakllanishiga zamin yaratadi. Talabalar ta’limiy vaziyatlarni tahlil va sintez qilish, o‘zining intellektual va umummadaniy bilimlar darajasini rivojlantirish qobiliyatiga ham ega bo‘lishlari lozim. Noqulay vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish, muammo yechimini topishda shaxsiy mas’uliyatini oshirish, ta’limiy muhit yaratish qobiliyati ham shakllanib borishi zarur.

Bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha ta’lim metodikasini puxta egallash va texnologiyalarni o‘zlashtirishlari, kasbiy bilim va ko‘nikmalar asosida innovatsion jarayonlarni tashkil eta olish ko‘nikmalari kelajakda pedagogik faoliyatlarini samarali tashkil etishlarini ta’minlaydi.

Bugungi axborot asrida zamonaviy kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish malakalariga ega bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Chunki maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni axborot texnologiyalari vositasida o‘qitish ta’limning sifatli tashkil etilishiga kafolat beradi. Talabalar mustaqil ravishda axborot texnologiyalari yordamida kasbiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sohaga doir yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlari va ulardan foydalana olish malakalarini egallashlari lozim.

Sanab o‘tilganlardan tashqari bo‘lajak tarbiyachilarda kvalimetrik kompetensiyani shakllantiruvchi quyidagi sifatlar ham bo‘lishi talab etiladi.

– o‘z-o‘zini baholash va o‘zni nazorat qilish;
– o‘zini rivojlantirish va mustaqil ta’lim olishga tayyorlik;
– o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta olish ko‘nikmasi;
– vazifa va muammolarning ijodiy yechimini topish qobiliyati;
– jamoda ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

Talabalarga o‘quv topshiriqlari berish orqali kvalimetrik kompetensiya shakllantiriladi. Bunda o‘quv topshiriqlarini quyidagi mezonlar asosida bajarishga yo‘naltiriladi:

- berilgan savollarni yoritishda shaxsiy nuqtayi nazar bilan yondashish;
- maktabgacha pedagogika faniga doir lug‘at va tayanch iboralardan foydalanish;
- mutaxassislik faniga doir asosiy va qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish;
- kvalimetrik qarashlarga doir dalillardan foydalanish;
- qabul qilingan axborotlarni tahlil qilish va baholash;
- ma’lumotlarni mantiqiy jihatdan bayon qila olishi;
- xulosalarni qisqa va lo‘nda shakllantirish ko‘nikmasini egallash.

Oliy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik faoliyat kvalimetrik yondashuv asosida turlicha metod va texnologiyalar asosida amalga oshiriladi, bunda talabalarga muammoli topshiriqlar beriladi: ya’ni, o‘quv topshiriqlarini qayta ishlash va korreksiyalash yo‘lga qo‘yiladi; “Uyga vazifa va topshiriqlar paketi”ni himoya qiladilar, “Portfolio ishlari”ni darsdan tashqari vaqtlarda bajariladi va topshiriladi. Bo‘lajak tarbiyachilarda kvalimetrik kompetensiyani shakllantirishda o‘quv materialining bo‘lim va boblariga annotatsiya yozish o‘rgatiladi hamda tanlagan mavzu bo‘yicha mustaqil ravishda loyihalar yozish talab etiladi. Talabalarda o‘z-o‘zini tashxis qilish malakalarini shakllantirish maqsadida “Refleksiya varaqasi” ishlab chiqiladi va ularga semestr boshida tarqatiladi, o‘quv jarayoni mobaynida to‘ldirib boradi, semestr yakunida talaba o‘zining rivojlanish dinamikasi bo‘yicha refleksiya varaqasini himoya qiladi. “Refleksiya varqasi”da talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlari, tayanch iboralari, o‘rgangan qo‘shimcha adabiyotlar va shaxsiy tajribalari qayd qilinadi. Shunday shakldagi topshiriqlarni bajarish bo‘lajak tarbiyachilarda kvalimetrik kompetensiyani shakllanishiga asos bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tarbiyachilarda kvalimetrik kompetensiyani shakllantirish kelajakda maktabgacha ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, natijalarni tahlil va monitoring qilish ko‘nikmalarini mukammal egallashlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiyev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, T.,: 2015.–160 b.

2. Tolipova J. Barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun “Pedagogik kvalimetriya” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi. TDPU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi.T., 2018.–148 b.

3. Федюкин В.К. Квалитология: Учебное пособие. Част 1.-СПб.:Изд-во СПбГИЕУ, 2002.

4. Федюкин В.К. Основы квалиметрии. - М.: Изд-во «ФИЛИНЪ»,2004.

5. Фомин В.Н. Квалиметрия. Управление качеством. Сертификация. -М.: Ассоциация авторов и издателей «ТАНДЕМ». Изд-во «ЕКМОС»,2002.

6. Бекоева М.И. Педагогическая квалиметрия в управлении качеством образования студентов современного вуза // Наука-растудент.ру. – 2015. Но. 06 (18) / [Электронный ресурс] – Режим доступа. – – УРЛ: ҳттп://наукарастудент.ру/18/2760/

Dilafruz NORBUTAYEVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimi

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIMI O‘QITUVCHILARINING DIZAYNERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kelajakdagi o‘qituvchilar orasida dizayn kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari haqida so‘z yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kelajakdagi o‘qituvchi, mavzu, oliy ta’lim tashkiloti, texnologiya, texnologik ta’lim, o‘qitish, rivojlanish.

В данной статье речь идёт о технологии развития дизайнерских компетенций у будущих учителей.

Ключевые слова. Будущий учитель, предмет, высшая образовательная организация, технология, технологическое образование, обучение, развитие.

In this article we are talking about technologies for the development of design competencies in future teachers.

Key words. Future teacher, subject, higher educational organization, technology, technological education, training, development.

Zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlarning dinamikasi doimiy ravishda o‘zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarni tahlil qila oladigan, bozor raqobati sharoitida nostandart qarorlar qabul qiladigan va amalga oshiradigan mutaxassislarga ehtiyoj tug‘diradi. Tezlashtirilgan hayot sur’ati kasbiy faoliyatda harakatchanlikni va ma’lum darajadagi malakaga ega bo‘lishni talab qiladi. Zamonaviy mutaxassisning kasbiy mahoratiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri bu uning doimiy rivojlanishi.

Respublikada oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish kasbiy ta’limni rivojlantirishning yetakchi tendensiyalariga asoslanadi, unga muvofiq shaxs va ijtimoiy buyurtma ehtiyojlarini hisobga olgan holda kelajakdagi mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga jiddiy o‘zgarishlar kiritish talab etiladi. Hozirgi rivojlanayotgan jamiyat zamonaviy ma’lumotli, axloqiy, tashabbuskor odamlarga muhtoj bo‘lib, ular tanlov sharoitida mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladilar, ularning mumkin bo‘lgan oqibatlarini bashorat qiladilar, hamkorlik qilishga qodir, harakatchanligi, dinamikasi, konstruktivligi bilan ajralib turadi va mamlakat taqdiri uchun rivojlangan mas’uliyat tuyg‘usiga ega. Bugungi kunda dizaynni jamiyat hayotiga singdirish va butun dunyo bo‘ylab dizayn sohasini kengaytirish usullarining xilma-xilligi haqida gapirish mumkin. Dizayn ishlab chiqarish, iqtisodiyot va iste’mol madaniyati bilan bog‘liq. Bugungi kunda raqobatbardosh ishlab chiqarishning shakllanishi kelajakdagi o‘qituvchilarning texnologiya fanidagi dizayn vakolatlarining rivojlanishi va keng tarqalishiga bevosita bog‘liq. Shu munosabat bilan ixtisoslashtirilgan pedagog kadrlarni tayyorlash, o‘quv-dasturiy materiallar, ilmiy-uslubiy va uslubiy ishlanmalarni yaratish va nihoyat, faoliyatning turli sohalarida dizaynerlarni tayyorlashni o‘z ichiga olgan dizayn ta’limi tizimini qurish va rivojlantirish

zarurati tug‘ildi. Bu, o‘z navbatida, tegishli xodimlarni talab qiladi. Shu munosabat bilan kelajakdagi kasb-hunar ta’limi o‘qituvchilarining dizayn vakolatlarini rivojlantirish muammosi sezilarli darajada dolzarb bo‘lib qoldi.

Kompetensiya muammosi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarga qaramay, “kompetensiya” tushunchasining noaniqligi mavjud. Kompetensiya ko‘p tomonlama va murakkab tushuncha sifatida ko‘plab fanlarni o‘rganish obyekti hisoblanadi. Ushbu muammo fanlararo muammolar sinfiga kiradi va falsafa, sotsiologiya, akmeologiya, psixologiya va pedagogikada ko‘rib chiqiladi. Kompetensiya va kompetensiyaga asoslangan yondashuv tushunchalarini ochib berishga N.A. Muslimov, J.M. Raven, A.V. Xutorskiy, B.D. Elkonin ilmiy ishlarini bag‘ishlagan. Bo‘lajak kasb-hunar ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash bilan bog‘liq masalalar R.X. Djurayev, Yu.V. Nazarov, U.K. Tolipov, Sh.S. Sharipov va boshqalarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

Ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablarning ortishi muammo, kasbiy ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash amaliyotining mehnat bozorining mavjud ehtiyojlariga mos kelmasligi, rivojlanayotgan mehnat bozori va ta’lim xizmatlari bozori sharoitida ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasida yuzaga keladigan muammoni ko‘rsatdi. Ta’limni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida texnologiya mavzusida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash ta’lim sohasida kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga imkon beradigan yetarli darajada dizayn qobiliyatiga ega mutaxassislarni tayyorlash bilan bog‘liq yangi g‘oyalar va faoliyat yo‘nalishlarini talab qiladi. Bu kelajakdagi o‘qituvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash jarayonini takomillashtirish, uni tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish uchun asos yaratadi. Bu ko‘rib chiqilayotgan muammoning ijtimoiy-pedagogik darajada dolzarbligini tasdiqlaydi. Hozirgi vaqtda ta’limning amaliy tarkibiy qismiga kompetensiyaga asoslangan yondashuv joriy etilmoqda, shu munosabat bilan oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining malakasini oshirish muammosi sezilarli darajada dolzarb bo‘lib qoldi. Oliy maktab pedagogikasida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha etarli tajriba to‘plangan, ammo bo‘lajak o‘qituvchining kompetensiyasiga bag‘ishlangan turli xil ishlar bilan biz kelajakdagi o‘qituvchilar uchun dizayn kompetensiyalarini rivojlantirishning haqiqiy jihatini ko‘rib chiqadigan tadqiqotlar o‘tkazilmaganligini ta’kidlashga majburmiz. O‘quv faoliyati: xususan, “kelajakdagi o‘qituvchilarning dizayn kompetensiyasi” tushunchasi aniqlanmagan “Texnologiya” predmeti, o‘rganilayotgan kompetensiyaning mazmuni va tuzilishi oshkor etilmagan, dizayn kompetensiyasining rivojlanish mezonlari va darajalari aniqlanmagan, kelajakdagi kasb-hunar ta’limi o‘qituvchilarida dizayn kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy asoslangan pedagogik modeli mavjud emas. Ko‘rib chiqilayotgan muammoning yetarli darajada nazariy ishlab chiqilmaganligi ushbu muammoning dolzarbligining ilmiy va nazariy darajasini belgilaydi.

Amaliyotni tahlil qilish kelajakdagi kasbiy ta’lim o‘qituvchilarining dizayn vakolatlari sohasidagi zaif yo‘nalishini aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, didaktik texnologiyalarning tobora ortib borayotgan imkoniyatlari va ularni qo‘llash shartlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash muammosi, o‘qitish vektorini aniqlash, konsepsiya, standartlar, o‘quv-dastur hujjatlari va uslubiy qo‘llanmalarni yaratish – bularning barchasi o‘rganilayotgan muammoning dolzarbligining ilmiy va uslubiy darajasini belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, kelajakdagi kasb-hunar ta’limi o‘qituvchilarining dizayn vakolatlarini rivojlantirish muammosi bir qator obyektiv mavjud qarama-qarshiliklar bilan belgilanadi: ijtimoiy-pedagogik darajada – zamonaviy jamiyatning yuqori darajadagi dizayn vakolatiga ega bo‘lgan kasb-hunar

ta’limi o‘qituvchilariga bo‘lgan ehtiyojlari va ularni tayyorlashda oliy ta’lim tashkilotlarining to‘liq amalga oshirilmagan imkoniyatlari o‘rtasida; ilmiy-nazariy darajada dizayn ta’limi muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarning mavjudligi va oliy maktabning ta’lim sohasida “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirishning noaniq nazariy rivojlanishi o‘rtasida; ilmiy-uslubiy darajada – kelajakdagi o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirish darajasiga qo‘yiladigan mavjud talablar va ushbu jarayonni mazmunli va uslubiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi o‘rtasida. Ushbu qarama-qarshiliklar kelajakdagi o‘qituvchilarning “Texnologiya” fanidan dizayn vakolatlarini rivojlantirish tamoyillari, mazmuni, usullari, vositalarini izlash va ilmiy asoslashdan iborat bo‘lgan tadqiqot muammosini aniqladi. Yuqorida aytib o‘tilganlarni inobatga olgan holda, biz ushbu muammoning ahamiyati va dolzarbligini bayon qilamiz, tadqiqot mavzusini shakllantiramiz: “Bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarining dizaynerlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari”.

Bizning tadqiqotimizda dizayn kompetensiyasini rivojlantirish “Umumiy pedagogika”, “Pedagogika nazariyasi”, “Pedagogika tarixi”, “Pedagogik mahorat” ixtisosligi bo‘yicha asosiy fanlar bilan fanlararo aloqalarining mazmuni bo‘lgan “Texnologiya” maxsus fanini o‘qitish misolida ko‘rib chiqiladi va bo‘lajak kasb-hunar o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini belgilaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirish murakkab, ehtimoliy jarayon bo‘lib, uning asosiy xususiyati qaytarilmas va tabiiy ijobiy o‘zgarishdir, biz farazi ravishda quyidagilarni nazarda tutamiz:

1. “Texnologiya” fanida bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirish muammosining yechimi o‘rganilayotgan jarayonning shakllari, usullari va mazmunli jihatlarini yangilashga yordam beradigan kompetensiyaga asoslangan va dizayn yondashuvlarining integratsiyasi bo‘ladi.

2. Agar ushbu jarayon tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradigan model shaklida taqdim etilsa: maqsadli, mazmunli, tashkiliy va texnologik, mezon-daraja va tuzatish-baholash. Shu bilan birga, modelning o‘ziga xos xususiyati bo‘lajak o‘qituvchilarning “Texnologiya” fanidagi dizayn vakolatining tarkibiy qismi sifatida badiiy-madaniy, maxsus-nazariy va kasbiy-amaliy bloklarni birlashtirishdir.

3. “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirish quyidagi tashkiliy va pedagogik sharoitlarga bog‘liq: 1) fanlararo kasbiy yo‘naltirilgan vazifalar majmuasini qo‘llash; 2) talabalarning dizayn tafakkurini rag‘batlantirish; 3) talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirish; 4) kelajakdagi o‘qituvchilarning o‘quv faoliyati usullari majmuasini qo‘llash.

Ishning maqsadiga bir qator asosiy vazifalarni belgilash va hal qilish orqali erishiladi: 1) kelajakdagi o‘qituvchilarning “Texnologiya” fanidan dizayn vakolatlarini rivojlantirish muammosining holatini nazariy va uslubiy tahlil qilish, uni hal qilish uchun istiqbolli yondashuvlarni aniqlash va tadqiqotning konseptual apparatini aniqlashtirish; 2) “Texnologiya” fanidan o‘qituvchilar kompetension va dizayn yondashuvlari asosida kelajakdagi dizayn kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish; 3) eksperimental ish jarayonida “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun tashkiliy va pedagogik sharoitlarni aniqlash, nazariy asoslash va tekshirish; 4) “Texnologiya” fani doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirish jarayonini mazmunli va uslubiy ta’minlashni ishlab chiqish.

Vazifalar uch bosqichda o‘tkazilgan tadqiqot jarayonini aniqladi. Xususan, birinchi bosqichda ilmiy adabiyot va pedagogik amaliyotda tadqiqot muammosi bo‘yicha ma’lu-

motlarni o‘rganish, umumlashtirish va tizimlashtirish amalga oshirildi. Bu bizga tadqiqotning dastlabki pozitsiyalarini aniqlash, konseptual apparatni ishlab chiqish, tadqiqot gipotezasini shakllantirish va uning vazifalarini aniqlash imkonini berdi. Eksperimental ishlarning aniqlovchi bosqichi o‘tkazildi, empirik materiallar to‘plandi va tahlil qilindi. Bosqichning asosiy usullari: nazariy (tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, loyihalash); empirik (kuzatish, sinov, suhbat, eksperimental va qidiruv ishlarining aniq bosqichi); matematik statistika usullari. Ikkinchi bosqichda bo‘lajak o‘qituvchining “Texnologiya” fanidan dizayn vakolatlarini rivojlantirish modelining tarkibiy qismlarimazmuni aniqlandi, o‘rganilayotgan jarayonni ilmiy va uslubiy qo‘llab-quvvatlash ishlab chiqildi, tashkiliy va pedagogik sharoitlar to‘plami tekshirildi, eksperimental ishning shakllantiruvchi bosqichining borishi va natijalari tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda tadqiqot natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirish amalga oshirildi, xulosalar shakllantirildi va dissertatsiya tadqiqotlari materiallari tuzildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirish jarayoni pedagogika fanining oliy kasbiy ta’limning mazmuni va tuzilishini takomillashtirishga yo‘nalishini ta’minlashning uslubiy qo‘llanmasi sifatida yaxlit tarzda taqdim etilishi bilan belgilanadi: “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining nazariy va uslubiy asosi kompetensiyaga asoslangan va dizayn yondashuvlarining integratsiyasi bo‘lib, ularning o‘rganilayotgan kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi; “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan bo‘lib, u beshta komponentdan iborat: maqsadli, mazmunli, tashkiliy va texnologik, mezon-daraja, tuzatish va baholash. Takomillashtirilgan modelning o‘ziga xos xususiyatlari badiiy va madaniy (talabaning yaxlit bilim tizimini, voqelikni bilish va o‘zgartirish usullari va usullarini o‘zlashtirishi va ishlatishi), maxsus nazariy (dizayn faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus bilimlar tizimini o‘zlashtirish va ulardan foydalanish) va kasbiy-amaliy bloklarni (kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish) birlashtirishdir.

“Texnologiya” fanida bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn mahoratini muvaffaqiyatli rivojlantirishni ta’minlaydigan tashkiliy va pedagogik sharoitlar to‘plami nazariy jihatdan asoslandi va eksperimental ravishda sinovdan o‘tkazildi: 1) fanlararo kasbiy yo‘naltirilgan vazifalar majmuasidan foydalanish; 2) talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirish; 3) talabalarning dizayn tafakkurini rag‘batlantirish; 4) kelajakdagi o‘qituvchilarning o‘quv faoliyati usullari majmuasini qo‘llash.

Biz ta’kidlagan tashkiliy va pedagogik sharoitlarning yangiligi shundaki, ular ilgari biz belgilagan tadqiqot mavzusi uchun ishlatilmagan va kompleks tarzda ko‘rib chiqilmagan.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki: muammoning terminologik sohasi “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning “dizayn kompetensiyasi” tushunchasini muallifning talqini tufayli kengaytirildi, bu orqali biz kasbiy madaniyatning zarur tarkibiy qismini tushunamiz, dizayn faoliyatiga tayyorlikni ta’minlaymiz, shu jumladan, nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy fazilatlar to‘plami; “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn kompetensiyasini rivojlantirish deganda, biz dizayn kompetentsiyasining mavjud darajasini oshirish bilan bog‘liq dizayn kompetensiyasining tarkibiy qismlarini rivojlantirishga qaratilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonida talaba shaxsini sifat jihatidan o‘zgartirishning izchil jarayonini tushunamiz; “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn kompetensiyasining mazmuni va tuzilishi ochib

berildi. O‘rganilayotgan muammoning nazariy va uslubiy makonini tartibga solishga yordam beradigan “Texnologiya” fanida bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirish tamoyillari aniqlandi: integrativlik, individuallashtirish, vaziyatlilik, daraja, prognostiklik.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirish bo‘yicha xulosalari va tavsiyalari oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi: “Texnologiya” faniga dastur va didaktik materiallarni o‘z ichiga olgan didaktik vositalar orqali kasbiy tayyorgarlik mazmunini loyihalash; “Texnologiya” fani bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn kompetensiyasining rivojlanish darajasini xolisona baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarining yagona tizimini ishlab chiqish, oliy maktab amaliyotining real sharoitlarida “Texnologiya” fani bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining diagnostik asosini ta’minlash; “Texnologiya” fani bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda o‘quv jarayonida tadqiqot natijalaridan foydalanish.

Xulosa shuki, kompetensiyaga asoslangan va loyiha yondashuvlarining integratsiyasi tarkibiy munosabatlar va konseptual birlik tufayli kelajakdagi o‘qituvchilarning “Texnologiya” fanidagi dizayn vakolatlarini rivojlantirish jarayonining uslubiy ko‘p darajali va ierarxik xususiyatini ta’minlaydi, chunki: 1) kompetensiyaga asoslangan yondashuv umumiy ilmiy darajani belgilaydi va kelajakdagi o‘qituvchilarning o‘zaro bog‘liq kompetensiyalari to‘plamini shakllantirishga yordam beradi; 2) dizayn yondashuvi o‘quv jarayonini tashkiliy jihatdan tartibga solish, uning bosqichlarini aniqlash va ularni amalga oshirish shartlarini ta’kidlash imkonini beradigan uslubiy va texnologik darajani belgilaydi. Bundan tashqari, integrativlik, individuallashtirish, vaziyatlilik, daraja, prognostiklik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan “Texnologiya” fanida bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn mahoratini rivojlantirishning pedagogik modeli tarkibiy tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi: maqsadli, mazmunli, tashkiliy va texnologik, mezon-daraja, tuzatish-baholash. Ishlab chiqilgan modelning o‘ziga xos xususiyatlari – bu “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn kompetensiyasining tarkibiy qismi sifatida badiiy-madaniy, maxsus-nazariy va kasbiy-amaliy bloklarni birlashtiradi. “Texnologiya” fanidan bo‘lajak o‘qituvchilarning dizayn vakolatlarini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shartlari quyidagilardan iborat: 1) fanlararo kasbiy yo‘naltirilgan vazifalar majmuasini qo‘llash; 2) talabalarning dizayn tafakkurini rag‘batlantirish; 3) talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirish; 4) bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv faoliyati uchun bir qator usullarni qo‘llash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: https://lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori: https://lex.uz

Shaxnoza XALMURATOVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

PEDAGOGIK RISKNING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada risk va pedagogik risk tushunchalarining etimologiyasi, kelib chiqish tarixi, ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Riskning pedagogik fenomen sifatidagi mohiyati va xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, pedagogik risk turlari va komponentlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar. Risk, pedagogik risk, riskologiya, pedagogik riskologiya, pedagogik risk turlari va komponentlari.

В данной статье анализируются этимология, история возникновения, научно-теоретические основы понятий риск и педагогический риск. Раскрываются природа и особенности риска как педагогического явления. Также, определены виды и компоненты педагогического риска.

Ключевые слова. Риск, педагогический риск, рискология, педагогическая рискология, виды и компоненты педагогического риска.

This article analyzes the etymology, history of origin, scientific and theoretical foundations of the concepts of risk and pedagogical risk. The nature and characteristics of risk as a pedagogical phenomenon are revealed. Also, pedagogical risk types and components are determined.

Key words. Risk, pedagogical risk, riskology, pedagogical riskology, types and components of pedagogical risk.

Bugungi jadal rivojlanayotgan texnologiya asrida barcha sohalarda keng qamrovli modernizatsiya ishlari amalga oshirilmoqda, ilm-fanga yangi innovatsiyalar, tendensiyalar kirib kelmoqda. Bu rivojlanishlar asosida ta’lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan, pedagogika sohasiga ham birqancha yangiliklar, tushunchalar va yangi terminlar kirib keldi.

Hozirgi kunda ta’lim sohasida keng qo‘llanilayotgan pedagogik tushunchalardan biri “risk” hisoblanadi, bu termin haqidagi ilmiy g‘oyalarning rivojlanishi bir necha bosqichlardan iborat.

Risk va uning darajasini baholash ibtidoiy risk tahlilidan to zamonaviy ilm-fanda qo‘llaniladigan ko‘p tarmoqli, murakkab risklarni pragnoz qilish tizimigacha butun sivilizatsiya rivojlanishi davomida insoniyatga hamroh bo‘ldi. “Risk” termini etimologiyasi va tarixini o‘rganish uzoq va xilma-xil davrlarni o‘z ichiga olsa da, ushbu hodisaning ko‘p o‘lchovliligi va noaniqligi tufayli umumiy qabul qilingan ta’rif haligacha mavjud emas.

“Risk” hodisasi ko‘proq xavf-xatar, ishonchsizlik, tahdid kabi tushunchalar bilan belgilanadi va keng ma’noda turli xil yo‘qotishlar, zararlar: mol-mulkni yo‘qotish, moliyaviy zarar ko‘rish, sog‘liqqa zarar yetkazish kabi noxush hodisalarning yuzaga kelish ehtimolini anglatadi.

“Risk” termini XV asr oxiri XVI asr boshlarida Italya va Ispaniyada dengiz savdosining rivojlanishi bilan bog‘liq muammoli vaziyatni ifodalash uchun qo‘llanila boshlagan, XVII asrga kelib Fransiyaning iqtisod sohasida va tijorat ishlarida foydalanila boshlagan.

Hozirgi kunda “risk” tushunchasi “xavf-xatar”, “jur’at”, “vaziyat”, “jasorat”, “qo‘rquv” so‘zlari bilan aniq ifodalab bo‘lmaydigan muammoli vaziyatni bildirish uchun ishlatila boshlagan degan taxminlar ham mavjud.

S.I. Ojegov lug‘atida mazkur atamaga quyidagicha ta’rif berilgan:

– biror bir narsaning mumkin bo‘lgan xavf-xatari;

– ijobiy natija umididagi tasodifiy harakat.

Amerikalik leksikograf, tilshunos N. Vebsterning lug‘atida esa, “risk” hodisasi – zarar yoki (investitsiya, aktsiya yoki mol-mulkni) yo‘qotish ehtimoli sifatida ta’riflanadi.

V. Bek va O.N. Yanitskiylar o‘z ilmiy izlanishlarida riskni xavf-xatar va tahdid sifatida o‘rganib, uning vujudga kelishini jamiyatda sodir bo‘ladigan modernizatsiya jarayoni, deb hisoblaydilar.

Risk so‘zining kelib chiqishi quyidagicha izohlanadi: u fransuz tilidagi “risque” – xavf so‘zidan o‘zlashtirilgan, keyinchalik fransuz tilidan yunoncha so‘z “rizikon” – jar, qoya so‘zi paydo bo‘ladi. Shuning uchun qadimgi yunon dengizchilari uchun “risk qilish” kema halokati xavfidan qochish uchun “tosh, qoya atrofida aylanib o‘tish, toshlar orasida manevr qilish” degan ma’noni anglatgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, “risk” o‘sha davrlarda mumkin bo‘lgan xavf-xatarni anglatgan va bu tushuncha bugungi kungacha saqlanib qolgan.

“Risk” tushunchasi XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida iqtisod, huquq (yuridika) va matematika fan sohalarida faol o‘rganildi. Bu davrda “risk” tushunchasi tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning ehtimollik xususiyati to‘g‘risidagi ilmiy ma’lumotlarning to‘planishi, matematika va mantiqning maxsus bo‘limlarini, ayirboshlash va fond birja operatsiyalarini, sug‘urta amaliyotini tartibga soluvchi me’yor va qoidalarni ishlab chiqish zaruratiyati bilan tavsiflandi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib “risk” tibbiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, psixologik va sotsiologik tushunchaga aylandi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida esa alohida fan doirasidan ajiralib chiqib, fanlararo tadqiqot obyekti sifatida tan olindi. Natijada, xavflarni amaliyotda optimallashtirish (baholash, tahlil qilish, bashorat qilish va ularni boshqarish) uchun turli fanlar nuqtayi nazaridan o‘rganadigan fanlararo yo‘nalish – riskologiya paydo bo‘ldi.

Riskologiya – muqarrar tanlov sharoitida faoliyatning umumiy qonuniyatlarini va o‘ziga xos xususiyatlarini, mutaxassis shaxsiyatining rivojlanishi va deformatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan kasbiy omillarni o‘rganadigan yo‘nalish.

XX asrning 60-yillarida risk ilmiy tushuncha sifatida pedagogika sohasiga kirib keladi va pedagogik riskologiya fani doirasida rivojlana boshlaydi. Bu pedagogikada nisbatan yangi yo‘nalish bo‘lib, o‘qituvchi kasbiy faoliyatining psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy, jismoniy va xulq-atvor jihatlarida yuzaga keladigan risk mohiyatini va xususiyatlarini o‘rganadi.

Pedagogika sohasidagi risklarni I.G. Abramova, L.N. Antonova, A.A. Arlamov, M.M. Potashnik, N.N. Sabinina, E.R. Xabibulin kabi tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida chuqur tahlil qildilar.

Pedagogik risk – bu noaniqlik sharoitida kutilgan natijani olishda eng ehtimoliy prognozli pedagogik qaror qabul qilish harakati. Ushbu pragnozning ishonchliligi va asosliligi pedagogik risk darajasidir. Pedagogik amaliyotda ta’sir natijasi ijobiy yoki salbiy baholanishi uchun vaqt kerak bo‘ladi va shundan keyingina sodir bo‘lgan u yoki bu pedagogik harakatning xavflilik darajasini baholash mumkin bo‘ladi. Pedagogik ta’sir natijalarining namoyon bo‘lish muddati har xil.

“Pedagogika” ensiklopediyasida pedagogik risk tushunchasi quyidagicha talqin qilingan: didaktik maqsadga erishish yo‘lida rejalashtirilmagan, oldindan bilib bo‘lmaydigan, kutilmagan vaziyatlarda sodir bo‘ladigan yo‘qotishlar.

Pedagogik risk nazariyasi va pedagogik riskologiyani o‘rganishda pedagogika ilimlari doktori I.G. Abramovaning ilmiy tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega. Olima “pedagogik risk”ni innovatsion faoliyat jarayonida pedagogning risklarga tayyorgarligini shakllantirish zarurati bilan bog‘laydi. U ilk bor pedagogika sohasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan pedagogik faoliyatga xos strategik, jismoniy, dispozitsion, texnologik, nomuvofiqlik va harakatsizlik kabi risk turlarini aniqlashtirdi.

M.A. Belyaeva pedagogik risklarni tahlil qilar ekan, ta’lim jarayonidagi risklarga quyidagicha tasnif beradi:

kadrlar bilan bog‘liq risklar – ta’lim muassasasining inson resurslarini ifodalaydi. Kadrlar riski pedagog xodimlarning kompetensiyalarining normativ talablarga muvofiqligini belgilaydi;

kontingent (shartli) risklar – bilim oluvchilarning miqdor va sifat xususiyatlari bilan bog‘liq risklar. Masalan, maktabdagi bu risklar o‘smirlarning darslarni o‘zlashtirishdan orqada qolishi va deviant xulq-atvori bo‘lishi mumkin;

protsessual (o‘quv-uslubiy) risklar – bu ta‘lim va tarbiya jarayoni bilan birga yuz beradigan, ta’lim sifatining pasayishi bilan bog‘liq risklar. Bu guruh amaldagi ta’lim jarayoni, shu bilan bir qatorda, yangi standartlar va texnologiyalarni joriy qilish bilan bog‘liq risklarni o‘z ichiga oladi;

imidj risklari – bu ta’lim muassasasi haqidagi jamoatchilik fikri bilan bog‘liq risklar. Ushbu risklarni tavsiflovchi bir nechta jihatlar mavjud. Birinchidan, jamoatchilik fikri pullik asosda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi muassasaning iqtisodiy samaradorligining shartlaridan biridir. Ikkinchidan, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishga, kasbga yo‘naltirishga ajratilgan mablag‘lar qay darajada o‘z samarasini berdi. Masalan, oliy ta’lim muassasalari uchun bu ko‘rsatgich – bitiruvchilarning o‘z mutahassisligi bo‘yicha ish bilan ta’minlanganligi.

Agar pedagogik riskni ta’lim jarayoni ishtirokchilarining faoliyat usuli sifatida olib qaraydigan bo‘lsak, noaniqliklarni bartaraf etish, munosabatlarni tartibga solish va harakatlarni muvofiqlashtirish pedagogik riskning komponentlari hisoblanadi.

1. Ta’lim jarayonida noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida pedagogik qarorlar tanlanadi va qabul qilinadi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish o‘qituvchidan katta ma’suliyat talab qiladi.

2. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari bo‘lgan – o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi har xil munosabatlarni, kelishmovchiliklar va nizolarni tartibga solish juda muhim.

3. O‘quvchilarni aqliy va psixologik jihatdan rivojlantirishda pedagogik jamoa a’zolarining pedagogik harakatlarini muvofiqlashtirish katta ahamiyatga ega.

Pedagogikada riskning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Birinchidan, pedagogik risk – bu o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda talabalar oldidagi mas’uliyatidir. Ikkinchidan, risk – bu qaror qabul qilish vaziyatidagi noaniqlikni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat. Uchinchidan, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solish. To’rtinchidan, pedagogik risk jarayonning barcha ishtirokchilari harakatlarining izchilligini aks ettiradi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik risk – o‘qituvchining maqsadli pedagogik faoliyati davomida yuzaga kelgan noaniq vaziyatlarda eng maqbul alternativani tanlash, qaror qabul qila olish, uni amalga oshirish va natijasini (samaradorligini) baholash holati.

Pedagogik riskning mohiyati noaniqlik sharoitida pedagogik faoliyatni amalga oshirishda bajariladigan funksiyalar orqali nomoyon bo‘ladi. Manbalarni tahlil qilish na-

tijasida, biz pedagogik riskning quyidagi funksiyalarini aniqlashtirdik: axborot-tahliliy, innovatsion, regulyativ (tartibga soluvchi) va ijtimoiy-pedagogik.

Axborot-tahliliy funksiya muammoli vaziyatlarda mumkin bo‘lgan yechimlardan birini tanlash zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, pedagogik qaror qabul qilish uchun ma’lumotlar yig‘iladi, qayta ishlanadi, barcha mumkin bo‘lgan muqobil variantlar tahlil qilinadi va eng to‘g‘rilari saralab olinadi.

Pedagogik riskning innovatsion funksiyasi muvaffaqiyatga erishishda pedagogik subyekt imkoniyatlarini rivojlantirishga va undan samarali foydalanishga yordam beradi.

Pedagogik riskning regulyativ (tartibga soluvchi) funksiyasi ikki tomonlama: konstruktiv va destruktiv xarakterga ega. Konstruktiv funksiya pedagogik sub’ektning muvafaqqiyatli faoliyati hisoblanadi. Destruktiv funksiya esa pedagogik xavfni e’tiborsiz qoldirishda namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-pedagogik risk risk maqbul bo‘lgan ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy guruhlarga ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, risk – pedagogik fenomen sifatida o‘z mazmuniga, shakliga ega va axborot-tahliliy, innovatsion, regulyativ (tartibga soluvchi) va ijtimoiy-pedagogik funksiyalarni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамова И.Г. Теория педагогического риска: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. СПб., 1996. – С.15-bet.

2. Арламов, А.А. Педагогический риск как проблема методологии социальной педагогики [Текст] / А.А. Арламов // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: педагогика и психология. - 2010. - №1. – С. 12-21.

3. Беляева М.А. Риск как предмет научного анализа в педагогике и образовании. /Педагогическое образование в России №11. – С.16-23. 2014.

4. Давыдова М.Е., Капичникова О.Б. Сущность и классификация педагогических рисков. Мир педагогики и психологии. 2017. № 11. – С. 23-28.

5. Ильин, Е.П. Психология риска. / Е.П. Ильин // СПб.: Питер. 2012. – С. 288.

6. Коновалов А.С. Экономический риск как экономическая категория. ВЕСТНИК ВГУ. СЕРИЯ: ЭКОНОМИКА И УПРАВЛЕНИЕ № 1 с. 12-19. 2011.

7. Мардахаев Л.В., авт.-сост. Социальная педагогика: краткий словарь понятий и терминов. Москва: Российский государственный социальный университет, 2016. – С. 364

8. Ожегов С.И. Словарь русского языка / С.И. Ожегов. – М. : Русский язык, 1981. – С. 668.

9. Сабинина Н.Н. Профилактика профессиональных рисков педагогов в условиях инновационной деятельности образовательного учреждения [Текст]: Дисс. ... канд. пед. наук. (13.00.01) / Н. Н. Сабинина. - Санкт-Петербург, 2012. – С.183

10. *Ситченко А.Л., Гладышев В.В. Методика преподавания литературы* : учебно-методическое пособие / *А.Л. Ситченко*, В.В. *Гладышев*. — Москва : ФЛИНТА, 2014.– С.158 — ISBN.

11. Хабибуллин, Э.Р. Готовность к риску как фактор эффективной педагогической деятельности в ситуациях неопределенности [Текст]: Дисс. ... канд. психолог. наук (19.00.13) / Э.Р. Хабибуллин. - М., 2008. – С. 141

12. Яницкий О.Н. Экологическое движение в России : критический анализ / О.Н. Яницкий. – М. : Институт социологии РАН, 1996. – С. 21.

Ilhom HOSHIMOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktaranti

RESPUBLIKAMIZDAGI UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUV-TARBIYA JARAYONI VA MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko‘ra fan, texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalar, takomillashuvi jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, uslubiy talablar.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования образовательного процесса в общеобразовательных учреждениях нашей страны. Также освещаются цель, задачи, содержание, эффективное использование достижений науки, техники и передовых технологий в соответствии с методическими требованиями образования и воспитания подрастающего поколения.

Ключевые слова. Инновационные педагогические технологии, информационные технологии, процесс совершенствования, профессиональная подготовка, методические требования.

The article reflects on improving the educational process in general secondary educational institutions in our country. It is also covered the purpose, objectives, content, effective use of achievements in science, technology and advanced technology according to methodological requirements of education and education for the younger generation.

Key words. Innovation pedagogical Technologies, Information Technologies, the process of improvement, professional training, methodological requiremen.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish mustaqillikning ilk kunlaridanoq eng muhim vazifalardan biri sifatida doimiy diqqat-e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Yurtimizda ta’lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo‘naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu sohani davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ziyod ekani, bunday ko‘rsatkichlarni dunyoning boshqa davlatlarida kamdan-kam uchratish mumkinligi bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YuNISEF, YuNESKO va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilayotganligi fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta’minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga karatilgandir. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li asrlarga arzigulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy yaxshilanishining muhim subyekti bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasi muhim ahamiyatga ega.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Maktab – oliy dargoh. Unda xizmat qilayotganlar yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazishi, maktab va muallim nomiga dog‘ tushirishi aslo mumkin emas. Abdulla Qahhor, Shavkat Rahmon o‘zbek adabiyotini iqtidorsiz havaskorlar va sayoz asarlardan qanchalik himoya qilganini yaxshi bilamiz. Agar maktablarda ham ta’limni, pedagoglikni chalasavod, nomunosib kadrlardan himoyalaydigan shunday jonkuyar ustozlar ko‘payganida, tizimda “adashgan o‘qituvchilar” uchramasdi. Ta’lim sifati va samaradorligi bundan-da yuksalgan, o‘qituvchilik eng obro‘li kasblardan biriga aylangan bo‘lardi.

Shukrki, mamlakatimiz yildan-yilga rivojlanmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimidagi muvaffaqiyatlar barchamizni quvontiradi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1991 yilgacha respublikada 8214 ta maktab mavjud bo‘lib, shundan 4689 tasi (57 foizi) loyihalashtirilgan binolarda joylashgan. 3525 ta maktab (43 foiz) moslashtirilgan binolarda, shundan 1167 tasi (33 foizi) o‘tgan asrning 40 – 60 yillari hashar yo‘li bilan paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan, biror-bir me’yorga javob bermaydigan binolarda faoliyat olib borgan. O‘tgan yillar mobaynida deyarli barcha ta’lim muassasalari kapital yoki joriy ta’mirlandi. 1991–2003 yillarda respublikamizning barcha hududida 1 million 893 ming o‘quvchiga mo‘ljallangan umumta’lim maktablari hamda 152,8 ming o‘ringa mo‘ljallangan maktabgacha ta’lim muassasalari qurildi va ta’mirlandi.

2004 – 2009-yillar mobaynida Maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi doirasida jami 8501 ta maktabda; (351 ta maktabning binosi yangidan qurildi, 2470 tasi kapital rekonstruksiya qilindi, 3608 tasi kapital va 2069 tasi joriy ta’mirlandi). 2010–2016-yillarda Investitsiya dasturi asosida 2255 ta maktabda qurilish-ta’mirlash ishlari bajarildi. Bu maqsadlar uchun 2,9 trillion so‘m sarflandi.

Ta’lim muassasalari 1,09 trillion so‘mlik zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan ta’minlandi. Maktablarning o‘quv mebellari bilan jihozlanganlik darajasi 82591 sinf to‘plamga (2004 yildagiga nisbatan 78,1 foizga ko‘p), fizika laboratoriya xonasi 8519 taga (87,8 foiz), kimyo laboratoriya xonasi 8550 taga (88,2 foiz), biologiya laboratoriya xonasi 8541 taga (88,1 foiz) yetdi.

2004-yilda respublika bo‘yicha bor-yo‘g‘i 1342 ta (14 foiz) maktabga zamonaviy kompyuter berilgan bo‘lsa, bugungi kunda eng so‘nggi rusumdagi o‘quv kompyuter sinflari 12 956 tani yoki umumiy maktablar sonining 81,5 foizini tashkil etadi.

Bundan tashqari, so‘nggi 11 yil davomida maktab o‘qituvchilarining o‘rtacha ish haqi miqdori 17 baravarga oshgani pedagoglarning moddiy farovonligi yuksalishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan xalq ta’limi tizimida mehnat qilayotgan eng ilg‘or va faol pedagoglar oylik maoshining 40 foizigacha ustama haq olmoqda.

Bu ma’lumotlarning barchasi mamlakatimizdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasida yangitdan tahrir qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Ma’lumki, uzluksizlik va uzviylik ta’lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo‘yib, avvalo, jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o‘qituvchi o‘z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini talab etadi.

Uzluksiz ta’lim chuqur, har taraflama asosli ta’lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli shakl, uslub, vosita, usul va yo‘nalishlarining mukammal uyg‘unligidan iboratdir. Uzluksiz ta’lim sifatini turli komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, muayyan uslublar va usullarni ta’lim jarayoniga oqilona tatbiq etilishini ta’minlaydi.

Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o‘quvchining dasturiy bilim, tasavvur va qo‘nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o‘quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘quvchilarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun, ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Ta’lim muassasasi o‘sib kelayotgan shaxsni o‘qitish jarayonida ularga ta’lim olish sharoitlarini yaratadi. O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo‘naltirilgan bo‘lishi o‘qituvchi mas’uliyatini yanada oshiradi. Ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak.

Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Hozirgi kunda o‘quv-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga bo‘lgan qiziqish va talab kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri, zamonaviy bilimlar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi.

O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. O‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Peda-

gogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar ta'lim oluvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Zamonaviy dars uchta: ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko'zda tutadi. Bugungi kunda O'zbekistonda "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi" e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish mazmuni, shakl va usullari hamda prinsiplarini o'rgatadi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodiga, kasb mahoratiga, iste'dodi va madaniyatiga, zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarni faollikka olib kelishiga bog'liq.

Zamonaviy darsga qo'yiladigan muhim talab innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirib, har bir dars mavzunini ilmiy asoslash, o'quvchilar imkoniyatlarini hisobga olgan holda, material mazmuni va hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash; avvalgi o'rganilgan materiallar bilan bog'lash; bir yoki bir necha fanlar bilan integratsiyasini asoslash, o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar va ularning mustaqil ishlari tizimini ishlab chiqish; darsning moddiy-texnik negizini aniqlash va qo'shimcha ko'rgazmali qurollar bilan boyitish; qo'shimcha axborot (kompyuter) vositalaridan foydalanish va darsda muammoli vaziyatni vujudga keltirib, ta'lim mazmuni va sifatini oshirishdan iborat.

Darsga qo'yiladigan muhim talablardan biri ta'lim usul va uslublari, innovatsion texnologiyalar, fanlararo aloqadorlik, ularni o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'lab olib borishning samaradorligini oshirishdan iborat. Ta'lim oluvchilarga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida so'z borganda, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etish, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish dolzarb vazifa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda axborot texnologiyalari, elektron darsliklar va multimedialardan foydalana bilishi muhimdir. Bu esa o'quvchilarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat orttirish ularning ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. www.lex.uz

2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. www.lex.uz

3. "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonun. www.lex.uz

4. "Muzeylar to'g'risida"gi Qonun. www.lex.uz

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. www.lex.uz

6. Мазуров Ю.Л. Природное и культурное наследие как фактор развития природопользования, вопросы методологии и практики управления: автореф. дис. … д-ра. географ. наук: 25.00.24 / Мазуров Юрий Львович. – М., 2006. – С.48

7. Назаров А.А. Роль и место памятника в структуре историко-культурного наследия: дис. … канд. ист. наук: 24.00.01/ Назаров Анатолий Александрович. – Волгоград, 2005. – С.152.

Naima UTAYEVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH VA KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash va kreativligini rivojlantirish muammolari yoritilgan, shuningdek, fan va texnikani hozirgi rivojlanishi sharoitida oliy pedagogika ta’lim muassasalarida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini kreativligini rivojlantirish yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kreativ, kreativ sifatlar, ijodiy, kommunikativ, texnologik yondashuv, refleksiv, tanqidiy fikrlash, metod, tamoyil.

В данной статье освещаются проблемы подготовки и развития креативности будущих педагогов технологического образования в системе высшего образования, а также развитие креативности будущих педагогов технологического образования в высших педагогических учебных заведениях в условиях современного развития науки и техники.

Ключевые слова. Креатив, творческие качества, творческий, коммуникативный, технологический подход, рефлексивный, критическое мышление, метод, принцип.

This article highlights the problems of training and development of creativity of future teachers of technological education in the system of higher education, as well as the development of creativity of future teachers of technological education in higher pedagogical educational institutions in the conditions of modern development of science and technology.

Key words. Creative, creative qualities, creative, communicative, technological approach, reflective, critical thinking, method, principle.

Barchamizga ma’lumki, postindustrial global jarayonlar konteksida jamiyat, o‘zgaruvchan texnologik tartib, raqamli iqtisodiyot, mehnat bozorida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini professional tayyorlash hamda ta’limni sifat jihatidan yuqori darajaga ko‘tarish uchun bitiruvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, kreativlik sifatlarini qaror toptirish va rivojlantirish lozimligini nazarda tutadi. Ushbu maqsadlar jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini joriy etishga, bugungi kundagi maktablarning texnologiya ta’lim o‘qituvchilariga qo‘yayotgan talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan. Ayniqsa, fan va texnikani hozirgi rivojlanishi sharoitida oliy pedagogika ta’lim muassasalarida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini kreativligini rivojlantirish dolzarblik kasb etmoqda.

Bu borada kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini ya-

nada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-289-son Qarori qabul qilindi.

Davlatimizda so‘nggi yillarda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qaror topishi bilan bog‘liq ravishda ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarda nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita, samarali tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantirishga bo‘lgan talab yanada ortdi. Oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarga ega bo‘lishlari yuqorida qayd etilgan ehtiyojni qondirishning muhim omillaridan biri sanaladi.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirish jarayoni oliy ta’lim muassasalarida texnologik ta’lim yo‘nalishlari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu bois mazkur ta’lim muassasalarida texnologik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladigan zarur pedagog shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini kreativligini rivojlantirish negizida quyidagi tamoyillar yotadi: bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining ijodiy faoliyatini shakllantirishning ehtiyoj-motivatsion komponenti; subyekt– subyektmunosabatlar ya’ni ta’lim oluvchilar bilan muloqotning ochiqligi va birgalikdagi faoliyati; ta’lim oluvchilarni sohaga oid bilimlarni berishda izchil, tizimli hamda texnologik yondashuvi; ijodkorlik, muammolilik, o‘quv faoliyatini individuallashtirish;bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini sohaga oid zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish; bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash mazmuni va metodikasini takomillashtirish.

Yuqorida qayd etilganlardan anglanadiki, bugungi kunda bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda dars jarayonida talabalarni kreativ va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonida foydalanilsa, ularda kasbiy malakalarini muntazam ravishda oshirib borilsa, ular tomonidan innovasion uslublarni o‘zlashtirilsa va ular tomonidan olingan ko‘nikmalar amaliyotga joriy etilsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga erilishiladi.

Ma’lumki, respublikamizdagi Pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida texnologik ta’lim yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlanadi. Shu bois oliy ta’lim muassasasi zimmasiga bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida professional bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ta’lim jarayoniga ijodiy yondashgan holda muammolar yechimini topish hamda mustaqil fikrlash doirasida xulosa chiqarishga asoslanadi.

Professor N.A. Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq qilar ekan, mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratadi.

Pedagog olim Sh.S. Sharipov tomonidan o‘quvchilar ijodkorlik sifatlarini uzviy rivojlantirish talablari ta’lim mazmunini loyihalash va standartlashtirish tamoyillari, umumiy o‘rta va kasb-hunar ta’limini modernizatsiyalash sharoitida ijodkor shaxs kasbiy ahamiyatli sifatlarini shakllantirish tizimining didaktik modeli, bo‘lajak mutaxassislar kasbiy kompetentligini ta’minlashning zaruriy sharti sifatida o‘quvchilar kasbiy ijodkorligini tashkil etish va rivojlantirishning kreativ pedagogik texnologiyalari hamda va uni joriy etish mexanizmi, ijodkorlik faoliyati asosida o‘quvchilar kasbiy ahamiyatli sifatlarini shakllantirishga to‘xtalgan.

A.R. Aripdjanova pedagog kadrlarning kreativ salohiyatini rivojlantirishning repro-

duktiv darajasining motivatsion, hissiy-emotsional, kommunikativ va produktiv darajasining altruistik, tahliliy, konstruktiv va innovatsion komponentlari o‘z-o‘zini baholash va individual rivojlantiruvchi autopsixologik treninglar majmuini qo‘llash asosida hamda pedagog kadrlarning kreativ salohiyatini rivojlantirishning fanlararo modulli tizimi refleksiv va virtual ta’lim texnologiyalarini integratsiyalash maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan.

Bugungi kunda ta’limni modernizatsiya qilish, ta’limning sifat samaradorligini oshirish dolzarb vazifaligicha qolmoqda. Bundan tashqari bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimining kasbiy-ijodiy tavsifi orasida ham nomutanosibliklar bor. Ushbu masalalarni hal qilishda o‘z kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashadigan, ta’lim berishning eng samarali usullarini tavsiya etadigan, bilimlarni berishda o‘z faoliyatiga tanqidiy ko‘z bilan qaraydigan o‘qituvchi shaxsini shaklantirish undagi ijodiy sifatlari yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Texnologik ta’limning asosiy maqsadi texnologik madaniyatni shakllantirish bo‘lib, u moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratish bo‘yicha yaratuvchanlik faoliyati metodlari va vositalari tizimini egallashni ko‘zda tutadi. U zamonaviy va istiqbolli energiya tejovchi, moddiy tejamkor va chiqimsiz texnologiyalarni, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish metodlari, mehnat qilish madaniyatini o‘zlashtirish; mehnat qilish jarayonini rejalashtirish va tashkil qilish, texnologik intizom, ish joyini asbob-uskunalar bilan to‘g‘ri ta’minlash, mehnat muhofazasi, hujjatlarni kompyuterda qayta ishlash, muomala madaniyati, ijodiy faoliyati asoslari, loyihalarni bajarish; loyihaviy faoliyat imkoniyatlari va talablarini aniqlash, axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish, loyiha g‘oyasini ilgari surish, ushbu g‘oyani tadqiq qilish, rejalashtirish, tashkillashtirish, ishlarni bajarish va uni baholashni o‘rganishni ko‘zda tutadi. Shaxs shakllanish jarayoni natijasida kutilayotgan va faoliyat loyihasi sifatidagi texnologik ta’limning maqsadi o‘quvchilarni texnologik tayyorlash tizimini, uning shakl va metodlarini rivojlantirishdir.

Pedagog olim Marchenko A.V. Mehnat ta’limi o‘quv fani maktab o‘quv dasturida yangi “Texnologiya” ta’lim sohasiga almashtirildi, mavzular mazmuni konseptual va metodik jihatdan farq qiladi. Ba’zi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar ta’limi ijodiy (moddiy) texnologiyalar faqat kompyuter-axborot texnologiyalariga o‘zgartirildi. Bu 10-15 yoshli bolalar uchun ijodiy faoliyat ekranli, virtual dunyo bilan o‘zgartirilishiga olib keldi.

Olib borilgan tahlillardan aniqlandiki, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida texnologik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda quyidagilarga asoslaniladi: texnologik ta’limni amalga oshirishning mazmuni va vazifalari; hal etiladigan muammolar va yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan qiyinchiliklar xususida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish; shaxsiy faollikka erisha olish; texnologik, pedagogik va psixologik bilimlarning an’anaviy tizimga emas, balki texnologik ta’limning o‘ziga xosligi bilan belgilanadigan tuzilmasi va mazmuniga yo‘naltirilganlik; talabaning fanlarga qiziqishi va ongli fikrlashi, bilim, ko‘nikma, mahoratlari, bilimlarini doimiy ravishda boyitishga intilishi; tarbiyalangan darajasi (axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat); ijtimoiylashuvi (kasbiy va ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi); madaniyatliligi (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni qabul qila olishi, ekologik madaniyat, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati).

O‘.Q. Tolipov bo‘lajak mehnat ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishida kasbiy-pedagogik malakalarning o‘zlashtirilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etib o‘tadi:

1. Talabalar kompetentligini shakllantirish.

2. Talabalarning mehnat ta’limi faoliyatini shakllantirish.

3. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish.

4. Ta’limning shakl va metodlarini tanlash.

5. Pedagogik rejissyorlik.

6. Har xil nostandart pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish malakalari.

7. Ta’lim innovatsiyalaridan foydalanish.

8. Texnik-texnologik (umummuhandislik, konstruktiv-texnikaviy, tashkiliy-texnologik va maxsus).

Shunday qilib, texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kreativligini yuqori darajada bo‘lishiga erishish quyidagi holatlar mavjudligini taqozo etadi: bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy va shaxsiy shakllanish darajasi – bu yo‘lda tashkil etilgan jarayonning umumiy mohiyatini yorituvchi pedagogik tizim samaradorligiga chambarchas bog‘liqligi; bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy jihatdan shakllantirishni ta’minlovchi jarayonlarning tashkiliy boshqaruvi maqsadga muvofiq tarzda takomillashib borishi; refleksiv boshqaruv bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisini kasbiy jihatdan shakllantirishdan ko‘zlangan maqsadning natijalanishini kafolatlaydi.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish, tashkil etilgan darsning qaysi metod va usullardan foydalanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘proq talabalarni tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashga hamda mushohada yuritishga undovchi metodlarni qo‘llagan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, zarur hamda bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini ijodiy-tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yunaltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

– talabalarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik sharoitlarini yaratish;

– talabalarning ijodiy-tankidiy fikrlashiga qo‘yilgan talablarni aniqlash;

– talabalarda ijodiy-tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining o‘ziga xos pedagogik texnologiya jihatlarini aniqlash.

Bizning fikrimizcha, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ta’limga ijodiy yondashgan holda muammolar yechimini topish, mantiqiy fikrlash, xulosalarni mustaqil fikrga asoslanib chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monog. – T.: Fan, 2004. – 126 b.

2. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ...ped.fan.dokt. – T.: 2004. – 314 b.

3. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: ped.fan.dokt. ... diss. – T., 2012. – 264 b.

4. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: PhD. ... diss. – T., 2017.

5. Davlatov K., Vorobev A.I., Karimov I. Mehnat va kasb ta’limi nazariyasi hamda metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 320 b

Jasur MAMATOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA DARSGA NISBATAN INTIZOMLI MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda darsga nisbatan intizomli munosabatni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari bayon qilingan. Shuningdek, maqolada intizom va intizomlilik tushunchalarining pedagogik tahlili hamda muvaffaqiyatli o‘qitishning asosiy sharti sifatida esa – o‘qituvchining sinfdagi tartib-intizomni ushlab turish qobiliyati masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. O‘smir yoshdagi o‘quvchi, dars intizomi, intizomli munosabat, maktab, sinfdan tashqari tadbirlar, ta’sir etuvchi omillar, o‘qitish, hulq-atvor, maxsus intizom, intizomli o‘quvchi.

В данной статье описаны специфические аспекты развития дисциплинированного отношения к уроку у учащихся подросткового возраста. В статье также рассматривается педагогический анализ понятий дисциплины и дисциплинированности, а в качестве основного условия успешного обучения – способность учителя поддерживать дисциплину в классе.

Ключевые слова. Школьник-подросток, классная дисциплина, дисциплинарное отношение, школа, внеурочная деятельность, воздействующие факторы, обучение, поведение, специальная дисциплина, дисциплинированный ученик.

This article describes the specific aspects of the development of a disciplined attitude to the lesson in adolescent students. The article also examines the pedagogical analysis of the concepts of discipline and discipline, and as the main condition for successful learning – the ability of the teacher to maintain discipline in the classroom.

Key words. Adolescent student, classroom discipline, disciplinary attitude, school, extra-curricular activities, influencing factors, teaching, behavior, special discipline, disciplined student.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli vatanparvar yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur strategiya doirasida maktab ta’limining mazmuni va tuzilishi amalga oshiriladi, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi modernizatsiyalashadi, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning sifati o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga ko‘tariladi.

O‘quv jarayonining sifatiga ta’sir etuvchi ustuvor omillardan biri darsni ratsional tarzda tashkil etish hisoblanadi, muvaffaqiyatli o‘qitishning asosiy sharti sifatida esa – o‘qituvchining sinfdagi tartib-intizomni ushlab turish qobiliyati hisoblanadi.

Maktabdagi tartib-intizom muammosi pedagoglarning yuz yillar davomidagi muhim tashvishi hisoblanib kelgan. Hozirgi davrga kelib mazkur muammo o‘zining dolzarbligini yo‘qotmadi, balki yanada chuqurlashdi. Maktab muhitini yanada demokratlashuvi natijasida o‘quvchilar hulq-atvorida jiddiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Maktab o‘quvchilari yanada mustaqil va tashabbuskor, o‘z fikrlarini erkin ifoda etadigan, xat-

ti-harakatlarida ham faolroq bo‘lishdi va mutlaqo tartib-intizom qoidalariga shartsiz ravishda yondashilmadi. Mazkur vaziyat, hattoki yuzaga kelgan ijobiy o‘zgarishlar o‘quv jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi, uning samaradorligini tushirishi va o‘quvchilar savodxonlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin deb hisoblagan o‘qituvchilarni jiddiy tashvishlanishiga sabab bo‘ldi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tartib-intizom yo‘q joyda o‘qituvchining fanni, dars berish metodikasini yaxshi bilishi nolga teng ko‘rsatkichdagi natijani beradi.

Pedagogika ensiklopediyasida “intizom (disciplina – o‘qitish, o‘rgatish; qat’iy tartib) – o‘zini tutishning ma’lum bir tartibi, tarixan qaror topgan qonun-qoida, ma’naviy qadriyatlarni odamlar tomonidan rioya etilishi” tarzida talqin qilingan.

Shu tartib qoidalar jamiyat yoki ma’lum sinflar yoki alohida jamoat guruhlarining manfaati uchun o‘rnatiladi. Intizom keng ma’noda talqin qilinib, uning yordamida jamoat tartib qoidalari amalga oshiriladi. Intizom shunday vositaki, uning yordamida odamlar birligining qandaydir ichki birligiga erishiladi.

Intizom jamiyatning normal, barqaror rivojlanishining muhim shartidir. U tufayli insonlarning xatti-harakatlari yaxshilanadi. Intizom jamoa faoliyati va ijtimoiy tashkilotlarning faoliyati ijobiy tus oladi. Jamiyatda doimo barcha majburiy bo‘lgan va maxsus intizom mavjud. Maxsus intizom faqatgina ma’lum bir alohida tashkilot (mehnat ma’nosi, harbiy bo‘linma) a’zolari uchun majburiydir.

Intizomni ichki yoki o‘z-o‘zini tartibga solish deyish ham mumkin. Shuningdek, o‘z foydasini ko‘zlagan holda intizomga rioya etish yoki majburan tartibli bo‘lish turlari ham mavjud. Ichki intizom jamiyat a’zolari tomonidan insonlar faoliyatini tartibga soluvchi me’yorlarni o‘ziga chuqur sindirishni nazarda tutadi. Bunday intizom tashqaridan ko‘rsatma berilmay, majburlamay amalga oshadi. Ichki intizomdan farqli o‘laroq, o‘z foydasini ko‘zlab intizomga rioya etish va majburan intizomga bo‘ysundirish tashqi sanksiyalar – ijobiy va salbiy turlarga bo‘linadi. Oxir-oqibat intizom jamiyat a’zolarining shaxsiy mafaatlaridan kelib chiqqan holda, ular tomonidan o‘z xatti-harakatlarini belgilaydigan ijtimoiy me’yorlarni bajarishga bo‘lgan ehtiyojlari orqali aniqlanadi. Agar bu me’yorlar individ xatti-harakatlarining ichki prujinasi bo‘lmasa unda faoliyatda turli xil chekinishlar yuz beradi. Shunday holatlarda ular yo ijtimoiy nazorat mexanizmlari yordamida tartibga solinadi, yo bo‘lmasa, mavjud me’yorlar va institutlarning buzilishiga olib keladi. Biroq nihoyatda qattiq tartib-intizom o‘rnatish ham jamiyat uchun zararli bo‘lishi mumkin. Ya’ni, bunday holat jamiyat a’zolarini ijodiy tashabbusdan mahrum qilib qo‘yishi mumkin, o‘z navbatida ijtimoiy tartib-qoidalar o‘zining zarur ijobiy xislatidan mahrum bo‘ladi.

Intizom inson taraqqiyotining dastlabki bosqichida jamoa bo‘lib mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ushbu jarayonda yuzaga kelgan stixiyalar jamoaning umumiy manfaatlarini aks ettirgan. O‘sha paytlarda odamlar umumiy aloqa, intizom, o‘rganib qolingan xatti-harakatlar, udumlar urug‘ boshlig‘iga hurmat asosida faoliyat ko‘rsatishgan.

Intizomlilik – intizomni mahkam tutuvchi, unga amal qiluvchi, bo‘ysunuvchi, tartibli shaxsga xos xususiyat bo‘lib, intizom (arabcha “nizom”, مظنا) – tartib, qoida, tizim. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “intizom” so‘ziga shunday izoh berilgan: “Tartib, tartibli tuzilish, izchillik. Jamiyatning yoki ma’lum jamoa a’zolarning amal qilishi, bo‘ysunishi lozim bo‘lgan qat’iy tartib, qoida”. Intizom shaxs faoliyatida axloqiy sifatlarni amalga oshirishda, qo‘yilgan maqsadga erishishda, o‘z kuchiga ishonishda, boshqalarning yordamisiz vazifalarni hal etishda, mustaqil fikrlay olishda, biron ishni bajarishda boshqa tomonga chalg‘itmoqchi bo‘lgan kuchlarning ta’siriga berilmaslikka, qarashlari va

ishonchlari asosida harakat qilishda va o‘z vazifalarini hal etish ko‘nikmalarini egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lug‘atda intizomga berilgan ta’riflardan biri “izchillik”dir. Unga ko‘ra intizom izchil, uzluksiz, muntazam bo‘lmog‘i kerak, shundagina u yaxshi samara beradi. Qat’iy intizomga yoshlikdan o‘rgatilsa, bola katta bo‘lganda ham intizomli bo‘ladi. Intizom inson faoliyatining barcha turlarida albatta bo‘lmog‘i lozim. Intizom bo‘lmagan oila, jamoa va korxona, muassasada ish unumdorligi hamda sifati past bo‘ladi. Intizom bo‘lmagan joyda parokandalik vujudga keladi, usiz hech qanday tadbirni amalga oshirib bo‘lmaydi. Intizom turlicha bo‘lishi mumkin. Katta korxonalarda ichki intizom qoidalari ishlab chiqilib, jamoa tomonidan tasdiqlanganidan keyin unga rioya qilish hamma uchun majburiydir. Inson huquqlarining ta’minlanishiga to‘siqlik qilmaydigan, insonning insonlik sharafiga zid talablar qo‘ymaydigan intizom qoidalari bajarilganda ishchiga ham, ish beruvchiga ham qulay sharoit vujudga keladi. Intizomli odam vaqtdan to‘g‘ri foydalanadi, o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlaydi va maqsadga erishadi. Intizomli odam sabr-qanoatli bo‘ladi, u nafaqat o‘zining, balki boshqalarning ham vaqtini tejaydi. Intizomli odam ahdiga vafo qiladi. Intizomning o‘zi ham qaysidir ma’noda odamni trabiyalaydi. Masalan, aksariyat hollarda intizomli o‘quvchi yoki talaba darslarni yaxshi o‘zlashtiradi, chunki u o‘zini nazorat qilishini, diqqat-e’tiborini jamlashni biladi. Intizom tilimizdagi tartib, qoida kabi so‘zlar bilan muayyan holatlarda ma’nodosh bo‘lib keladi.

Mumtoz adabiyotimizda nizom so‘zi ham intizom ma’nosiga qo‘llanganini kuzatish mumkin. Masalan “Dunyoga kelgan payg‘ambarlarning har birlari din va shariatlarini tartib va nizom ila yuritmishlar. Xususan islom dini mukammal ravishda tartib va nizomga rioya qilishdir”. Abdulla Avloniy aytgandek, “Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar”.

A. Avloniyning fikricha, intizomsiz odam jamoaga qarshi turadigan madaniyatsiz, ma’naviyatsiz shaxsdir. Tartib intizomga o‘rgatish va o‘rganish birinchi navbatda o‘zi yashayotgan jamiyatga, jamiyat tomonidan o‘rnatilgan tartib-qoidalarga hurmat belgisidir.

Maktabdagi intizomlilik muammosiga oid falsafiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarning tahlili maktab davridagi intizomlilik xususiyatining mohiyati hamda o‘ziga xosligini belgilash imkonini berdi. Intizom – talablarni bajarish va tashabbuskorlik, bo‘ysunuvchanlik va mustaqillik, faollik va sustlik, intizomlilik esa – o‘z xulqini malaka va ko‘nikmalari bilan o‘zaro bog‘liq holda boshqara olish, ularni shaxsiy qoidalar hamda talablariga, shuningdek, individual va jamoa intizomligi evaziga ong elementi hamda odatiy tajribalar, muvaffaqiyat va yutuqlar usuli sifatida to‘planib boradigan jamoa va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan qoida va talablariga bo‘ysundira bilishdek shaxsiy xususiyatlarning mujassamlashganidir. Mazkur xususiyatlarning shakllanishi jarayonida zaruriy holat, anglanmagan xohishlar, tashqi tarbiyaviy ta’sirlardan, erkinlik, mustaqillikka yo‘naltirilgan xulq-atvordan o‘tib borish va ushbu xususiyatlarning birlikdagi jamlanmasi sifatida yondashuvchi mualliflarning nuqtayi nazarlari bo‘linadi.

Maktabda o‘smirlik davridagi umumiy intizomlilik namoyon bo‘ladigan ongli, tadqiqotchilik, mehnat, axloqiy-etik, ekologik-valeologik, moliyaviy-iqtisodiy, yuridik-huquqiy, maishiy-servis va boshqa ko‘plab tur va shakllar bilan farqlanadi.

Pedagogik amaliyotga ko‘ra, tartib-intizom buzilishining eng ko‘p tarqalgan ko‘rinishi o‘quvchilarning darsda mavzudan tashqari suhbatlashishi, mashg‘ulot vaqtida

sinfda yurishi, o‘quvchilarning darsga kech qolishi va dars qoldirishi kabilar hisoblanadi. Qolaversa, intizom buzilishining hozirgi davr uchun xos bo‘lgan ko‘rinishlari darsda uyali aloqa vositalaridan foydalanish, xabarlashish, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish kabilar.

Albatta, maktab hayotidagi amaliyotda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning xulq-atvor reaksiyalarining o‘ziga xos xususiyatining diapazoni yetarli darajada kengdir. Shundan kelib chiqib darsdagi salbiy hulq-atvor natijasida o‘smirlar tomonidan o‘quv materialining yomon o‘zlashtirilishi, agressiv xulq-atvorga ega bo‘lgan ayrim o‘quvchilar sababli darsdan tashqari mashg‘ulotlarda do‘stona muhit va qulay psixologik atmosferaning mavjud bo‘lmasligi kabilar kuzatiladi.

Maktabning barcha o‘qituvchilari pedagogik faoliyatlarida albatta tartib-intizom muammolariga duch keladilar. O‘z fanini biladigan yosh o‘qituvchi maktabga kelib o‘zining ishi ahamiyatsiz ekanligini darhol tushunib yetadi, uni oylik maoshi emas, balki jamoa tuzumi va maktabdagi tartib-intizom tashvishlantiradi. Darsdagi chidab bo‘lmas shovqinni bartaraf qila olmagan yoshi kattaroq pedagog o‘zining kasbiy mahorati haqida o‘ylanib qoladi.

Ma’lumki, o‘smirlik yoshida “lider” bo‘lishga kuchli intilish, sinfdoshlarining uni tan olishiga erishishi bolalarni eng ekstravagant intizom buzilishiga chorlaydi. Oxirgi yillarda maktabda o‘quv jarayonida tartib-intizomning buzilishi va giperfaol bolalar sonining o‘sishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchining chuqur salohiyatga ega emasligi, uning o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotga metodik jihatdan tayyor emasligi asosiy sabablardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika fani va maktab amaliyotida intizom muammosini o‘rganish va u bo‘yicha fikrlash katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa hozirgi zamonning dolzarb muammolarini hal etishning samarali vositasi sifatida ta’lim sifatini oshishiga, ta’lim olishning psixologik qulay atmosferasini va do‘stona muhitini ta’minlab berishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//– T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikkinchi jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.

3. Avloniy A. “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobidan. https://saviya.uz/ijod/nasr/intizom

4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. / Tuzuvchi O. Hasanboyeva. – T.: O‘qituvchi, 1993, – 464 b.

Jamoliddin FOZILOV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHI-YOSHLARDA OBYEKTIV DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

Annotatsiya

Maqolada aksiologik yondashuv asosida o‘quvchi-yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishi bo‘yicha fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif aksiologiyaning asosiy tamoyillari va aksiologik so‘zlashning o‘ziga xos afzalliklarini haqida aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Aksiologik yondashuv, dunyoqarashini shakllantirish, obyektiv omillar, insonning mahorati va qobiliyati, kompetensiya, muammo, kasbiy yuksaklikka erishish, qobiliyat.

В статье рассматривается формирование мировоззрения учащихся-молодежи на основе аксиологического подхода. Также автор упомянул об основных принципах аксиологии и конкретных преимуществах аксиологической речи.

Ключевые слова. Аксиологический подход, формирование мировоззрения, объективные факторы, умения и способности человека, компетентность, проблема, достижение профессиональных высот, способности.

On the basis of an axiological approach, the article reflects on the formation of the worldview of the reader-youth. The author also mentioned the basic principles of Axiology and the inherent advantages of axiological utterance.

Key words. Axiological approach, formation of a worldview, objective factors, skill and ability of a person, competence, problem, achievement of professional heights, ability.

Yosh avlodda dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg‘or kishilari diqqat markazida bo‘lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda davrning o‘qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm faniga umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo‘shganlar. Bilim ilmiy dunyoqarashningasosi bo‘lib hisoblanadi. Bilim olish albatta yoshlikdan boshlanadi. “Yoshlikda olingan ilm toshga o‘yilgan naqshdir”, - deydi dono xalqimiz. Bilimli kishi hech qachon tarix sahifalaridan, xalqimizning qalbidan o‘chmaydi.

Notiqlik – ommaviy nutqning murakkab intellektual va hissiy ijodi, inson faoliyatining alohida turi ham hisoblanadi. Haqiqiy notiqni ilhom, tasavvur va fantaziyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tinglovchilarni ilhomlantirish uchun esa estetik tamoyillar hissiyotlarga singdirilishi kerak. Masalan: kiyimda go‘zal ko‘rinish, so‘zning ohangdorligi va ohangdorligi, tovushlar va umuman nutqida, qalblarni hayajonga solish va boshqalar ushbular qatoriga kiradi.

Badiiy o‘qish va ommaviy nutq nutq mahorati qonunlariga, jumladan, undovlar, imo-ishoralar, mimikalar, pantomima va boshqalarga muvofiq quriladi va, albatta, nutq texnikasi qonunlariga ham, badiiy o‘qish va notiqlik bir-birini to‘ldiradi. Aynan shu jihat orqali o‘qituvchilar ma’ruzachilarga aylanadi.

Notiqlik nutqini boshqa nutq turlaridan ajratib turadigan bir qancha asosiy sifatlar mavjud. Ma’ruzachi odamlarga notiq nutqi bilan murojaat qiladi. Bunday nutq har doim tashviqot xarakteriga ega. Buning uchun pedagog o‘z nutqining mavzusidan ilhomlanib, unga o‘z talabalari uchun zarur va foydali deb hisoblagan predmetlarni kiritishi kerak.

Barchamizga ma’lumki, pedagogning ma’ruza jarayonida uning ichki holati yuz ifodalarida, mimikalarda, tashqi ko‘rinishning tabiatida, turishida, tana harakatlarida aks etadi. Bunday ma’lumotlar talabalar tomonidan ongsiz darajada o‘qiladi. Bundan kelib chiqadiki, birinchi so‘z aytilgunga qadar ham nutqingiz muvaffaqiyatsiz bo‘lishi mumkin. Shunday qilib nutqqa tayyorgarlik ko‘rayotganingizda, mavzuning ishonchli ,asosli rivojlanishi, uning yaxshi ma’lumot bilan ta’minlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilishingiz kerak. Nutqning nutq dizayni tinglovchilar bilan doimiy aloqani ta’minlashi va tarkibni tez va ishonchli o‘zlashtirishga hissa qo‘shishi kerak.

Shuni yodda tutish kerakki, nutq mantig‘i nutqqa ta’sir qilish, ishontirishda qo‘llaniladigan argumentatsiya tizimi deb ataladigan umumiyroq texnik tizimning ajralmas qismidir.

Nutq yanada ishonchli, jozibali bo‘lishi tinglovchilar bilan yaqinroq aloqa o‘rnatish_ ga yordam beradi. Bu ko‘p jihatdan vizual va ekspressiv vositalarning talabalarning his-tuyg‘ulari va hissiyotlari olamiga murojaat qilishi bilan bog‘liq. Mojaroli vaziyatda tarozi ko‘pincha tomoshabinlarning his-tuyg‘ulari va his- tuyg‘ularini egallashga muvaffaq bo‘lgan kishi foydasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

2. Oripov K., Obidova M. Ifodali o‘qish. – T.: O‘qituvchi 1994.

3. Jumayev N. Istiqlol va ona tilimiz. – T.: Sharq, 1998.

4. Kaykavus. Qobusnoma (nashrga tayyorlovchilar S.Dolimov, U. Dolimovlar) T: “Istiqlol” noshirlik markazi. 1994.

5. Maxmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

6. Mahmudov N. Ma’rifat manzillari. – T.: Ma’naviyat, 1999.

7. Jumaniyozov R., Salimov S. G‘oyaviy tarbiyada notiqlik san’ati. – T., 2002.

Nuriddin RUZIYEV,
Andijon davlat universiteti,
‘‘Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

AMALIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARNI FAZOVIY TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasviriy san’at fani orqali o‘quvchilarda fazoviy tasavvurlarini shakllantirish haqida aytib o‘tilgan. Fazoviy tassavurlash usullari to‘g‘risida tahlil qilib chiqilgan adabiyotlarda faqatgina mashq qilish usullari to‘g‘risida gap boradi. Muallif Tasviriy san’at mashg‘ulotlari talabalarni har tomonlama barkamol rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Fazoviy tasavvur, tasviriy san’at, o‘quvchilar, rasm chizish, shakllantirish

В этой статье рассказывается о формировании пространственного восприятия у учащихся с помощью изобразительного искусства. В литературе, где был проведен анализ методов пространственного воображения, говорится только о методах упражнений. Автор отметил, что занятия изобразительным искусством играют важную роль в всестороннем гармоничном развитии учащихся.

Ключевые слова. Пространственное воображение, изобразительное искусство, учащиеся, рисунок, формирование.

This article describes the formation of spatial perception in students with the help of fine art. In the literature, where the analysis of spatial imagination methods was carried out, it is said only about exercise methods. The author noted that fine arts classes play an important role in the comprehensive harmonious development of students.

Key words. Spatial imagination, fine arts, students, drawing, formation.

Tasviriy san’at – eng qadimiy va keng tarqalgan san’at turlaridan biridir. Aslida san’atning turlari juda ko‘p bo‘lib, badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, teatr, kino, xoreografiya, me’morchilik, amaliy bezak kabi boshqa san’at turlari ham mavjuddir. Odatda, haqqoniy borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kengiikda yoki tekislikda (qog’oz yuzasida) aks ettiradigan san’at tasviriy san’at deb ataladi. Tasviriy san’at tushunchasi keng ma’noga ega. XIX asrgacha me’morchilik, haykaltaroshlik va rang-tasvir tasviriy san’atning turlari bo‘lib hisoblangan. Asrning oxirlarida esa grafika tasviriy san’atning eng muhim va hozirjavob turlaridan biriga aylandi. So‘nggi 20 yil ichida san’atning dizayn kabi turi ham o‘z o‘rnini topdi. Tasviriy san’atning hamma turiari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o‘xshashliklari bor. Lekin har birining o‘ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o‘rni, tasvirlaydigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator turlarga va janrlarga bo‘linadi.

Grafika. Grafika yunoncha “grapho” so‘zidan olingan bolib, “yozaman”, “chizaman” degan ma’noni anglatadi. Grafikaga oddiy qora qalam, tushda chizilgan surat, mavzuli kompozitsiyalar kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasmlar, illyustratsiya, plakat, hajviy, sharj, efiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san’ati asosan chiziq, shakl va oq-qora ranglar orqali tasvirlanadi. San’atning ayrim turlarida bo‘yoqlardan ham foydalaniladi, lekin asar mazmunini ochib berishda asosiy

vazifani o‘tamaydi, faqat kishilarni jalb qilishi yoki chaqiriq vazifasini bajarishi mumkin. Shuning uchun ham bu sohada ikki uch xildan ortiq bo‘yoq deyarli ishlatilmaydi. Tasvir mazmuni, xarakteri va boshqa barcha xususiyatlari bo‘yoqlar orqali ifodalab berilsa, rang-tasvir san’ati deb ataladi. Tasviriy san’atning bu turida ijodkor o‘z ichki kechinmalarini ranglar orqali tasvirlaydi, fazoning cheksizligi, undagi narsalarning rang-barangligi, moddiyligini mohirona ko‘rsatadi.

Rang-tasvir san’ati jozibali va qiziqarliligi bilan nafaqat o‘zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham o‘quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab etadi. Rang-tasvir asarlari yana o‘zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko‘ra monumental, dastgohli va dekorativ turlarga bo‘linadi. Monumental rang-tasvir me’morlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu turdagi asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ularda jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar odatda uzoq masofadan ko‘rishga mo‘ljallanadi va obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasvirlanadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to‘g‘risida haqqoniy tasavvur berishi kerak. Monumental rang-tasvir me’morchilikda ma’lum miqdorda bezash vazifasini o‘taydi, shuning uchun uni ba’zan monumental-dekorativ rang-tasvir deb ham yuritiladi.

Haqiqatdan ham shunday, biz chizmani ko‘zdan kechirib unda tasvirlangan narsaning balandligi, uzunligi, eni hamda uning elementlari tarkibiy qismlari va shartli belgilarini o‘rganib chiqib, narsani ko‘z o‘ngimizda gavdalantiramiz, ya’ni chizmasini o‘qiymiz. Shunday qilib chizmani o‘qish deganda narsalarni bajarilgan tasvirlariga asosan uning tashqi va ichki tuzilishlarini bilib hamda fahimlab, bir butun obrazni tasavvur qilish, uning o‘lchamlarini, ishlov berish usullarini bilish tushuniladi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, chizmani o‘qishda fazoviy tasavvur eng asosiy ko‘rsatkich ekan, shu sababli talabalarning fazoviy tasavvuri past bo‘lsa ular chizmani o‘qishda qiynaladilar va chizmachilikka bo‘lgan qiziqishlari susayib boradi.

Fazoviy tasavvurlash usullari to‘g‘risida tahlil qilib chiqilgan adabiyotlarda faqatgina mashq qilish usullari to‘g‘risida gap borib bu san’at mashg‘ulotlari talabalarni har tomonlama barkamol rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tasviriy san’at o‘quvchilarning qiziqish doiralari kengayishiga, ularning estetik ehtiyojlarini tarbiyalashga, tafakkurini, tasavvurini, xotirasini, badiiy qobiliyatlarini, borliq va estetik munosabatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Tasviriy san’at darslarida shaxs uchun muhim bo‘lgan qat’iylik, maqsadga intilish, ozodalik, mehnatsevarlik kabi sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida o‘quvchilar bizni o‘rab turgan borliq hodisalarini o‘rganadilar, predmetlarni tahlil qiladilar va qator grafik va rang-tasvir borasida ko‘nikma va malakalarini egallaydilar. Shuningdek, tasviriy san’at o‘quvchilarda borliqni o‘rganishning samarali vositasi bo‘lishi bilan bir qatorda ularni ko‘rish idroki, tasavvuri, tafakkuri, fazoviy tasavvuri, xotirasi, sezgisi va boshqa psixik jarayolarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

Tasviriy san’at darslaridagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning tasviriy qobiliyatlarini bir qator komponentlarini rivojlantirish va mukamallashtirshga yordam beradi. Bularga biz naturani yaxlit aktiv ko‘ruv, idrok etish, fazoriy, kompozistion va obrazli tafakkur, xotira, tasavvur, ko‘nikma va malakalarni aytishimiz mumkinki, bu professional tayyorgarlikni yaxshilash imkonini beradi. O‘quvchilarda fazoviy tasavvurlarni samarali shakllantirish uchun biz oldin narsani o‘ziga qarab rasm chizdirdik, so‘ng tasavvur asosida faqat boshqa holatda chizdirdik. Qo‘yilgan vazifa shundan iborat ediki, o‘quvchi natura shaklini boshqa ko‘rish nuqtasidan tushunib chizgan. Natijada talabalarga tasavvur asosida

rasm chizish yordam berdiki, u narsani o‘ziga qarab rasm chizganda tushirib qoldirgan yoki ahamiyat bermagan joylarini bilib oldilar. Fazoviy tasavvurlarni samarali shakllantirish uchun rasm chizishning turli xil usullarini yo‘llash lozim.

Tasviriy san’at dasturlarida ham rasmga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar naturadan, xotiradan va tasavvurdan rasm chizish malakalarini egallaydilar, texnik malakalari shakllanadi, shu bilan bir qatorda ularda fazoviy tafakkurlari ham rivojlanadi. Narsaning o‘ziga qarab rasm chizish bilan bir qatorda rasm chizishning boshqa turlarini ham qo‘llash lozim. Psixologlar fikricha, xotira va tasavvurdan rasm chizish inson xotirasi va ongida fazoviy obrazlarni shakllantirshning aktiv vositasi bo‘lib hisoblanadi. Rasm chizishning bu turlarini o‘quvchilarda fazoviy tafakkurlarini shakllantirishda yordam beradi. Masalan, tasavvur asosida rasm chizish chizuvchiga predmetning tuzilishi haqida to‘laroq ma’lumotlarni beradi.

Fazoviy tasavvurni shakllantirish va ko‘ruv idrokini tashkil etishda ko‘rgazmali qurollarni tanlash katta o‘rinni tutadi. Modellar, sxemalar, tablistalarni rasm chizish jarayonida qo‘llashni Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, aka-uka Dyupii, A.P. Losenko, A.P. Sapojnikov, A.K. Savrasov, P.P. Chistyakov, D.N. Kardovskiylar ta’kidlab o‘tishgan. Ular o‘z tajribalari orqali to‘plagan bilimlarini so‘z ham o‘rnini bosolmasligiga alohida xulosa chiqarish mumkinligi va ish jarayonida orttirilgan bilimlar asosiy o‘rin tutishini bilishgan. Pedagog chizish jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, o‘quvchi qaysi maqsadda kuzatishni bilimlari, aniq bir vazifa ustida nimani idrok qilish vazifasini qo‘yish kerak. Masalan: ko‘zani chizganda talaba ko‘zani chiziqli – konstruktiv tuzilishiga vazifasini qo‘ydi. Demak, chizuvchi o‘z faoliyatini ko‘zani konstruktiv tuzilishini chuqur o‘rganilsa aniq tasvirlash uchun zamin tayyorlaydi.

Rasm chizish jarayonini tadqiqot qilgan N.N. Volkov, V.S. Kuzin, E.I. Ignatev va boshqalar rasm chizuvchida fazoviy tasavvurni o‘stirishda qo‘llash asosiy shartlardan biri deb hisoblaydilar. Milliy san’atimiz – bizning faxrimiz, uni biz keng o‘rganishimiz tabiiy xoldir. Lekin, jahonda hamma halqlar tomonidan tan olingan umuminsoniy badiiy qadriyatlar ham mavjud. Ularni talabalarga o‘rgatmasdan turib, halqimiz jahon madaniyatida o‘z o‘rnini topa olmaydi. Aks holda, talabalarimiz milliy qobiqga o‘ralishib qolib, jahon durdonalaridan bahramand bo‘la olmay qoladilar. Shuni alohida qayd qilish lozimki, ko‘p asrlik milliy-badiiy madaniyatimiz(tasviriy san’at, dekorativ-amaliy san’at, me’morchilik san’ati) haqida tegishli bilimlar berish bilan bir qatorda o‘quvchilarga tasviriy va amaliy san’atdan beriladigan malakalarni ham unutmasligimiz zarur.

Agarda tadqiqot, masalan, talabalarning tasviriy san’at darslarida fazoviy tasavvurlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, unda tadqiqot vazifalari quyidagicha:

1. Talabalarni fazoviy tasavvurini o‘quv va darsdan tashqari faoliyatida shakllantirish xususiyatlarini aniqlash;

2. Fazoviy tasavvurini shakllantirish mashqi jarayonida talabalarning o‘quv faoliyatini o‘rganish;

3. Talabalarni fazoviy tasavvurini shakllantirish uchun badiiy bilim va ko‘nikmalarini samarali oshirishini ko‘rsatuvchi shart-sharoitlarini aniqlash. O‘qituvchilar uchun metodik tavsiyanomalar ishlanmasini tavsiya etish.

Ikkinchi bosqich — tadqiqot farazini belgilash. Faraz — bu taxmin, ma’lum muammoni hal qilish yo‘li ko‘rsatilgan taklif. Masalan, agarda talabalarning fazoviy tasavvurining shakllantirishini o‘rganish metodikasini asosi bo‘lishini hisobga olib bosqich-ma-bosqich yondashish joriy qilinsa, qo‘llanilayotgan maxsus mashqlar qiyinchiliklarni yengib chiqishda yordam beradi va o‘quvchilarni fazoviy tasavvurini shakllantirishda

chuqur tushuncha va bilimlar bilan ta’minlaydi. Tadqiqot jarayonida faraz, taxmin o‘zgarmay qolmaydi. Dalillarning to‘planishiga ko‘ra, tadqiqotchi ularni taqqoslab farazini aniqlaydi va aniqroq asoslangan ko‘rinishga keltiradi.

Uchinchi bosqich — farazni sinash va nazariyani asoslash. Bunday sinov turli ilmiy tadqiqot metodlarini qo‘llash bilan eksperiment orqali amalga oshiriladi.

To‘rtinchi bosqich — tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish va tatbiq qilish. Bu bosqichlar tadqiqot amaliyotida qat’iy ketma-ketlikda bo‘lmasligi ham mumkin. Tadqiqotchi ishlash jarayonida boshlang’ich bosqichlariga qaytishi, ayrim holda bir vaqtning o‘zida bir necha bosqichlarda ish olib borilishi ham mumkin.

Tadqiqot metodlari: tasviriy san’at metodikasida ham umumiy ham maxsus tadqiqot metodi qo‘llaniladi. Umum - ilmiyga nazariy tadqiqot metodi: kuzatish, suhbat. eksperiment va boshqalar kiradi. Nazarriy metod, asosan, adabiyotlarni o‘rganish, pedagogik tajribani tahlil qilish va umumlashtirishni o‘z ichiga oladi. Adabiyotlar bilan ishlash, o‘rganiladigan zarur bo‘lgan asarlar ro‘yxatini tuzishdan boshlanadi. Kitoblar, jurnallar, maqolalar to‘plami va. h.k.

Kuzatish — pedagogik jarayonga aralashmasdan uzoq vaqt tahlil qilish ishlariga asoslangan. Kuzatish to‘g‘ridan-to‘g‘ri dars jarayonida yoki sirtdan (ijodiy ishlar, t a ’lim muassasa hujjatlari bilan tanishish) bo‘lishi mumkin. Kuzatish reja asosida olib borilishi kerak. Suhbat — talabalar yoki o‘qituvchilar bilan o‘tkazilishi mumkin. Talabalar bilan o‘tkazilganda, ularni fikrlash yo‘nalishini aniqlash maqsadida suhbatlar uyushtiriladi. Suhbat natijalari bayonnoma, stenograflya yoki magnitofon yozuvlari ko‘rinishida batafsil yozib olinib keyin tahlil qilinadi. Anketa so‘rovi — qo‘yilgan maqsadlarga mos ravishda tadqiqotchi talabalar yozma javob berishi kerak bo‘lgan savollarni tuzib chiqadi. Savollar javob beruvchilar uchun aniq va tushunarli bo‘lishi kerak.

Tajriba sinov — tabiiy va laboratoriya sharoitlarida o‘tkazilishi mumkin. Uning o‘tkazilish muddatlariga ko‘ra, tajriba-sinov o‘qitish yoki tajriba sinov.darsi bo‘lishi mumkin. Natijalarni umumlashtirishning keng tarqalgan turidan biri — natijalarni taqqoslash. O‘qitish metodikasida umummilliy tadqiqot ishlari bilan birgalikda maxsus tadqiqotlar ham o‘tkaziladi. Ularning qo‘llanilishi ijodiy ishlarni bajarishda tasvirlash qobiliyatlarini aniqlash, zaruriyat va tasvirlashda kerakli ko‘nikmalarni shakllantirish bilan belgilanadi. Maxsus metodlarga: siklografiya — harakat kinematikasini qayd qilish; okulograftya — ko‘z harakatlarini qayd qilish; multiplikatsiyalash — grafik tasvirlarni bajarish ketma-ketligini qayd qilish kabilar kiradi. Tadqiqot natijalari maruza, maqola, kurs va bitiruv malakaviy ishlari, risola, o‘quv qo‘llanmalari, diafilm, jadval va boshqa ko‘rinishlarda tayyorlanishi mumkin.

Rasm chizishdan avval narsani yaxshilab kuzatish va tahlil qilish zarur. Rasm chizishga kirishilganda narsaning fazoviy holati, o‘lchami va xarakterli tomonlarining umumiy ko‘rinishini qog‘ozga joylashtirishdan boshlanadi. Narsalarning umumiy ko‘rinishi eniga nisbatan bo‘yi katta bolsa, qog‘ozni tik holatda, eni katta bo‘lsa, qog‘ozni gorizontal holatda qo‘yiladi. Narsalarning umumiy ko‘rinishi yengil chiziqlar bilan qog‘ozda belgilangandan so‘ng, qo‘yilmadagi mayda bolaklarning shakli, tuzilishi va olchamlari aniqlanadi. Ma’lumki, kuzatish – bu narsaga qarab uning shakli, rangi, tuzilishi, o‘lchami va bo‘laklarning nisbati, ularning fazoviy holati va hokazolarni aniqlay olish tushuniladi.

Narsaning mazmunli obrazi ongimizda his qilish asosida shakllanadi. Bu obrazning negizida kuzatilayotgan narsaning tashqi belgi asoslari bilan ifodalash imkoniyatlari mavjud. Kuzatishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – o‘rganish, bilish va tu-

shunishdir. Kuzatish bevosita kishilarning ko‘rish qobiliyatiga bog‘liq. Rasm chizishda chizuvchi naturani sinchiklab o‘rganadi va tahlil qiladi. Uning tuzilishining xarakterli belgilarini aniqlashga harakat qiladi va fikrni tasviriy holda tasvirlanadigan narsalarning tuzilishi, bo‘laklarining o‘zaro bog‘liqligi, fazoviy holatini ko‘z oldiga yaxlit keltirib ifodalashini sintez deb ataladi. Demak, narsani chizish jarayoni kuzatish va uni atroflicha tahlil qilish va tasvirlashdan iboratdir. Narsa rasmini to‘g‘ri va ishonarli tarzda tasvirlash uchun ularni kuzata bilishni o‘rganish zarur. Yozish va o‘qishni o‘rgatgandek, qunt va chidam bilan muntazam mashq qilgan kishi to‘g‘ri rasm chizishini ham o‘rgana oladi. Kuzatish, borliqni turlicha o‘rganish jarayoni va uch o‘lchamli hajmli buyumlarni ikki olchamli qog‘oz betida tasvirlashning murakkabligi fazoviy holat haqidagi tushuncha va tasavvurlarni shakllantiradi.

Tasvirlash jarayonini to‘rt bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda, narsani tashqi ko‘rinishida joylashgan umumiy belgilari – abrisi ko‘rsatiladi. Narsalar shakli ba’zi bir chiziqlar yoki geometrik shakllar tarzida belgilanadi. Ikkinchi bosqichda, narsani va unga yaqin bolgan obyektlarini ta’riflovchi belgilari ko‘rsatiladi, ya’ni o‘ziga xos belgilar. Uchinchi bosqichda, faqatgina narsaning o‘ziga shaxsan tegishli belgilari ko‘rsatiladi. To‘rtinchi bosqichda, tasvirlarning yaxlitligi va bolaklarining o‘zaro bog‘liqligini umumlashtirishiga qaratiladi. Talabalarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish va kengaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan malakani oshirish grafik faoliyatining eng muhim tarkibiy qismidir. Hech qanday fan fazoviy tasavvur va fazoviy farazni chizmachilikdek rivojlantira olmaydi. O‘qitish amaliyotida foydalaniladigan masalalar talabalar tafakkur faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Shunday ekan, talabalrning ijodiy ishlashga undash, fazoviy tasavvurini rivojlantirish, ongli faolligini shakllantirishda chizmachilik fani katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov Badirjon Nuriddinovich. “Maktab tasviriy san’atni o‘qitishni predmetlararo bog‘lanish” T.; 2013. “Fan va texnologiya”.

2. Oripov Badirjon Nuriddinovich. “Tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi”.– T., 2013. “Ilm ziyo”.

3. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Talabalar uchun darslik. – T.: Fan, 2004.

4. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. T.: O‘qituvchi, 1984.

5. Rustam R. J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre “Landscape” of Fine Arts. Spanish Journal of Society and Sustainability, 1, 1-8. Retrieved from http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/

6. Kozim M., Zilola F., Sanjarbek S. (2019). determination of the parameters of the default isometric view using method of rectangular auxiliary projection. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

Sarviniso SANAKULOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA XORIJIY TILNI O‘QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinflarda horijiy tilni o‘qitishda yanada samarali natijaga erishish uchun uslubiy ko‘rsatmalar berilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida, ayniqsa, xorijiy tillarni o‘qitishda multimedia vositalaridan keng foydalanish va qay uslubda foydanilsa yuqori natijalarga erishish bo‘yicha tavsiyalari berilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida multimediali o‘qitish usullari va vositalarining o‘rni, o‘quvchilarning yoshi va bilim darajasiga qarab tanlash muhim ahamiyat kasb etishi haqida alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Multimediali o‘quv vositalari, o‘quv materiallari, didaktik asoslari, dars jarayoni, ta’lim tizimi, idrok etish, taqdimot, tasvirlash, vizual.

В этой статье представлены рекомендации по более эффективному обучению английскому языку учащихся начальной школы. Также даны некоторые способы использования мультимедийных технологий в обучении английскому языку и советы для достижения высоких результатов. Рекомендуется использовать мультимедийные средства в учебном процессе, особенно на иностранных языках, и добиваться высоких результатов по любому методу. Подчеркнута роль мультимедийных технологий в современной системе образования, а также важность отбора с учетом возраста и уровня образования учащихся.

Ключевые слова. Мультимедийные ресурсы, учебно-методические материалы, дидактические основы, учебный процесс, образовательная система, восприятие, представление, иллюстрирование, наглядность.

This article provides guidelines for teaching English more effectively in elementary school students. There are also given some ways of using multimedia technologies in teaching English, and tips for achieving high results. It is recommended to use multimedia resourses in teaching process, especially in foreign languages, and to achieve high results in any method. The role of multimedia technologies in the modern education system, as well as the importance of selection based on the age and level of education of students are emphasized.

Key words. Multimedia resourses, teaching materials, didactic foundations, teaching process, educational system, perception, presentation, illustrate, visual.

Hozirgi vaqtda inson faoliyatining barcha jabhalariga, jumladan, ta’limga, xususan, til ta’limiga yangi axborot texnologiyalari jadallik bilan joriy etilayotgan bir paytda, ayniqsa, maktab ta’limining boshlang‘ich bosqichida eng yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” konsepsiyasida “Ta’limda multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash jarayonini tizimli tashkil etish choralarini ko‘rish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonida multimedia dasturlaridan samarali foydalanish metodikasini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Horijiy tilni o‘qitishda dars taqdimoti, o‘qituvchining jonli tasvirlar bilan uyg‘unlashtirish qobiliyati, quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega bo‘lgan multimedia o‘qitish vosita-

laridan to‘g‘ri va maqbul foydalanishga bog‘liq: birinchidan, ular qo‘shimcha ma’lumot manbai hisoblanadi, ikkinchidan, ular o‘quv ma’lumotlarini taqdim etish shakllarini diversifikatsiya qiladilar, uchinchidan, ular tasvirlash darajasini oshiradilar, tushunchalar, hodisalarni yangilaydilar, to‘rtinchidan, ular horijiy tilni idrok etishni tashkil qiladi va boshqaradi, shuningdek, kengaytiradi. Multimedia vositalari o‘quvchilarning g‘oyalar doirasi, ularning qiziqishini qondirish; o‘quvchilarning bilim olishga hissiy munosabatini shakllantirish; o‘quv qurollarisiz, mavjud bo‘lmagan materiallarni o‘quvchilarga taqdim etish; materialni ongli ravishda o‘zlashtirishga hissa qo‘shish, fikrlash, fazoviy tasavvur, kuzatishni rivojlantirish; olingan bilimlarni takrorlash, umumlashtirish, tizimlashtirish va nazorat qilish vositasidir; nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish, eng muhimi, horijiy tilni o‘qitishning eng samarali shakl va usullaridan foydalanish; darsdagi ma’lumotlarini ixchamlashtirish va sur’atni tezlashtirish orqali dars vaqtini, o‘qituvchi va o‘quvchilarning energiyasini tejash bilan bog‘liq.

Dars jarayonida multimediali o‘quv vositalardan foydalanish, uni tashkil etish tamoyillarini amalga oshirishga qanday hissa qo‘shishini ko‘rib chiqaylik.

Maqsadlilik shundan iboratki, dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning munosabatlari samaradorligini maqsadning aniq qo‘yilishi, ya’ni multimediali o‘quv vositalarining mazmuni (adabiy, tarixiy, biologik, geografik va boshqalar), materialning ahamiyati va murakkabligi, ularni qo‘llashda yosh xususiyatlari, ta’lim jarayonidagi o‘rni (yangilikni idrok etishga tayyorlanish, yangi ma’lumotlarni yetkazish, tasvirlash, umumiy g‘oyalar yoki tushunchalar va mulohazalar tizimini rivojlantirishga hissa qo‘shish, birlashtirish, umumlashtirish yoki olingan bilimlarni yoki rivojlangan ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasini tekshirish) hisobga oilsh.

Tarbiya va o‘qitish jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish – ta’limning o‘zaro ta’siri subyektlarining shaxsiyatini hal qilish, unda ishtirok etish va hamkorlikni kengaytirish. Zamonaviy texnik vositalar o‘quvchilar bilan ishlashda ularning yoshi va rivojlanish darajasi va tayyorgarligini hisobga olgan holda turli xil usullardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Multimediali o‘quv vositalari yordamida ta’lim va tarbiya jarayoni nafaqat ma’lumotlarning to‘yinganligi nuqtayi nazaridan qiziqarli va to‘liq, balki ularning imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi mumkin. Zamonaviy multimediali o‘quv qurollari o‘qituvchilarni ham, o‘quvchilarni ham birgalikdagi faoliyatining faol ishtirokchisiga aylantiradi, chunki ko‘plab zamonaviy multimedia o‘quv qo‘llanmalari yangi didaktik materiallarni o‘zlashtirish, amalga oshirilayotgan ishlar va loyihalarni ishlab chiqish va takomillashtirishda mustaqillik va ijodkorlikni namoyon etish imkoniyatini beradi.

Madaniy muvofiqlik. Buning mohiyati shundan iboratki, ta’lim va tarbiya jarayonida eng avvalo yosh avlodni u o‘sib-ulg‘ayayotgan xalq va jamiyatning o‘ziga xosligi, o‘rganilayotgan til mamlakati va uning o‘ziga xos madaniyati bilan yaqindan tanishtirish zarur. Multimedia o‘quv vositalarisiz bu tamoyilni amalga oshirishi juda qiyin. Har bir davlat madaniyati haqidagi bitta o‘quv filmi o‘qituvchi ko‘p darslarda bera olmaydigan darajada ma’lumot beradi, olingan bilim va g‘oyalarning yorqinligi, tasviriyligi, aniqligi va boyligi haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Ilmiy xarakter prinsipi obyektlarning eng muhim belgilari va xususiyatlari multimedia o‘quv qo‘llanmalari yordamida o‘quvchilar uchun qulay shaklda uzatilganda amalga oshiriladi. Ta’limning qulaylik prinsipi, ya’ni o‘quv materialining mazmuni va o‘qitish usullari o‘quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi, zamonaviy o‘quv vositalaridan foydalanishga asoslanadi: ularni darsga jalb qilish, birinchi navbat-

da, o‘quv materialini o‘zlashtirishni osonlashtirish zarurati bilan bog‘liq. Ong va faollik tamoyili ham bevosita texnik o‘qitish vositalari bilan bog‘liq. Ularning yordami bilan o‘quvchilar fakt va hodisalarni yaxshiroq tushunadilar, ularda tashabbusni uyg‘otadilar, maktabda olingan bilimlarni qo‘llashga o‘rgatadilar.

Fikrlash faolligi texnik vositalar yordamida muammoli vaziyatlarni yaratish orqali quyidagicha rag‘batlantiriladi: o‘quvchilar bilim olishda izlanishga yo‘naltiriladi, sun’iy muammoli vaziyatda, o‘quvchilarning o‘zlari undan chiqish yo‘lini izlaydilar. Noma’lum narsani kashf qilish va film yoki dasturda qo‘yilgan vazifalarni hal qilish orqali o‘quvchilar o‘zlari bilim oladilar va xulosalar chiqaradilar.

O‘rganishni faollashtirish barqaror kognitiv qiziqishni shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Multimediali o‘quv vositalari tasviriy imkoniyatlari, hattoki ekran-tovush ko‘rinishida taqdim etilgan material ham yangi qirralarga ega bo‘lishi, tasavvur qilinganidan boshqacha ko‘rinishi bilan qiziqish uyg‘otadi. O‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini va o‘quv jarayoniga hujjatli materiallarni kiritishni rag‘batlantiradi: fotosuratlar, chizmalar, qo‘lyozmalar, kitoblar, audio yozuvlari. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosan o‘qituvchi va o‘quvchining ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan.

Vizualizatsiya prinsipi - bu texnik vositalarning butun tizimini vujudga keltirgan, ularning yo‘nalishini belgilash, mazmunini tanlash, tegishli didaktik vositalar va texnik vositalarni ishlab chiqish tamoyilidir.

Eng muhimi, multimediali o‘qitish vositalariga nisbatan o‘lchov prinsipini hisobga olish kerak: multimedia o‘quv qo‘llanmalari va kompyuter dasturlari uchun didaktik materiallarning yuqori axborot sig‘imi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv materialini idrok etishi va o‘zlashtirishi hisobiga bo‘lmasligi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’lumotlarni idrok etishning maqbul o‘lchovi mavjud bo‘lib, undan oshib ketishi o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatining pasayishiga olib keladi va natijada ingliz tilini o‘rgatishda ma’lumotlarning katta qismi multimedia o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish uchun o‘rganilmagan bo‘lib qoladi. Shuning uchun multimedia o‘quv qo‘llanmalari yordamida pedagogik jarayonning axborot bilan to‘yinganligini cheksiz oshirish mumkin emas.

Maktabda multimediali o‘quv vositalaridan foydalanishda sanitariya-gigiyena me’yorlariga, xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilish kerak. Zamonaviy texnik qurilmalar, qoida tariqasida, muayyan ko‘rsatmalarga rioya qilishni talab qiladigan murakkab uskunalardir.

Multimediali o‘quv vositalaridan foydalanishning yana bir muhim tomoni – tegishli sinflarni tanlash, tayyorlash va jihozlash. Darslarni multimediali o‘quv vositalaridan foydalangan holda, darslardan oldin yoki keyin diqqat va ko‘rish qobiliyatini sezilarli darajada taranglashtirmaydigan darajada o‘tkazish tavsiya etiladi.

Darslarda o‘rganilayotgan mavzuni vizual mustahkamlashni ta’minlaydigan materialni tanlash tavsiya etiladi. Dars davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mehnat qobiliyatini barqaror darajada ushlab turish uchun proyektor, ovoz yozuvlari bilan ishlash vaqtini belgilaydigan axborotni idrok etish davomiyligi katta ahamiyatga ega. U yoki bu o‘quv qo‘llanmasidan foydalanish muddati o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va fanning xususiyatiga qarab belgilanadi.

Audiovizual vositalardan foydalangan holda dars samaradorligini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, ishni to‘g‘ri tashkil etish bilan kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘quv materialini yaxshi o‘zlashtiradilar. Ammo o‘quvchilarning yuqori mehnat qobiliyatini saqlab qolish va multimediali o‘quv vositalaridan foydalanish samaradorligini ta’minlash uchun

yuqoridagi omillarga qo‘shimcha ravishda, umuman darsni tashkil etishda pedagogik usullarni ham o‘zgartirish, tarbiyaviy ishlarni o‘z vaqtida olib borish. Aks holda kerak, qiziqarli vositalarga qaramay, butun dars davomida bir xil turdagi faoliyat bilan shug‘ullanish o‘quvchilarni tezda charchatadi. Dars boshlangandan 5-10 daqiqadan so‘ng multimediali o‘qitish vositalaridan foydalanish kerak.

Shuni yodda tutish kerakki, katta hajmdagi ma’lumotlar va uning ranglanishi hissiy kuchlanishni oshiradi, ish sur’atini tezlashtiradi (bolalar deyarli chalg‘itmaydi), natijada vizual va eshitish analizatorlariga yuk ortadi. Shuning uchun multimedia o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanishda turli usullari va vositalarni almashtirib turish kerak.

Multimedia texnologiyalari taklif etilayotgan materialning sifat jihatidan yuqori ko‘rinish darajasiga erishishga imkon beradi, o‘quv jarayoniga turli mashqlarni kiritish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, bu esa o‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialga ijobiy munosabatini, qiziqishini shakllantirishga yordam beradi.

O‘quv jarayonida multimedia ham o‘qitish vositasi, ham o‘qitish usuli vazifasini bajarishi mumkin. Grafika, rang, animatsiya kabi multimediya funksiyalari haqiqatda kuzatish qiyin bo‘lgan modellarni yaratish va hodisalarni namoyish qilish imkonini beradi.

Multimediali o‘quv vositasi sifatidagi eng muhim afzalligi o‘quv materialini har bir o‘quvchi uchun individual ravishda, o‘quvchilarning qobiliyati va qiziqishlariga qarab moslashtirish imkoniyatidir. Har qanday o‘qitish tizimini ishlab chiqish va qo‘llash, birinchi navbatda, o‘qitishni individuallashtirish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10. 2019 y.

2. Гальскова Н.Д. СоврехМенная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. / Н.Д. Гальскова. - [3-е изд., перераб. и доп.]. – М.: АРКТИ, 2004. – С. 189.

3. Горляков П. 10. Прагматически направленное обучение общению на английском языке в первом классе общеобразовательных учреждений: Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 СПб.: 2000 – С. 266.

4. Степанова О.А. Дидактические игры на уроках в начальной школе: Метод, пособие / О.А. Степанова, О.А. Рыдзе. - М.: ТЦ Сфера, 2003. – С. 93.

5. Яновицкая Е.В. Большая дидактика и 1000 мелочей в разноуровневом > обучении / Елена Яновицкая, Михаил Адамский. - Санкт-Петербург: Агентство образовательного сотрудничества, 2005. – С. 96.

Dilfuza XOLBO'TAYEVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MADANIY DUNYOQARASHINI BOYITUVCHI DIDAKTIK VOSITALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning madaniy dunyoqarashini boyituvchi didaktik vositalar haqida ma'lumot berilgan. Maqolada talabalarga taqdim qilinadigan madaniy qadriyatlarning yo'nalishlari mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Madaniy dunyoqarash, didaktik vositalar, madaniyatshunoslik, madaniy qadriyat, refleksiv, pedagogik jarayon.

В этой статье представлена информация о дидактических инструментах, обогащающих культурное мировоззрение будущих учителей. В статье раскрыто содержание направлений культурных ценностей, предлагаемых учащимся.

Ключевые слова. Культурное мировоззрение, дидактические средства, культурология, культурная ценность, рефлексивный, педагогический процесс.

this article provides information on didactic tools that enrich the cultural worldview of future teachers. The article reveals the content of the directions of cultural values presented to students.

Key words. Cultural worldview, didactic tools, cultural studies, cultural value, reflexive, pedagogical process.

Madaniyatshunoslik yondashuvining shaxsiy-ijodiy yo'nalishga egaligi shaxs va madaniyatning obyektiv tarzda o'zaro bir-biri bilan bog'liqligini anglatadi. Chunki har bir shaxs madaniyatni targ'ib qiluvchi, ommalashtiruvchi va uni keyingi avlodlarga taqdim etuvchi hisoblanadi. Madaniyat insonni nafaqat rivojlantiradi, balki shaxsning ma'naviy olamini yangilash, boyitish imkoniyatiga ham ega. Madaniyat ijodiy xarakterga ega bo'lib, har qanday tarixiy davrning subyekti hisoblanadi. Shunga ko'ra, madaniyatshunoslik yondashuvining shaxsiy-madaniy yo'nalishi doirasida madaniyatni o'zlashtirish insonning o'z-o'zini rivojlantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Madaniyat yordamida shaxs ijodiy jarayon subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayon o'z mohiyatiga ko'ra, madaniy-ijodiy xarakterdagi jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon bo'lajak o'qituvchining hayotiy faoliyatida tayanch bo'lib xizmat qiladi. Bu ayniqsa, bo'lajak o'qituvchining atrofdagilar bilan munosabati va muloqotida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki o'zaro munosabatlar va muloqot bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishida yetakchi omil sifatida belgilanadi. Madaniy qadriyatlarni rivojlantirish, unga tuzatishlar kiritish, zamonaviy ruh bag'ishlash, bo'lajak o'qituvchizlarning ta'lim jarayonida muayyan yutuqlarga erishishiga xizmat qiladi.

Madaniyat azal-azaldan haqiqatni madaniy hayotiy haqiqatlar, bilimlarni ma'naviy o'zlashtirish vositasi bo'lib kelmoqda. Madaniyat o'zining ko'plab funksiyalariga ega bo'lib, uning ta'limiy funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Shaxslararo munosabatlarga madaniyatning ta'sir ko'rsatish mexanizmi tabiat va madaniyatning o'zaro aloqadorligida namoyon bo'ladi. Chunki inson tabiatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shuning

uchun ham madaniyat shaxsni rivojlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniy nuqtayi-nazardan yondashganda butun olam moddiy hamda ma‘naviy borliq inson kamolotiga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtayi-nazardan yondashganda esa inson layoqati ta‘lim jarayonida madaniy boyliklar vositasida rivojlanadi. Madaniy boyliklarni ta‘lim oluvchilarga quyidagi yo‘nalishlarda taqdim etish mumkin.

Inson fikrlash layoqatiga ega bo‘lganligi uchun ham butun olam o‘zining mohiyatiga egaligini anglab yetadi. Pedagogik nuqtayi-nazardan yondashganda esa shaxsning ushbu layoqati ta‘lim jarayonida egallanadi. Madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan yondashganda ushbu faoliyat shaxsning fikrlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu o‘z navbatida insonning qadriyatlari, shaxslararo munosabatlar tizimi, hissiy, irodaviy, refleksiv sohalari bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Madaniyat turli o‘ziga xos belgilar, ifodalar orqali namoyon bo‘ladi. Bir qator mutaxassislar belgilar va ramzlar inson uchun turlicha mohiyat kasb etishini ta‘kidlaganlar. Oddiy belgilar insonning narsalar va buyumlar mohiyatini anglashiga ko‘maklashadi. Ramzlar esa insonlarni fikrlashga undab, ularni olam va odam bilan o‘zaro muloqot qilishiga zamin yaratadi.

Talabalarga milliy-madaniy ramzlar ifodasi bo‘yicha bilimlar egallash va ularni tahlil qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi topshiriqlar taqdim etilishi maqsadaga muvofiq:

1. O‘zbek do‘ppisi – qalampir ramzining ma‘nosini iziohlang.
2. Kashtalarda anor surati nima maqsadda ifodalanadi?
3. So‘zanalarda aks etgan islomiy naqshlar mazmuni haqida ma’lumot bering.
4. Kulolchilik bezaklarida qanday mazmun ifodalanadi.

Madaniy dunyoqarash ta’lim jarayonida subyektlarning bir-biri bilan madaniy muloqot qilishini ta‘minlaydi. Madaniy boyliklar ta‘lim oluvchilarga tayyor shaklda taqdim etilib, ularning madaniy dunyoqarashini boyitadi. Mazkur dunyoqarash o‘z navbatida ta‘limning madaniyatshunoslik yondashuvi asosida tashkil etilishini ta‘minlaydi. Madaniyat shaxsni ijodkorlikka undaydi. Shu bilan bir qatorda madaniyat o‘z-o‘zini yangilab, madaniy muhitning kengayishi uchun asos yaratadi. Madaniyat ijodkor shaxsning faollashuviga ko‘maklashadi. Inson o‘zining faol ijodiy harakati bilan madaniy dunyoqarashini kengaytiradi va madaniy boyliklarni yaratishga muvvaffaq bo‘ladi.

Madaniy dunyoqarashni rivojlantirishning psixologik asosi esa shaxsni madaniyatshunoslikka oid faoliyatga undab, unda madaniy boyliklarni o‘zlashtirish ehtiyojida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham madaniyat shaxsning mustaqil tarzda o‘z-o‘zini boshqarishiga ko‘maklashadigan hodisa bo‘lib, bu uning burchlari, iffati, or-nomusi, g‘ururi, vijdonida namoyon bo‘lib, uning axloqiy-madaniy dunyoqarashi takomillashuvini ta‘minlaydi. Bugungi kunga kelib ko‘p millatli O‘zbekistonda shaxsning ma‘naviy, madaniy jihatdan rivojlanishi, unda xulq-atvorning shakllanishida madaniy dunyoqarashning katta ahamiyatga egaligi tobora yorqinroq namoyon bo‘lmoqda.

Madaniyatshunoslik yondashuviga asoslangan ta‘lim jarayonida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan madaniy dunyoqarash va xulq-atvor sterotiplari hamda qadriyatlarni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirish asosida madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgan mutaxassisni shakllantirish imkoniyati mavjud.

Ta‘lim jarayonida madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgan mutaxassisni shakllantirish bugungi kunda yanada ko‘proq ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu madaniy tamaddun bilan bevosita bog‘liq. “Ommaviy madaniyat” qamrovining tobora kengayayotganligi inson hayotiy faoliyatining biogenetik asoslariga ziyon yetkazmoqda. Bugungi tamaddun shaxsning rivojlanish jarayonlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishni taqozo

etmoqda. Chunki inson hayot tarzining xarakterini o‘zgartirish zaruriyati kuchaymoqda. Buning uchun shaxsni rivojlantirishning yangi pedagogik paradigmasi, ya’ni, madaniyatshunoslikka asoslangan ta‘lim paradigmasiga o‘tish taqozo qilinmoqda.

Ta‘limning an‘anaviy modeli itoatli ijrochi, mehnatsevar, vatanparvar shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ta‘lim mazmuni esa o‘zida fan asoslarini mujassamlashtirganaligi bilan xarakterlangan. Bugungi kunda bir qator muammolar vujudga keldiki, uni an‘anaviy ta‘lim modeli yordamida amalga oshirish imkonsiz. Ta‘lim mazmuniga axborotlarning ko‘p miqdorda singdirilishi taqdim etiladigan bilimlar ko‘lamining kengayib ketishiga olib keldi. Bu esa o‘z navbatida madaniy dunyoqarashga ega bo‘lgan kasbiy muammolarni mustaqil yecha oladigan mutaxassislarni tayyorlashga e‘tibor qaratish lozimligini ko‘rsatdi.

Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida talabalarning bilimi, ko‘nikmalari, kompetensiyalarini shakllantirish bilan bir qatorda ularning madaniy dunyoqarashini rivojlantirishni ham dolzarblashtirmoqda. Talabalarga taqdim etiladigan pedagogik madaniyatshunoslikka oid bilimlar ularning kasbiy bilimlari bilan uyg‘un tarzda yaxlit tizimni tashkil etishi lozim. Mazkur bilimlar madaniyatga oid qonun-qoidalar va tushunchalar bilan mujassamlashgan holda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining madaniy dunyoqarashini boyitishga xizmat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoniga bo‘lgan konseptual yondashuvlar maxkur jarayonning madaniyatshunoslik yondashuvi doirasida amalga oshishiga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlidir. Buning uchung bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni tomoman yangi, obyektiv metodologik asoslarni izlab topish va unga tayanishni talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonnning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonidagi uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga oid ustuvor vazifalar.

2. Safarova R.G. Pedagogikada madaniyatshunoslik yondashuvining rivojlanish tendensiyalari. // “Zamonaviy uzluksiz ta’limni raqamlashtirish: pedagogika sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Andijon 2022. – 20-23 b.

3. Safarova Roha Gaybullayevna. Developing professional competence of future professionals on the basis of cultural approach. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9), 17–22. https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2470

4. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchanov E.U. “Pedagogik texnalogiyalalar va pedagogik mahorat”. T., 2009. – 30-35 b.

5. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.-T.:O‘zFA “Fan”, 2005.– 205 b.

Lobarxon QARAXONOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI “Tabiiy fanlarni o‘qitish texnologiyalari” bo‘limi mudiri, katta ilmiy xodim

O‘QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada texnologiyalashtirishning zamonaviy bosqichida dizaynerlar, arxitektorlar, fiziklar, biologlar va boshqalar o‘z loyihalari va ishlanmalarida, ilmiy tadqiqot faoliyatida 3D-texnologiyasi imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, biologiya mashg‘ulotlarida 3D-modellashtirish texnologiyasi elementlaridan foydalanish maktab o‘quvchilarining amaliy tayyorgarligini yaxshilaydi, bu esa texnik mutaxassisliklarni muvaffaqiyatli egallashga olib kelishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. 3D-texnologiyasi imkoniyatlari, 3D modellashtirish texnologiyasi elementlari, virtual borliq texnologiyalari, dizaynerlar, arxitektorlar, “Sun’iy borliq”, o‘quvchilarni tadqiqotchilikka kompetensiyalarini rivojlantirish.

В статье рассматриваются возможности 3D-технологии в проектах и разработках, научно-исследовательской деятельности дизайнеров, архитекторов, физиков, биологов и др. На современном этапе технологизации. Также отмечено, что использование элементов технологии 3D-моделирования на уроках биологии улучшает практическую подготовку школьников, что ведет к успешному освоению технических специальностей.

Ключевые слова. Возможности 3D-технологий, элементы технологии 3D моделирования, технологии виртуальных существ, дизайнеры, архитекторы, “искусственные существа”, развитие исследовательских компетенций учащихся.

The article reflects on the possibilities of 3D-technology in its projects and developments, scientific research activities of designers, architects, physicists, biologists and others at the modern stage of technologization. It has also been mentioned that the use of elements of 3D-modeling technology in biology training improves the practical training of schoolchildren, which leads to successful acquisition of technical specialties.

Key words. 3D-technology capabilities, elements of 3D Modeling Technology, Virtual being technologies, designers, architects, “artificial being”, developing competencies of students to research.

Virtual borliq texnologiyalari uzoq vaqtdan beri qarorlarni, shu jumladan, davlat qarorlarini qo‘llab-quvvatlash uchun muvaffaqiyatli qo‘llanilib kelinmoqda, ammo shuni ta’kidlash kerakki, “virtual haqiqat” atamasining talqini umuman qabul qilinmaydi. Ko‘pincha bu atama haqiqatning uch o‘lchovli kompyuter modellariga murojaat qilish uchun ishlatiladi. “Kompyuter grafikasi va animatsiyasining tanqidiy tarixi”da W.Carlson, J.Brigts va S.Brayson tomonidan virtual haqiqatni “o‘lchovli kompyuter simulyatsiyasi” va “interfaol uch o‘lchovli dunyoning ta’sirini yaratish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish”, deb ta’riflaydi. Braysonning ta’rifi atama muallifi deb hisoblanadigan, virtual haqiqatni tushunadigan va foydalanuvchi real vaqt rejimida ishlashi mumkin bo‘lgan muhitga dasturiy kompyuter majmuasi yordamida yaratilganligini ta’kidlaydian J. Lanierning “virtual haqiqat” sharhiga juda yaqin.

Texnologiyalashtirishning zamonaviy bosqichida dizaynerlar, arxitektorlar, fiziklar,

biologlar va boshqalar o‘z loyihalari va ishlanmalarida, ilmiy tadqiqot faoliyatida 3D-texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Tabiiyki, bu yangilik ta’lim sohasini, o‘quv-tarbiya jarayonini ham chetlab o‘tmadi.

3D-modellashtirish – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning keng tarqalgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu ish bilan nafaqat mutaxassislar, balki yangi foydalanuvchilar ham shug‘ullanadi. Har qanday zamonaviy multimedia dasturi kompyuter grafikasisiz amalga oshirilmaydi. O‘quvchilar oldida turgan vazifalar qiziqarli va ko‘pincha hal qilish qiyin, bu esa o‘quv motivatsiyasini oshirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, informatika fani bo‘yicha o‘z qobiliyatlarini ishga solish va biologiya fani bilan aloqani aniqlash, ijodiy imkoniyatlaridan foydalanishni talab etadi.

3D-texnologiya dasturlarini boshqarish har qanday darajadagi o‘quvchiga o‘quv va kognitiv jarayonda faol ishtirok etish va o‘z fikrlarini yuqori darajada namoyish etish imkonini beradi: darslar hamma uchun qiziqarli va tushunarli bo‘lgan savollarni o‘z ichiga oladigan yuqori murakkablik darajasida o‘tkazilishi mumkin .

Biologiya mashg‘ulotlarida 3D-modellashtirish texnologiyasi elementlaridan foydalanish maktab o‘quvchilarining amaliy tayyorgarligini yaxshilaydi, bu esa texnik mutaxassisliklarni muvaffaqiyatli egallashga olib keladi. Kompyuter modellarini yaratish faoliyati o‘quvchilarning fazoviy tasavvurlarini chuqurlashtiribgina qolmay, balki modellashtirish sohasida ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Biologiyada kompyuterli 3D-modellashtirish imkoniyatining kengligi bilan ajralib turadi, matematika, fizika va boshqa fanlar bilan fanlararo aloqalaridan yuqori darajada foydalanadi. To‘liq ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kelajakda talabga javob beradigan mutaxassis sifatida shkllanish uchun o‘quvchilar kompyuterda 3D-modellashtirish asoslarini puxta egallashlari, olgan bilimlarini o‘quv faoliyatida qo‘llashlari zarur.

3D-modellashtirishni o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning bir qismi sifatida o‘rganish o‘qituvchining ijodiy vazifasi bo‘lib, o‘quv jarayoniga ko‘plab pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi:

– muammoli ta’lim texnologiyasida foydalanish, o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga yordam beradi;

– tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyasi, kuchli o‘quvchilar o‘zlarining kreativ qobiliyatlarini tasdiqlaydi, zaif talabalar o‘quv muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi va kasbiy izlanuvchanlik darajasi oshadi;

– loyihalash texnologiyasi talabalarning individual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy va ijtimoiy o‘z-o‘zini aniqlashga ongli ravishda yondashish imkonini beradi;

– tadqiqotchilik metodi talabalarga mustaqil ravishda bilimlarini to‘ldirishga, o‘rganilayotgan muammoni chuqur o‘rganishga va uni hal qilish yo‘llarini taklif qilishga imkon beradi, bu esa dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu har bir talabaining individual rivojlanish yo‘lini aniqlash uchun muhimdir .

O‘quv jarayonini tashkil etish uchun o‘quv jarayonining xarakteri va tashkil etilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan axborot texnologiyalaridan foydalaniladi, chunki talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning tabiati o‘zgarib, pedagogik funksiyalarning bir qismi kompyuterga o‘tkaziladi.

Metodik tayyorgarliksiz va didaktik materiallarsiz 3D-modellashtirish yordamida o‘qitishni samarali o‘tkazish mumkin emas, chunki modellashtirish bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lganlarni qamrab olish deyarli ko‘pchilikni tashkil etadi va ularning tayyorgarlik dara-

jasi ham turli darajada bo‘ladi. Har bir o‘quvchiga berilgan o‘quv topshiriqlarini bajarish bo‘yicha batafsil ko‘rsatmalar mavjudligi uning qobiliyatiga va materialni o‘zlashtirish tezligiga qarab samarali ravishda "yuklash" imkonini beradi.

Har bir o‘quvchi o‘z shaxsini namoyish qilishi mumkin. Ushbu tajribada individual, guruhli va frontal ish shakllari qo‘llaniladi: ma’ruza, amaliy ish, ijodiy loyiha, o‘quv o‘yini, raqobat, mavzuga oid mashqlar.

3D-texnologiyalarining elementlaridan foydalanib o‘rganiladigan topshiriqlar darsdan tashqari mashg‘ulotlarda mustaqil o‘tkazilishi rejalashtirilgan.Topshiriqlar har xil tayyorgarlik darajasidagi o‘quvchilar tomonidan bajarilishi uchun mo‘ljallangan.

3D-dasturidagi amaliy topshiriqlar fazoviy modellashtirish elementlariga murojaat etilishi bilan ijodiydir. Bunday mashg‘ulotlar quyidagi metodlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi: o‘quvchilarning kompyuterlarda sinxron ishlashi, bilimlarini mustahkamlashga doir topshiriq, ko‘nikmalarini tekshirish, o‘quvchilarning dars materiallarini onlayn o‘zlashtirish; mustaqil ish topshiriqlarini rejalashtirish, kompyuterda o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun zarur.

Biologiya darslarida 3D-texnologiya yordamida mavzularni o‘rganishda o‘quvchilar organizmdagi ancha murakkab o‘zgarishlarni amalga oshiradilar. Ish guruh shaklida tashkil etiladi, bu deyarli har bir o‘quvchiga munozaralar, hamkorlikda qaror qabul qilish, mavzu bo‘yicha bilim darajasini sozlash, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish va yetakchi, boshqaruvchanlik xususiyatini namoyish etishda o‘zini muvaffaqiyatini isbotlashga imkon beradi.

Tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan ustuvor ish shakli loyiha metodi bo‘lib, uning maqsadi o‘quvchilarga turli xil fanlardan bilimlarni integratsiyalashni talab qiladigan muammo va topshiriqlarni hal qilish jarayonida mustaqil ravishda bajarish, bilim olish imkoniyatini berishidir. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga ilgari olingan bilim va ko‘nikmalardan foydalangan holda vazifalarni hal qilish, amaliy mustaqil faoliyatda o‘zini namoyon qila olish qobiliyati tufayli bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli amalga oshirish imkonini beradi. Muammoni hal qilish vosita va metodlarini tanlash imkoniyatini o‘quvchilarning o‘zlariga qoldirgan ma’qul. Bu muvaffaqiyat holatini yaratishga hamda o‘quv va kasbga yo‘naltirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Джураев Р.Х., Карахонова Л.М. Медиаобразование как фактор повышения качества обучения школьников //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2013. – Т. 11. – №. 2. – С. 322-323.

2. Караханова Л М. Эффективное исползование электронных образовательных ресурсов в обучении биологии //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 6-1 (53). – С. 41-42.

3. Karakhonova L.M. Using the electronic educational resources in biology lessons //International scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy. – 2019. – 35-39.

4. Караханова Л. Development of students'knowledge based on the use of 3d educational technologies in the biology education //Образование и инноватsионные исследованиуа международный научно-методический журнал. – 2020. – Т., 1. – №. 2. – С. 55-59.

5. Musokhonovna K. L. ICT-As a means of achieving new educational results in teaching natural disciplines in secondary schools //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т,. 11. – №. 10. – С. 315-321.

Dilraboxon MALIKOVA,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA QADIM AJDODLAR TARIXINI O'RGANISH PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada eramizdan avvalgi oltinchi asrda yashagan To'maris, Shiroq hamda eramizdan avvalgi to'rtinchi asrda yashagan Spitamen kabi ajdodlar haqida so'z boradi. Ularning tarixda qoldirgan izi, ko'rsatgan qahramonligi dalillar asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Tarix, To'maris, Spitamen, Shiroq, Massagetlar, Sug'diyona, Saklar.

В статье речь идёт о Томирис и Шираке, которые жили в шестом веке до нашей эры, а так же, о Спитамене, прожившим в четвертом веке до нашей эры. Приводятся научные факты о героизме и мужестве этих предков.

Ключевые слова. История, Томирис, Спитамен, Ширак, Массагеты, Саки.

This article deals with ancestors such as Thumaris, Shirak, who lived in the sixth century BC, and Spitamen, who lived in the fourth century BC. The Trace they left in history, the heroism they showed, is stated on the basis of evidence.

Key words. History, Toomaris, Spitamen, Aphids, Massagetes, Sugary, Sacs.

Zamonaviy ta'lim uzoq yillik tajribalar poydevoriga qurilgani sababli, o'qitishning usullari ham, metodlari ham ko'p. Fanlarni bir-biriga uyg'unlashtirib, ya'ni bog'lab o'qitish pedagogik jamoaning hamkorligini ta'minlashdan tashqari, o'quvchilarda bir vaqtda bir necha fanni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, matematik jumboqlarning she'riy tarzda ifodalanishi, musiqadagi ayrim elementlarning ranglar orqali bayon etilishi va hokazo. Ochiq darslar, turli nazorat ishlari, referatlar, kurs ishlari bilan birga hamkorlikda tashkil qilingan darslardan ham ijobiy natijalar kutish mumkin.

Tarixiy ildizlari qadim asrlarga borib, afsonalarga aylangan zaminda yashar ekanmiz, ajdodlar hayotini, ularning bosib o'tgan yo'llarini, ular ko'rsatgan qahramonliklarni o'rganib, vatan uchun, yurt uchun jon fido qilgan ajdodlar haqida shogirdlarga saboq berish har bir ustoz uchun sharafligini anglaymiz. Agarda yilnomalar va ularning ijodkorlari bo'lmaganida, biz tarix va jasur ajdodlarimiz haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmas edik.

To'maris va uning qabilasi ko'rsatgan jasorat mana ikki ming besh yuz yildan buyon tillardan tillarga o'tib kelmoqda. Tumruz, Tomiris kabi nomlar bilan tarixda qolgan bu qahramon ayol haqidagi ko'plab afsonalar bizgacha yetib kelgan bo'lib To'maris haqidagi eng qadimgi ma'lumotlar tarix otasi – Gerodot asarlaridan ayon bo'lgan. Uning hayoti badiiy asarlarda ham bayon etilgan.

Afsonalarimizni o'rganishni maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlashni tavsiya qilib, bolajonlarga o'zbek multiplikatsiya ijodkorlari tomonidan yaratilgan tarixiy asarlarni namoyish etishni ma'qul ko'ramiz.

Yosh bolalar ham zerikmaydigan tarzda yaratilgan "To'maris" multfilmi atigi o'n

daqiqa davom etsa ham, unda voqealar sodda tilda hikoya qilinadi. Bolajonlar dastlabki tarix sabog‘ini shu va shunga o‘xshash asarlar orqali olishadi.

Buning davomi o‘laroq, maktabdagi o‘quv jarayonida o‘quvchilar tarix va adabiyot darslarida To‘maris haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishadi. Gerodot “Tarix”, Yavdod Ilyosov “Olachipor ajal”, Mirkarim Osim “To‘maris” singari asarlarida mazkur ajdodimiz haqida atroflicha so‘z yuritishgan.

– “Tomiris massagetlar malikasi edi, - deydi Gerodot o‘zining mashhur to‘qqiz kitobdan iborat “Tarix” asarida. ‘‘– U halok bo‘lgan shohning xotini edi”. Asar davomida tarix otasi forslar shohi Kirning To‘marisga sovchilar yuborib, rozilik ola bilmagach, bosqin yo‘liga o‘tganini ta’kidlaydi.

Ammo Kir rozi bo‘lmaydi, yaqin maslahatgo‘ylarining aytganini qiladi, ya’ni Araxsning massagetlar tomonidagi qirg‘og‘iga o‘tib, u yerda noz-ne’matlarga to‘la dasturxon tayyorlatadi. Bu ziyofat dasturxonidan meshlarga solingan mayga alohida joy ajratilgan va shu tariqa bir guruh jangchilar tuzoqqa tushiriladi. Asirlar orasida To‘marisning o‘g‘li Spargapis ham bor edi. To‘maris Kirga o‘g‘lini ozod qilishini, orqasiga qaytishini talab qilib, xabar yuboradi, ammo fors shohi yo‘lidan qaytmaydi.

Qattiq jang bo‘ladi, avval kamonlardan o‘qlar otiladi, so‘ngra yakkama-yakka olishuvlar boshlanadi. Ko‘p qurbonlar beriladi, oxir-oqibat To‘maris yengadi. Halok bo‘lganlar orasidan Kirning jasadini topishni buyuradi, boshini inson qoni to‘ldirilgan meshga solib, “Bir umr odam qoniga to‘ymading, endi to‘yganingcha ich”,- deydi.

Oliy ta’lim bosqichida ham vatanimizning tarixi jahonga nom taratgan olimlar asarlari va tadqiqotlari asosida o‘rganiladi. Rus tarixchi olimi Turayev forslar shohi Kir massagetlar tomonidan o‘ldirilganini qayd etadi, ammo bu taxmin ham bo‘lishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadi. Rahmonaliyev esa, massagetlar malikasi To‘maris haqidagi ma’lumotlarni inkor etmaydi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, To‘maris chindan ham tarixiy shaxs va u Araxs yoki Aranx daryosi bo‘yida yashagan massagetlar qabilasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan.

O‘zining mardona harakatlari bilan nom chiqargan yana bir yurtdoshimiz Shiroqdir. Uzluksiz ta’lim tizimida uning jasoratini o‘rganish uchun dalil va isbotlar ancha oz, ammo u ham tarixiy shaxs bo‘lgan va eramizdan avvalgi besh yuz ellik sakkizinchi – besh yuz o‘n sakkizinchi yillarda yashab o‘tgan. Shiroq haqidagi dastlabki hikoya qadimgi Rimlik yunon yozuvchisi Polienning “Strategemma”larida keltirilgan. “Harbiy hiylalar” asarida muallif to‘qqiz yuzdan ziyod voqeani bayon etgan bo‘lsada, bizgacha sakkiz yuzdan ortiqrog‘i yetib kelgan. “Strabon” asarida ham Shiroq haqida qaydlar mavjudligi haqida manbalar bor, biroq uning “Tarix” asari bizning davrgacha deyarli yetib kelmagan.

Kichkintoylar besh-olti yoshida “Shiroq haqidagi afsona” multfilmi orqali uning jasorati haqida bilib oladilar. To‘rtinchi va beshinchi sinf o‘quvchilari esa, Mirkarim Osimning “Shiroq” hikoyasidan ta’sirlanadilar. Shuningdek, Shiroq haqida Qozog‘istonlik Jonaydarov ham o‘zining “Qadimgi Qazog‘iston afsonalari” to‘plamida “Uning yolg‘iz o‘zi forslarning yetti yuz ming kishilik lashkarini cho‘lu biyobonda sarson-sargardon qilib, ochlik va suvsizlikda xarob qildi”, - degan edi.

Shiroq haqida ajoyib badiiy asarlar yaratilgan. Bulatbek Jondorbekov “Shiroqning jasorati” asarida saklarning mardligini bayon etsa, Yavdod Ilyosov esa sevgi yo‘lida mardlik ko‘rsatgan shiroq haqida “Qahr izidan” asarida so‘zlab beradi. Ma’lumotlarning ozligi tadqiqotchilar uchun izlanish imkonini bergani sababli kelajakda oliy ta’limda ham mard vatandoshimiz haqida tarixiy dalillarga asoslangan yangi ishlar dunyoga

kelsa ajab emas.

Vatan ozodligini hamma narsadan ustun qo‘ygan yana bir jasur ajdodimiz Spitamendir. Spitamen, Spanta, Spantamano kabi nomlar bilan tarixda qolgan bu sarkarda eramizdan oldingi uch yuz yetmishinchi yildan taxminan eramizdan oldingi uch yuz yigirma sakkizinchi yilning dekabrigacha yashab o‘tgan. Spitamen haqidagi ilk ma’lumotlar tarixchi Arrian Flaviyning “Aleksandrning yurishlari” asarida uchraydi. Garchi muarrix taxminan 86 - 160 yillarda yashagan bo‘lsa ham, ammo u Aristobul va Ptolemey Lag yozuvlari asosida Aleksandr Maqduniy yurishlari haqida yetti kitobdan iborat asar bitdi.

Spitamen Sug‘diyonada tug‘ilib o‘sgan va xalqining erki uchun tinmay kurashgan inson edi. Bu afsonaviy vatandoshimiz hayotini aks ettirgan multfilm o‘n uch daqiqa davom etadi, biroq olti yoki yetti yoshli bolalar bemalol tushuna oladilar. Maktab darsliklarida ham Spitamenga alohida e’tibor qaratilgan. Lekin biz uning hayoti va qahramonligini nafaqat darsliklar orqali balki badiiy adabiyotlar vositasida ham o‘rganamiz.

Yavdod Ilesov “Sug‘diyona”, Maqsud Qoriyev “Spitamen”, Lyubov Voronkova “Asrlar qa’rida” singari asarlarida yengilmas sarkarda Spitamen haqida juda qiziqarli hikoya qilib beradilar. Eramizdan avvalgi uch yuz yigirma to‘qqizinchi yildan boshlab barcha yurtlarni hech qanday jiddiy qarshilikka uchramay egallab kelayotgan Aleksandr munosib raqibga duch keldi. Yuzma-yuz janglarda Spitamendan ustun kela olmagan Aleksandr makr-hiyla bilan bo‘lsa-da, dushmanni yengishga qaror qiladi. Natijada yurtning mard o‘g‘loni xoinlik qurboniga aylanadi. Biz kichik tadqiqotimizda Spitamen va uning hayotini tahlil qilishdan yiroqmiz. Faqatgina shuni ta’kidlab o‘tamizki, tarix darsini o‘tish jarayonida boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan ham bilimimizni oshirishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz lozimki, erksevar, vatanparvar ajdodlarimiz biz uchun ibrat bo‘lishga arziydigan hayot yo‘lini bosib o‘tganlar. Ularning mardligi, jasorati, qahramonona ishlari haqida yosh avlodga talab darajasida saboq bermog‘imiz shart. Chunki tarixiy ildizlari mustahkam xalq o‘z kelajagini qurishda ajdodlar yo‘lidan boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, quyidagilarni tavsiya qilmoqchimiz:

1. Uzluksiz ta’lim jarayonida ajdodlar tarixini maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlab o‘rgatib borish.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida ajdodlar tarixi aks etgan harakatli va rolli o‘yinlar tashkil etish.

3. Yuqori sinf o‘quvchilari orasida “Siz qaysi vatandoshimizga havas qilasiz?” degan mavzuda esselar tanlovini o‘tkazish.

4. Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Qadimgi tarixga sayohat” mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borishni targ‘ib qilish.

5. Yosh olimlarning qadimgi ajdodlarimiz haqidagi ilmiy tadqiqotlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арриан Флавий “Поход Александра”.
2. Геродот: История в девяти книгах.
3. Полиэн “Стратегемы”.
4. Труд “История древнего востока. Том I”.
5. Жонайдаров “Легенды древнего Казахстана”.

Sayyora AZIMOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika
fanlari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

OTA-ONALARNING VIRTUAL- PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada ota-onalarda pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga va ularning pedagogik madaniyatini oshirishga yordam beradigan innovatsion dasturlar, usullar, metodlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini oshirish yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan tizimli kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogik kompetensiya, virtual-pedagogik madaniyat, intellekt, dunyoqarash, tafakkur, rivojlantirish, madaniyat.

В статье рассказывается об инновационных программах, методах, приемах, которые помогают родителям развивать педагогические компетенции и повышать свою педагогическую культуру. Автор также дал свои рекомендации по внедрению виртуально-педагогической культуры родителей на основе системного комплексного подхода, включающего направления совершенствования.

Ключевые слова. Педагогическая компетентность, виртуально-педагогическая культура, интеллект, мировоззрение, мышление, развитие, культура.

The article reflects on innovation programs, methods, methods that help parents develop pedagogical competencies and increase their pedagogical culture. The author also made his recommendations on the implementation of the virtual-pedagogical culture of parents on the basis of a systematic comprehensive approach, which includes directions of improvement.

Key words. Pedagogical competence, virtual-pedagogical culture, intelligence, worldview, thinking, development, culture.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, insonlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Prezidentimiz rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar tayyorlashning “O‘zbek modeli” hayotga tadbiq etilmoqda.

Jahon hamjamiyati, davlat, ota-ona, ta’lim muassasasi oldiga quyilgan zamonaviy vazifa – har bir bolaning maksimal darajada rivojlanishi, uziga xosligini saqlab qolish, iste’dodlarini ochib borish va normal ma’naviy, aqliy, jismoniy barkamollik uchun sha-

roit yaratish hisoblanadi. Ta'lim va tarbiyani bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un. Uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Hozirgi tahlikali davrda ommaviy madaniyat, globollashuv jarayoni milliy tarbiya asoslariga jiddiy putur yetkazayotgan davrda oilalarda uzlyuksiz ma'naviy tarbiyani yaxshilash, farzand tarbiyasiga ma'suliyat hissini kuchaytirish, ota-onalarning ta'lim salohiyatini yaxshilash masalasi mamlakatimizda eng dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Agar oilada muayyan ta'lim imkoniyati, ota-onalarimizning ma'suliyatlilik darajasi sust bo'ladigan bo'lsa, u holda bolani tarbiyalashda kuzlangan natijaga erishish mushkul.

Bugungi kunda dunyo ommaviy axborot vositalarida axborotni tanlash va to'g'ri baholash madaniyati (virtual madaniyat) dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bu muammoni yechimini izlashda avvalo oilada har bir ota-ona virtual-pedagogik madaniyatga ega bo'lishi lozim, deb o'ylaymiz. Buning uchun ota-onalar farzandlariga ommaviy axborot vositalari (televizor, kompyuter, internetdagi chat, forum, feysbuk, tvitter) dan unumli foydalanishni avvalo, o'zlari bilgan holda farzandlariga ham o'rgatishi zarurdir. Yuqorida keltirilgan ommaviy axborot vositalari o'zaro aloqa olib borishga xizmat qiluvchi vositalar bo'lib, ular orqali kishilar bir-biri bilan so'zlashib, turli muloqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lishmoqda. Ular ushbu imkoniyatlarni ishga solib, o'z faoliyatlarini amalga oshirib, ma'lumot orttirishmoqda, bilim olishmoqda, tajriba almashilmoqda. Bir tomondan masofaviy ta'lim olish imkoniyatini bersa va intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, real muloqotning virtual shaklga aylanib qolayotganini ham ko'rishimiz mumkin. Endi ota-onalar o'z farzandlari bilan ko'proq yuzma-yuz emas, balki virtual aloqada bo'lib, ularni nazorat qilmoqda.

Zamonaviy virtual vositalarining axborot tarqatishda keng ko'lamga egaligi, shaxs ongi va ruhiyatiga kuchli ta'sir eta olish imkoniyatini inobatga olgan holda ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirishda ularning xizmatini tadbiq etish bugungi sharoitida dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Ushbu vazifani samarali hal qilish uchun media, axborot ta'sir kuchining pedagogik-psixologik (ma'naviy, tarbiyaviy) ahamiyat kasb etishiga erishish talab etiladi. Ma'lumki, virtual-pedagogik madaniyat so'z, tasvir, ramz, timsol, simvol ko'rinishida ifodalanib, ota-onalarning ma'lumot darajasi, intellekti, dunyoqarashi va tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi. Albatta mazkur jarayonda ota-onalarning narsa-hodisalarga, voqelikka shaxsiy munosabati muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirishda kitob o'qish, mutolaa madaniyatini ham kuchaytirish juda muhim vazifadir. Kitob o'qish tajribasini insoniyat boyligi bo'lgan – bilimlar hajmi, intellekt, muloqot tajribasi va shaxsning ijodiy barkamolligi bilan tenglashtirish mumkin.

Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish jarayonini tashkil etishga tizimli-kompleks yondashuv hozirgi davr kishisining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan axborotlashgan jamiyat – axborotlashtirish natijasidir. U o'z navbatida – o'z asosiga va kommunikatsiyaga ega, ildizi bilan imo-ishoralar, mimika, belgilar va qiyofalar yordamida muloqotga ketayotgan qonuniy fenomendir. Biroq axborot – shunchaki qandaydir belgilar tizimi emas, balki sotsiomadaniy fenomen, ya'ni ijtimoiy va madaniy hayot hodisasidir.

Bugungi kunda axborot fenomeni axborot, axborotlashtirish, virtuallik axborot

inqilobi, axborot portlashi, axborot inqirozi kabi tushunchalar orqali ochib beriladi. Bu hodisalarning yo‘naltirilishi eng avvalo, individlarning va ijtimoiy guruhlarning o‘zini-o‘zi identifikatsiyalash usullari bergan ijtimoiy omillar orqali aniqlanadi. Axborotlashgan-texnik olamda inson muammosi – bu boshqa ruhiy-psixologik jabhalar ichidagi shaxs va jamiyat munosabatlarini takomillashtirishni o‘z ichiga olgan, uning imkoniyatlari va ijtimoiy tizimlari ehtiyojini ifodalovchi axloq mezonlari va baholarini ishlab chiqish muammosidir. Texnik-texnologik asosning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy kommunikativ jarayonlarning qonuniyati va tarixiy shartlanganligi axborotlashgan jamiyat fenomenini anglatadi, uning dolzarbligi va muhimligini e’tirof etadi. Salbiy vaziyatlarni nazarda tutgan holda, axborotlashgan jamiyatdan bir onda voz kechib bo‘lmaydi. Qator obyektiv sabablarga ko‘ra, buning iloji ham yo‘q, zero, bularning eng asosiylaridan biri – insonning ijtimoiy mavjudligiga kommunikatsiyaning immanent (ichki) ravishda kirib kelishidir. Aynan kommunikatsiya ijtimoiylikning asosini tashkil qiladi.

Axborotlashgan jamiyatda ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyati past darajada aks etayotganligi, bu bir qator sabablarga bog‘liq: axborotlashuv tufayli insoniy qadriyatlar tizimning o‘zgarishi, urf-odatlar va ularning yo‘qolishi, oila tarkibining buzilishi, yoshlarning o‘zgarishi, oilaning inson hayotidagi o‘rni haqidagi g‘oyalar, insonning asosiy ijtimoiy-psixologik funksiyasini – ota-onani tarbiyalash, erkin munosabatlarni targ‘ib qilish va boshqalarni tushunishning virtual darajada emasligi bilan harakterlanadi. Oila turli xil ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rganish mavzusidir. Ularning har biri ushbu tushunchaga o‘z ta’rifini beradi:

– sotsiologiya nuqtayi nazaridan, bu qon va nikoh bilan bog‘liq bo‘lgan odamlar guruhidir;

– huquqshunoslik ushbu ta’rifni to‘ldiradi va oila – bu birgalikda yashovchi bir necha kishining birlashishi, bu huquqiy munosabatlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, nikoh va qarindoshlik munosabatlaridan keyin paydo bo‘ladigan muayyan vazifalar doirasini aytadi;

– pedagogika va psixologiyada oila a’zolari va turli avlodlarning shaxsiy munosabatlariga, keksa avlod vakillarining ijtimoiy guruhning yosh a’zolarini rivojlanishidagi tarbiyaviy va ijtimoiy roliga qaratilgan.

Zamonaviy virtual vositalarining axborot tarqatishda keng ko‘lamga egaligi, shaxs ongi va ruhiyatiga kuchli ta’sir eta olish imkoniyatini inobatga olgan holda ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirishda ularning xizmatini tadbiq etish bugungi kun sharoitida dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Ushbu vazifani samarali hal qilish uchun media, axborot ta’sir kuchining pedagogik-psixologik (ma’naviy, tarbiyaviy) ahamiyat kasb etishiga erishish talab etiladi. Ma’lumki, virtual-pedagogik madaniyat so‘z, tasvir, ramz, timsol, simvol ko‘rinishida ifodalanib, ota-onalarning ma’lumot darajasi, intellekti, dunyoqarashi va tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi. Albatta mazkur jarayonda ota-onalarning narsa-hodisalarga, voqelikka shaxsiy munosabati muhim rol o‘ynaydi. Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirishda kitob o‘qish, mutolaa madaniyatini ham kuchaytirish juda muhim vazifadir. Kitob o‘qish tajribasini insoniyat boyligi bo‘lgan – bilimlar hajmi, intellekt, muloqot tajribasi va shaxsning ijodiy barkamolligi bilan tenglashtirish mumkin.

Hozirgi vaqtda ota-onalarda pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga va ularning pedagogik madaniyatini oshirishga yordam beradigan yetarlicha innovatsion dasturlar, usullar, metodlar manbai to‘plangan. O‘zbekistonlik olimlar va amaliyotchi o‘qituvchilar ota-onalar tarbiyasi hamda o‘qitish sohasida mahalliy va xorijiy o‘qi-

tuvchilarning ko‘p yillik tajribalariga tayanib, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishning nazariy asoslarini ishlab chiqmoqdalar. Ko‘pgina ta’lim muassasalarida pedagogik jamoalar va individual mualliflar ota-onalar tarbiyasi uchun dasturlar tuzadilar, ota-onalar bilan ishlashning turli yo‘nalishlarini ko‘rib chiqadilar (bolalar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, oilada vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq tashkiliy, uslubiy, psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash shular jumlasidandir). Bunday tadbirlarning asosiy maqsadi oila, onalik, otalik, bolalik va oilaviy qadriyatlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish, boshqa ijtimoiy muammolarni hal etish, shuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayoni bilan bog‘liq. Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini oshirish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan tizimli kompleks yondashuv asosida amalga oshirilsa yanada samaraliroq bo‘ladi:

– ota-onalarning psixologik-pedagogik ta’limini tashkil etish;

– o‘rta maktab o‘quvchilari o‘rtasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun moslashtirilgan dasturlardan foydalangan holda nikoh va oila qiymati to‘g‘risida tushunchani shakllantirish;

– pedagogik yo‘nalish talabalarining ota-onalar bilan ishlashga kasbiy tayyorgarligi, bunda pedagogik muloqotda kommunikativ tomonga alohida e’tibor berilishi kerak;

– zamonaviy sharoitlarda ota-onalar bilan ishlashni samarali tashkil etishga imkon beradigan ilg‘or malaka oshirish dasturlari bo‘yicha amaliyotchi o‘qituvchilarni tayyorlashni amalga oshirish lozim.

Ushbu yo‘nalishlarning amalga oshirilishi ota-onalar va umuman jamiyatning pedagogik madaniyatini oshirishni tashkil etishga tizimli kompleks yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi va shu bilan tabiiy ta’sir o‘tkazish muhitini, davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy institutlari va tuzilmalarining o‘zaro munosabatlarini rivojlantiradi. Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini oshirishning yaxlit tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri, bu ularning psixologik-pedagogik ta’limidir. Bunda bola shaxsini rivojlantirish, yoshi va individual xususiyatlariga qarab, u bilan eng qulay munosabatlarni o‘rnatish yo‘llari hamda boshqalarni o‘rganish nazarda tutilgan. Bunga mutaxassislar (psixologlar, tibbiyot xodimlari, yuristlar va boshqalar) ham jalb qilinishi kerak.

Shunday qilib, o‘rganilayotgan muammoni chuqur tahlil qilish, ta’lim sohasida ijtimoiy sheriklik ta’lim sifatini yaxshilashning eng muhim shartlaridan deya xulosa chiqarishga imkon beradi. Ta’limning eng asosiy subyekti bo‘lgan ota-ona, ya’ni oila ta’lim salohiyatini yaxshilamasdan ma’naviy barkamol, jamiyat taraqqiyotiga nafi tegadigan kelajak avlodni tarbiyalashdek sharafli vazifani uddalay olmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh. Mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor ma’ruzasi. 12-fevral 2020-yil.

2. Xaydarova X.R. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari. Monografiya. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi” 2022, – 216 b.

3. Quronov M. va boshqalar. Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya. Ommabop risola. “Mahalla ziyosi” respublika o‘quv uslubiy markazi. – T., 2015 y. – 72 b.

4. Structure and Mechanisms of Action of The Edcatcional cluster. Mardonov S., Toshtemirova S., Ahmadjonov B, Koshanova N // International Journal of Psychologial Rehabilitation,Vol.24,Issue 07,2020. 8104-8111.

Nasiba MASHARIPOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA PAHLAVON MAHMUD FAOLIYATIDAN DIDAKTIK MANBA SIFATIDA FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, didaktik vositalarini aniqlashga oid fikr-mulohazalar bildirilgan. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllantirishda o‘zbek milliy qahramonlarining faolyatidan didaktik manba sifatida foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, Pahlavon Mahmudning faoliyati o‘quvchilarning axloqiy, ma’naviy, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga doir bilimlarini oshirishda alohida ahamiyatga egaligi izohlangan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchi, tanqidiy fikrlash, pedagogik imkoniyat, didaktik vosita, milliy qahramon, Pahlavon Mahmud, juvonmardlik, Vatanparvarlik, ruboiy, rivoyat, tahlil qilish.

В данной статье дана обратная связь по выявлению педагогических возможностей, дидактических средств формирования у учащихся навыков критического мышления. Выявлено значение использования деятельности узбекских национальных героев как дидактического ресурса в формировании у учащихся навыков критического мышления. Также было отмечено, что деятельность Пахлавана Махмуда имеет особое значение для повышения знаний учащихся о моральном, духовном, логическом, критическом мышлении.

Ключевые слова. Читатель, критическое мышление, педагогическая возможность, дидактический инструмент, национальный герой, Пехлеван Махмуд, джуванмардлик, патриотизм, рубаи, повествование, анализ.

This article provides feedback on the identification of pedagogical capabilities, didactic means of forming students' critical thinking skills. The importance of using the activities of Uzbek national heroes as a didactic resource in the formation of students' critical thinking skills is revealed. It was also noted that the activities of Pahlavan Mahmud are of particular importance for improving students' knowledge of moral, spiritual, logical, critical thinking.

Key words. Reader, critical thinking, pedagogical opportunity, didactic tool, national hero, Pahlavan Mahmud, juvanmarвlik, patriotism, rubai, narrative, analysis.

O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda atrof-muhit, jamiyat, ta’lim muassasasidagi kommunikativ jarayonlar muhim omillardan hisoblanadi. Hech bir inson jamoadan tashqarida o‘zligini to‘la anglab yetmaydi va o‘z nuqtayi nazari, pozitsiyasini egallay olmaydi. O‘quvchilarning oila va jamiyat a’zolari, ta’lim jarayoni subyektlari bilan olib boradigan o‘zaro kommunikativ munosabatlari ularda tanqidiy fikrlashni shakllantirish muhitini tashkil etadi. Shaxsning shaxslararo muloqotga kirishishi natijasida voqea-hodisalarga, atrofdagilarga, ularning xatti-harakatlariga o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi.

O‘quvchilarning shaxslararo munosabatlarga kirishish jarayonida kattalar, ota-onalar, ustoz-murabbiylarning o‘rni muhimdir. Sharq mutaffakkirlari bu masalaga alohida to‘xtalganlar. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllanishida aynan oiladagi katta-

lar, ustoz-murabbiylarning ta'siri katta bo‘ladi. Shu o‘rinda mutafakkir ajdodimiz Abu Nasr Forobiyning shaxslararo munosabatlarga bergan quyidagi fikrlari ahamiyatlidir: “Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro bir birlariga yordam qiluvchi kishilarni birlashtiruvchi yurt fazilatli yurtdir. Baxtga erishish maqsadida bir-birlariga o‘zaro yordam bergan xalq fazilatli xalqdir”.

Sharqning ulug‘ mutaffakkirlaridan biri, milliy qahramon Pahlavon Mahmud faoliyati o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim didaktik vositalardan sanaladi. Pahlavon Mahmudning javonmardlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, polvonlik sifatlari o‘quvchilar uchun pozitiv motivlarni yaratadi.

Pahlavon Mahmud XIII asrda (1247-1248-yillarda tug‘ilgan) Xorazmda yashagan, ulug‘ pirlardan ta'lim-tarbiya topgan, javonmardlik tariqatini rivojlantirgan, “kuragi yer ko‘rmagan” pahlavon hamda falsafiy, mazmunli ruboiylar yozgan ijodkor sifatida jahonga mashhur bo‘lgan. U Sharqning ko‘pgina davlatlarida pahlavonlik kurashlarida qatnashib hamisha g‘olib bo‘lganligi bir qancha tarixiy manbalarda keltirilgan. Pahlavon Mahmud o‘zining ham jismoniy, ham aqliy, ham g‘oyaviy (juvonmardlik tariqati) yuksakligi bilan nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham xalq qahramonlari safining yetakchisi hisoblanadi.

Mashhur tarixchi va olimlarning ko‘plab ilmiy asar va tadqiqotlarida Pahlavon Mahmudning hayoti, ijodi, tariqati, pahlavonlik faoliyati, jo‘mardligi, xalqparvarligi borasidagi ko‘plab ma'lumotlar bayon etilgan. Pahlavon Mahmud faoliyati haqida Muhammad G‘iyosiddinning “G‘iyos ul-Lug‘at”, J. Maxmudovning “Pahlavon Mahmud hayoti va adabiy merosining matniy tadqiqi”, I. Rahimov, K. Xudoyberganovlarning “Hazrati Polvon pir”, H. Xomidiyning “Ko‘xna Sharq darg‘alari” , N.X. Mallaevning “Xorazm Xayyomi”, X. Islomiyning “Alisher Navoiy va Xorazm avliyolari”, E. Ochilovning “Pahlavon Mahmud” kabi asarlarda keng va qimmatli ma'lumotlar berilgan. Pahlavon Mahmudning pahlavonlik, donishmandlik, javonmardlik va ijodkorlik faoliyati o‘quvchilardan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik manbai sifatida allohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, Pahlavon Mahmud ruboiylaridagi ma'naviy-axloqiy qarashlar o‘quvchilarning axloqiy, ma'naviy, mantiqiy, tanqidiy fikrlashga doir bilimlarini oshiradi. Pahlavon Mahmud ijodini chuqur o‘rgangan mutaxassis T. Jalolov shunday ta'kidlaydi: “Pahlavon Mahmud ruboiylarini o‘qigan kishi o‘zini qandaydir ma'naviy pokiza, ruhiy tetik va ulug‘vor his etadi, chunki bu ruboiylarga shu ruh singdirib yuborilgan”.

Pahlavon Mahmud o‘zining ruboiylarida Umar Xayyom ilgari surgan fikr va g‘oyalarning izidan borib, uning falsafasini rivojlantirishga erishgan. Xayyom ruboiylaridagi singari Pahlavon Mahmud ijodida ham insonning bu hayotda yashash maqsadi, kelish va borish manzili, bu dunyoning o‘tkinchiligini bilish va mardona, halol bo‘lib umr kechirishga intilish, chuqur fikrlash, tahlil qilishga va o‘zini anglashga chorlash g‘oyalari yetakchilik qiladi. Masalan, quyidagi ruboiysida shunday deydi :

Yomonning sira hatlama ostonasidan,
Ye tushma tuzog‘iga tag‘in donasidan.
O‘q rostligidan bilib kamonni egri,
Ko‘r qochishini shitob uning xonasidan!

Bu jumlalarni tahlil qilib o‘quvchilarga tushuntirishda tanqiy fikrlash zarurati tug‘iladi. O‘quvchilarga yomon insonlar bilan do‘st tutininshdan, uning dasturxonidan luqma yeyishdan saqlanish kerakligi, aks holda buning oqibati ayanchli bo‘lishini, yomon hulqli, yomon niyatli insonlardan o‘zini qanday saqlash, qanday uzoq tutish mumkinli-

gini tushuntirish va bu borada ular bilan fikrlashish lozim. Bunday holatlardan saqlanishning dastlabki ma’naviy-tarbiyaviy sharti sifatida Pahlavon Mahmud “yomonlik qilish haqida o‘ylamaslik, hayolga ham keltirmaslik lozim”ligi, “yomon so‘z va o‘ylarni tilda bayon etmaslik”ka da’vat etadi.

Desangki, yomonlik yetmasin hech kimdan,
Yomon o‘yu yomon so‘z, yomon ishdan kech.

Insonlarni, ayniqsa, erkak kishinini mard, qalbi toza, hamisha ko‘makka tayyor bo‘lmog‘i lozimligini va aksincha qo‘rqoq, pastkash, nomardlardan xech qachon el koriga yaraydigan, vatanni ko‘z qorachig‘iday asrab, himoya qiladigan inson chiqmasligini quyidagi ruboiysida ta’kidlaydi:

Qora tosh sira ham bo‘lmas lojuvard,
Toza qalbga yuqmas aslo changu gard.
Quloq solgin Puryoyvaliy so‘ziga,
Qo‘rqoqlardan biron chiqqanmidi mard!

Ushbu ruboiyni tajriba-sinov manbasi sifatida o‘quvchilarga taqdim etilganda, dastavval ruboiyda urg‘u berilgan “qora tosh”, “lojuvard”, “toza qalb”, “gard”, “qo‘rqoq”, “mard” so‘zlarining lug‘aviy ma’nolari, timsoli, xususiyati haqida ma’lumot beriladi. Insonlarga xos bo‘lgan qo‘rqoqlik, mardlik, toza qalblilik tushunchalari izohlanadi. O‘quvchilardan tarixda, hayotda, jamiyatda, bugungu kunda qanday mard, qalbi toza yoxud qo‘rqoq, nomard insonlar haqida bilish va bilmasliklari so‘raladi. Ularga bu borada tanqidiy fikrlab, o‘zlari bilgan va tanigan insonlar faoliyatini tahlil qilish, xulosa chiqarishlari uchun. O‘quvchilar o‘zlari bilgan, eshitgan, tanigan, tarixiy, badiiy asarlarda yoki darsliklarda o‘qib u haqida ma’lumotgan ega bo‘lgan, o‘zi yoqtirgan yoki yoqtirmagan shaxslarining ismlarini, mansubligini, faoliyatini, yoqtigan, yoqtirmagan tomonlarini, faoliyatining yaxshi yoki yomon jihatlarini o‘z tanqidiy tahlili asosida yozib beradilar. Shu bilan bir qatorda ular faoliyatidagi qaysi ish ularni juda ta’sirlantirganini, bundan qanday xulosa chiqargani va qanday ibrat olganini ham ifodlashlari nazarda tutiladi. Shuningdek, bu modulda o‘quvchilar o‘zlari bugungi kunda tanigan, bilgan insonlari, ularning fazilatlari, amalga oshirgan faoliyatlari haqida tanqidiy fikrlashlari, baholashlari, ibratli tomonlarini e’tirof etishlari uchun ham tavsiyalar taqdim etilgan.

Pahlavon Mahmud Najmiddin Kubroning “Javonmardlik” g‘oyalarini yanada rivojlantirib, o‘ziga ko‘plab shogirdlarni ergashtirgan. Javonmardlarning maqsadi – yaxshilik, sifati – mardlik hisoblanib, hayotini, kuchu quvvati, aqlu idrokini yordamga muhtoj odamlar xizmatiga bag‘ishlash ularning hayot prinsiplari bo‘lgan. Topganini o‘zgalar bilan baham ko‘rish, vatan, elu yurt, do‘st va yaqinlariga sadoqatli bo‘lish, hamisha halol va pok bo‘lishni haqiqiy insoniylik deb hisoblashgan. Javonmardlik qilishga asosan pahlavonlar talabgor bo‘lganliklari uchun ham Pahlavon Mahmud pahlavonlarni tarbiyalovchi ustoz bo‘lishdan tashqari ularga javonmardlik odobi va vazifalaridan ta’lim beruvchi pir bo‘lgan. Shuning uchun ham uni xalq orasida “Polvon pir” deb ham atashgan. Pahlavon Mahmudning javonnmardligi haqida ko‘plab rivoyatlar mavjud. Ushbu rivoyatlardan va ularda ilgari surilgan hayotbahsh g‘oyalardan o‘quvchilarda o‘z faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qilish, baholash, xulosalashga, o‘z qarash va pozitsiyasini belgilab olishga yo‘naltirilgan tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda didaktik manba sifatida foydalanish mumkin.

“TANTI PAHLAVON” rivoyati

Eron shohi kurashga juda qiziqar, u qurdirgan kurash maydonida uchta supa bo‘lib, birinchi supa o‘z vazni bilan teng polvonga, ikkinchi supa o‘z vaznidan og‘ir

bo‘lganlar bilan kurashadiganlarga, uchinchi supa barcha vazndagilar bilan kurashadiganlarga mo‘ljallangan ekan. Pahlavon Mahmud uchinchi supaga kelib o‘tiribdi. Bu qanaqa supa ekanligini bilasanmi? - deb so‘rabdi Eron shohi. Ustasiga farqi yo‘q, - javob beribdi Pahlavon Mahmud. – Men xohlagan polvoningiz bilan kurashga tushaveraman. Musobaqa davomida sakkizta nomdor polvonning yelkasini yerga tekkizibdi. Shundan so‘ng Eron shohi ming oltin tangaga sotib olgan qora tanli polvonini maydonga chiqarib: agar xorazmlik pahlavonni yengsang, ming tanga oltin, yana ozodlik beraman! - deb e’lon qilibdi. Buni eshitgan Pahlavon Mahmud nomiga kurash tushgan bo‘lib, atay yiqilib beribdi. Eron shohi nihoyatda xursand bo‘lib, polvonini ozod qilibdi va ming oltin tanga ham in’om qilibdi. Pahlavon Mahmudning tantilik qilganini bilgan qora tanli polvon oltin tangalarni uning oldiga keltirib qo‘yibdi. Pahlavon Mahmud esa ularni olmabdi: sen qul eding, endi ozod bo‘lding. Bu pullarni olda, yurtingga ketgin, - debdi.

Hikoyada ilgari surilgan g‘oyani o‘quvchilar bilan “Tanqidiy fikr” stoli atrofida tahlil va mulohaza qilish maqsadga muvofiqdir. Bunda rivoyatni o‘quvchilarga **“**Keys”lar shaklidan taqdim qilish ularni “muammo, yechim, maqsad” tarzida aniq fiklashga va xulosa qilishlariga imkon beradi. Shuningdek, rivoyatning asl mazmuni “insonning aqliy kuchi hamisha jismoniy kuchidan ustun turishi lozimligi va insoniylik ulug‘ qadriyat” ekanligini o‘quvchilar analiz va sintez qilishlari nazarda tutiladi.

O‘zbek xalqining milliy qahramonlaridan biri bo‘lgan Pahlavon Mahmud faoliyati, bajargan ishlari, ilgari surgan g‘oyalari bugungi kun ta’lim va tarbiya jarayoni uchun ham katta ahamityaga ega bo‘lib, o‘quvchi-yoshlarni insoniylik, mardlik, jasurlik, hallollik, Vatanparvarlikka, ilm olishga intilishlarini kuchaytirishda, sog‘lom e’tiqod va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik manba sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farobiy A.N. “Fozil odamlar shahri”.

2. G‘iyosuddin M. G‘iyos ul-lug‘ot. Iborat az 3 jild. J ildi 1. - Dushanbe: “Adib”, 1987. 164-bet

3. Maxmudov J. Paxlavon Maxmud xayoti va adabiy merosining matniy tadkiki. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferata. – T., 2006. 20-bet

4. Ochilov E. Pahlavon Mahmud. – T.: O‘zbekiston, 2013. – 144 b.

5. Jalolov T. Mardlik va odamiylik taronalari. Pahlavon Mahmud.

Ruboiylar. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 26 b.

Muhammad TAYLAKOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINI INNOVATSION BOSHQARISH MANBALARI

Annotatsiya

Maqolada ta'limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarini innovatsion boshqarish manbalari, shuningdek, ta'limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishda innovatsion g'oyalarni shakllantirish, ijobiy ta'limiy o'zgarishlarni aniqlash hamda ularning imkoniyatlari tahlili haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Modernizatsiya, maktab, innovatsiya, innovatsion g'oya, axborot ta'minoti, boshqarish madaniyati, takomillashtirish, innovatsion boshqarish.

В статье рассматриваются источники инновационного управления общеобразовательными школами в условиях модернизации образования, а также формирование инновационных идей, выявление позитивных образовательных изменений и анализ их возможностей в совершенствовании процесса управления общеобразовательными школами в условиях модернизации образования.

Ключевые слова. Модернизация, школа, инновации, инновационная идея, информационное обеспечение, культура управления, совершенствование, управление инновациями

The article examines the sources of innovative management of secondary schools in the context of modernization of education, as well as the formation of innovative ideas, identification of positive educational changes and analysis of their capabilities in improving the management process of secondary schools in the context of modernization of education.

Key words. Modernization, school, innovation, innovative idea, information provision, management culture, improvement, innovation management.

Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishning metodologik asoslari bilan tanishishda innovatsiyalarning yangi ta'limiy qadriyatlar ekanligi ayon bo'ladi. Shu bois ta'limni- modernizatsiyalash sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishda innovatsion g'oyalarni shakllantirish, ijobiy ta'limiy o'zgarishlarni aniqlash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv manbalarning mohiyati to'g'risida to'xtalib o'tiladi.

Jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y bergan va berayotgan o'zgarishlar obyektiv manbalarda alohida o'rin tutadi. Umumiy ta'lim maktablari – bu ijtimoiy institut bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan ko'plab metodlar jamiyatda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlarga muvofiq ravishda takomillashtirilib borilishi lozim. Albatta, turli ijtimoiy tuzumlarning pedagogik fikrlar rivoji va ta'lim muassasalari taraqqiyotininh tarixidagi o'rni va roli doimo bir xil bo'lgan emas.

Ta'lim muassasasiga bo'layotgan ijtimoiy ta'sir gohida ijobiy, gohida salbiy xusu-

siyat kasb etgan, gohida ijtimoiy ta'sirlar kuchi ko'p yoki yetarli darajada bo'lmagan. Ijtimoiy ta'sirlar darajasi ta'lim muassasasining ba'zan mustaqillik faoliyat yuritishini cheklagan yoki aksincha, rag'batlantirgan.

Jamiyat tomonidan ta'lim muassasasiga ko'rsatilayotgan ta'sirni bartaraf qilib bo'lmaydi. Aksincha, bu ta'sirning mavjudligini qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarining ijtimoiy tashkilotlar bilan mustahkam aloqasini yo'lga qo'yish, ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu yo'lda eng muhim vazifa – ijtimoiy o'zgarishlar bilan ta'lim muassasasi rivojini o'zaro muvofiqlashtirishga erishish, ular o'rtasidagi nomutanosiblik va nomuvofiqlikni tezkor bartaraf etish sanaladi.

Nomuvofiqlik mavjud bo'lgan yoki mavjudligi nazarda tutilgan narsa va obyektlar, reallik va tasavvurlar o'rtasidagi tafovut bo'lishi bilan birga, innovatsion faoliyat uchun asos bo'luvchi omil ham sanaladi. Zero nomuvofiqlik yangi innovatsion g'oyalarning asoslanishiga turtki beradi.

Tadqiqot olib borish jarayonida ijtimoiy o'zgarishlar va ta'lim muassasalari, shu jumladan, umumiy ta'lim maktablari rivoji o'rtasida yuzaga keluvchi nomuvofiqliklarni quyidagicha guruhlash mumkin, degan fikrga kelindi:

1. Iqtisodiy voqeliklar o'rtasidagi nomuvofiqlik (byudjetni shakllantirish, uni moliyalashtirish tartibi hamda byujdetdan foydalanishda davlat kafolatlarining ustivorligi bilan moliyaviy sarf-xarajatlar ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishda qo'llanilayotgan yoki tavsiya etilayotgan optimal metodlarning mavjud emasligi o'rtasidagi nomuvofiqlik kabilar bilan tavsiflanadi. Umumiy ta'lim maktablari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishi va bu yo'lda moliyaviy mablag'lar manbalarni izlashdagi mavjud qiyinchiliklar yuqoridagi kabi nomuvofiqliklarning oqibati, deb hisoblash mumkin).

2. Umumiy ta'lim maktablaridagi mavjud haqiqiy holat va pedagogik faoliyatda qo'llanilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy metodlar o'rtasidagi nomuvofiqlik (masalan, o'quvchilarning fanlar bo'yicha bilimlari darajasi ta'lim muassasasida muayyan mezonlar bilan baholanib, ma'lum shartli belgilar – raqamlardan iborat ball yoki baholarda ifodalanadi. Biroq, baholash tizimi qisqacha yozma tahlil bilan to'ldirilsa, sinf rahbari va ota-onalar o'quvchilar (farzandlari)ning aqliy va ma'naviy-axloqiy kamoloti darajasini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lardilar. O'quvchilar esa shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini mustaqil baholay olardilar. Bu esa ularda o'ziga nisbatan talabchanlikni oshirishga yordam berardi.

Bizning fikrlarimizcha, "O'quvchining individual rivojlanish daftari" sinf rahbari hamda fan o'qituvchilari tomonidan kelgusi vazifalarning belgilanishiga, o'quvchi shaxsini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Tarmoq tizimida sodir bo'lgan va bo'layotgan o'zgarishlar sirasida yangi tip va turdagi ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi, davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi, umumiy ta'lim maktablari bilan o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro birlik va uzviylikning qaror toptirilishi, ixtisoslashgan sinflar tashkil qilinishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini yakuniy attestatsiyani tashkil etish asosida baholanishi, oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli qabulning joriy etilganligi, ta'lim tizimida psixologik xizmatning joriy etilganligi, o'quvchilarni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga qabul qilishning psixologik-pedagogik tashxis asosida amalga oshirilishi va boshqa holatlarni alohida qayd etish lozim.

Tarmoq tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar ham muassasa innovatsion faoliyatini samarali tashkil etishda muhim manba sanaladi. Binobarin, ta'lim sohada ro'y bera-

yotgan o‘zgarishlar muassasaning yangi ish shakllari va metodlarini izlashga, mavjud shakl va metodlarni takomillashtirishga majbur qiladi.

Hududiy ta’lim tizimlarining yaratilganligi, respublika miqyosida umumiy o‘rta ta’lim ma’lumotiga ega bo‘lishga nisbatan yagona talablarning qo‘yilganligi, barcha umumiy ta’lim maktablari faoliyatini boshqarishga nisbatan yagona yondashuvning qaror toptirilganligi, ta’lim tizimi boshqaruv organlari faoliyatining isloh qilinganligi, mutaxassislar malakaviy yetukligini belgilovchi tasniflarning ishlab chiqilganligi, qo‘shimcha ta’lim tizimining mustahkamlanganligi, psixologik va ijtimoiy-pedagogik xizmatlarning yo‘lga qo‘yilishi kabi holatlar ham tarmoqda sodir bo‘lgan ijtimoiy-ta’limiy o‘zgarishlardan sanaladi.

Ijtimoiy-ta’limiy o‘zgarishlarni anglab olish va ta’lim muassasasi faoliyatini tashkil etishda ularni inobatga olish rahbarlarning boshqarish madaniyati yuksak bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

M. Mirqosimov “boshqarish madaniyati” tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: boshqarish madaniyati ilmiy asoslangan, aniq maqsadni ko‘zda tutgan reja asosida boshqarish ishini tashkil qilish, bunda so‘z birligi bilan amaliy ish birligini ta’minlash, maktab jamoasining, o‘quvchilar va ota-onalarning ehtiyoj va talablariga diqqat-e’tibor hamda manfaatdorlik bilan munosabatda bo‘lish, ularning izzat-nafsoniyatiga tegmaslik, ko‘zbo‘yamachilik bilan shug‘ullanmaslik, ishga nisbatan yuqori darajadagi intizomni joriy etish, boshqarish jarayonida yuqori darajadagi pedagogik madaniyatni saqlash, rahbarning shaxsan o‘ziga va qo‘l ostidagilarga talabchan bo‘lish, o‘zining shaxsiy manfaatini davlat va umumjamoa manfaatidan ustun qo‘ymasligi va shu kabilardan iboratdir.

Umumiy ta’lim maktablarining innovatsion faoliyatini tashkil etishda to‘g‘ri rahbarlik qilish muhim ahamiyatga ega. Zero, to‘g‘ri rahbarlik qilish uchun oldindan ko‘ra bilish, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarish va qiyinchiliklarni oldindan payqay bilish va nazarga ola bilish zarur.

3. Yuqori boshqaruv organlari tomonidan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishi ham ta’lim muassasasi innovatsion faoliyatini boshqarishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tizimida o‘zgarishlar respublika, mintaqa, mahalliy ta’limni boshqarish organlari tomonidan Qonunlari, qonun osti aktlari yoki me’yoriy hujjatlarning taqdim etilishi negizida ham sodir bo‘ladi. Shunga umumiy ta’lim maktablarining huquqiy va me’yoriy-metodik ta’minoti innovatsion faoliyatni tashkil etish va uni samarali boshqarishning manbalaridan biri hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari ularning huquqlarini himoya qilish va zimmalaridagi majburiyatlarning bajarilishini tartibga solish orqali ta’lim muassasasini boshqarish jarayonida faol ishtirok etadi. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari Nizom va dastur asosida faoliyat ko‘rsatadi.

4. Demografik o‘zgarishlar sifatida aholining soni, tarkibi, bandligi, ma’lumoti va ijtimoiy hayot tarzi tushuniladi. Ushbu o‘zgarishlarning muhimligi hamma vaqt tan olingan bo‘lsa-da, lekin kundalik hayotda mazkur masalaga kam e’tibor qaratiladi. Mavjud sharoitda ta’limni boshqarish organlarining mutaxassislari hamda ta’lim muassasalarining rahbarlari uchun demografik o‘zgarishlari u qadar ahamiyatli xususiyat kasb etmayapti va hech qanday amaliy ahamiyatga ega emas. Ko‘pchilik demografik o‘rganishlar tarix, iqtisodiy geografiya va statistika sohalari uchun ahamiyatli deb hisoblashadi.

Zamonaviy sharoitda demografik ko‘rsatkichlar barqaror emas va aholi tavsifi juda tez hamda kutilmagan vaziyatda o‘zgaradi. Shu sababli demografik o‘zgarishlarni doi-

miy ravishda kuzatib, tahlil qilib boris hta'lim muassasasi faoliyatini boshqarishda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, aholi tug'ilish sonining pasayishi maktab ta'limida 5-6 yildan keyingi ehtiyojni kamaytiradi.

Yoshga ko'ra taqsimlash dinamikasida demografik og'irlik markazining muayyan yoshlilar kogortasidan ikkinchi toifa yoshlilar kogortasiga o'tishi jamiyatda ustuvor bo'lgan ehtiyoj hamda qadriyatlarning kutilmaganda o'zgarishiga olib keladi.

5. Yangi ilmiy bilimlarning yaratilishi ham ta'lim muassasasi innovatsion faoliyatini yo'lga qo'yish va uni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, neyrofiziologiya, ekologiya, iqtisodiyot, tibbiyot va boshqa fanlar yo'nalishlarida erishilgan yutuqlar innovatsion g'oyalarning tug'ilishi, loyihalarning ishlab chiqilishi hamda amaliyotga faol tadbiq etilishi uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Yangi ilmiy bilimlardan xabardor bo'lish va ularni ta'lim amaliyotiga tadbiq etish uchun maktab rahbarlari oliy ta'lim hamda ilmiy tadqiqot muassasalari va ularning xodimlari bilan aloqalar o'rnatishlari, ular bilan hamkorlikda ma'lum muammolarning yechimlarini ta'lim va tarbiya amaliyotiga tadbiq etish yo'llarini izlashlari maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim muassasasida turli ilm-fan sohalarida yaratilgan kashfiyotlar, ilmiy yangiliklar va tadqiqotlarning muhim natijalarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida axborotlar yoki g'oyalar bankini yaratish taqozo etiladi. Yig'ilgan materiallar axborotlar yoki g'oyalar bankida yagona pedagogik jarayonning muhim tarkibiy yo'nalishlari bo'yicha, ya'ni "ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari", "O'qitish metodikasi samaradorligini oshirishning shakl va metodlari", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga texnologik yondashuv" va h.k. tarzda guruhlanadi.

6. Ishlab chiqarish yoki kasbiy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan yangicha qarashlarning shakllanishi ham ta'lim muassasasi innovatsion faoliyatini boshqarishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim mazmunining insonparvarlashtirilishi va demokratik g'oyalar bilan boyitilishi, tabaqalashtirilgan ta'limning joriy etilishi, o'quvchi shaxsi imkoniyatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi, ya'ni iqtidorli yoshlarni izlab topish va ularni qo'llab-quvvatlash (masalan, "Umid", "Ulug'bek", "Iste'dod" jamg'armalari hamda "Nihol" va "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofotlarining ta'sis etilishi") yangicha ta'limiy qarashlarning yorqin misoli bo'la oladi.

7. Ilg'or pedagogik texnologiyalar, masofaviy ta'limning o'qitish amaliyotiga keng tadbiq etilayotganligi texnologiyalar sohasidagi alohida e'tiborga loyiq o'zgarishlardan biri sanaladi. Ularning asosiy tamoyili individuallik, mustaqillik va ta'limiy faollik sanalib, ta'lim jarayonida kam jismoniy kuch sarflagan holda yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, ta'limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishda innovatsion g'oyalarni shakllantirish, ijobiy ta'limiy o'zgarishlarni aniqlash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Maktab hayotida ro'y berayotgan obyektiv va subyektiv o'zgarishlarga muvofiq ravishda umumiy ta'lim maktablarini samarali innovatsion boshqarish manbalarini obyektiv va subyektiv tarzda ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мескон М.М., Алберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. – М.: Дело, 1992. – С. 699

2. Begimqulov U. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 1605.

Gulnoza IBRAGIMOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINI BOSHQARUV JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqarishdagi eng asosiy vazifalar, qo‘llanilgan amaliy tajribalar, ta’lim sifatini yanada rivojlantirish hamda ta’limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishda boshqaruv vazifalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Modernizatsiya, innovatsiya, tarbiya texnologiyasi, jamoatchilik, marketing, bozor iqtisodiyoti, tashxis, professional daraja, boshqaruv tizimi, o‘quv-tarbiya jarayoni.

В данной статье рассматриваются основные задачи управления общеобразовательными школами, применяемый практический опыт, задачи управления в дальнейшем развитии качества образования и совершенствовании процесса управления общеобразовательными школами в условиях модернизации образования.

Ключевые слова. Модернизация, инновации, технологии воспитания,общественность, маркетинг, рыночная экономика, диагностика, профессиональный уровень, система управления, учебно-воспитательный процесс.

This article discusses the main tasks of managing general education schools, applied practical experience, management tasks in the further development of the quality of education and improvement of the process of managing general education schools in the context of modernization of education.

Key words. Modernization,innovation, education technology, community, marketing, market economy, diagnosis, professional degree, management system, educational process.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tashqi tarkibi esa ijtimoiy muhit obyekt va subyektlari – hudud aholisi, savdo shahobchalari, madaniy-ma’rifiy va sport inshootlari, muassasalar, ijtimoiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, ota-onalar bilan aloqa, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-g‘oyaviy rivojlanish darajasi kabilardan iborat.

Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqaruv jarayonini takomillashtirishda boshqaruv vazifalari quyidagi to‘rt darajada aks etadi:

1. Umumiy ta’lim maktablari rahbari tomonidan hal qilinuvchi vazifalar – boshqarishning individul hamda jamoaviy shakllarda, ya’ni ta’sischilar kengashi, pedagogik kengash, pedagogik jamoa va jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikda hal etilishini ifodalaydi.

2. Umumiy ta’lim maktablari rahbarining o‘rinbosarlari tomonidan hal qilinuvchi vazifalar – bunda ham individual va jamoaviy shakllarda (pedagogik konsilium, uslubiy kengash va boshqalar bilan hamkorlikda) o‘z yechimini topadi.

3. Fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, ota-onalar qo‘mitasi va boshqalarning o‘zaro hamkorligi asosida hal etiluvchi vazifalar.

4. O‘quvchilar tomonidan hal etiluvchi vazifalar ularning o‘z-o‘zini boshqarish organlari, klublar faoliyatini tashkil etish orqali bajariladi.

Marketing g’oyalariga asoslanish tamoyili umumiy ta’lim maktablarining innovatsion

faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, marketing yangiliklar va innovatsiyalarni shakllantirish, umumiy ta'lim maktablarining raqobatga bardoshligini ta'minlashga yordam beruvchi zahiralarni saqlash va majmuaviy rivojlantirish uchun imkoniyat yaratuvchi faoliyat majmuasi hisoblanadi. Mazkur tamoyil mohiyatiga ko'ra umumiy ta'lim maktablarining faoliyati o'quvchilar va ota-onalarning ehtiyojlari hamda qiziqishlari asosida tashkil etilishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida marketing umumiy ta'lim maktablarini rivojlantirish dasturining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Umumiy ta'lim maktablarining innovatsion faoliyatini boshqarishga nisbatan marketing yondashuvi quyidagi tamoyillar mohiyatida to'la aks etadi:

– qaror qabul qilish jarayonida ustuvor bo'lgan ehtiyoj;

– vaziyat hamda talab dinamikasining puxta hisobi;

– vaqtinchalik foyda nuqtayi nazaridan emas, balki uzoq muddatli istiqbolni ko'zlash asosida talab va ehtiyojlarni o'rganish uchun shart-sharoit yaratish;

– ta'lim xizmatlari iste'molchilariga reklama texnologiyalari orqali ta'sir etish;

– doimiy ravishda marketing tadqiqotlarini olib borish.

Ta'limiy vazifalarni me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq bajarilishi tamoyili negizida, asosan, umumiy ta'lim maktablari rahbarining vazifalari belgilanadi. Marketing, tashxis va rejalashtirish jarayonlarini tashkil qilish, natijalarni hisobga olish va tahlil qilish, nazoratni tashkil etish, pedagogik xodimlar hamda o'quvchilarni rag'batlantirish, muassasaning umumiy faoliyatini tartibga solish kabilar rahbar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy vazifalar sanaladi. Quyida mazkur vazifalarning ayrimlari xususida so'z yuritiladi.

Masalan, rejalashtirishda vaziyatlar va tashqi muhit omillarining tahlili, maqsadni amalga oshirishning muqobil variantlarini baholash, innovatsion faoliyatni rejalashtirish xususiyatlari, rejali vaziyatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish, mazkur jarayondagi ishtirokchilar soni, pedagogik xodimlarning kasbiy malakalari, kasbiy faoliyat hajmi va boshqa holatlar inobatga olinadi.

Umumiy ta'lim maktablarining innovatsion faoliyatini rejalashtirishning o'zi ham bir qator tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Jumladan:

1) strategik (yuqori maqsad) va taktik (bir yillik joriy maqsadlar, oylik vazifalar) rejalarning ustivorligi va ustunligi;

2) strategik va taktik rejalarning ijtimoiy yo'naltirilganligi;

3) rejalashtirish obyektlari va ularning zahiralarini oqilona taqsimlash maqsadida ularning muhimligi bo'yicha ajratish;

4) rejalarning mavjud moddiy shart-sharoitlarga mosligi;

5) muayyan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi muqobil rejalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etishda kam xarajatlikka erishish;

6) rejaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;

7) rejalashtirish tizimining teskari aloqasini ta'minlash;

8) rejani amalga oshirishning eng qulay shaklini tanlash;

9) faoliyat davrini tartibga solish va uning izchilligi, ustivorligini ta'minlash;

10) tadbirlarning puxtaligini tahlil qilishga imkon beruvchi faoliyat va grafikli (yozuvli) reja tahlilini amalga oshirish.

Pedagogik faoliyat jarayonini tashkillashtirishda ishlab chiqilgan rejalarni amalga oshirish, qatnashchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, ularning huquqlari va majburiyatlarini aniqlashdan iborat o'zaro bog'liq harakat mexanizmlarini belgilash maqsadga

muvofiqdir. Shuningdek, ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun sarflangan vaqt va sarflarni qayd qilish, zahiralarni sarflash puxta hisob-kitob olib borilishini talab qiladi.

Rejaning muntazam, to‘liq, sifatli va samarali bajarilishini qayd qilinishi boshqaruvda samaradorlikka erishishning asosiy shart-sharoitlardan biri hisoblanadi.

Nazariy tahlil asosida ta’lim rejalarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga tadbiq etish va natijalarni qayd qilishda quyidagi talablar inobatga olinishi lozim:

– ko‘rsatkichlarning o‘sishi;

– tizimlilik, ya’ni tizimning tashqi va ichki tartibi ko‘rsatkichlarining hisobi;

– ustivorlik;

– natijaviylik, ya’ni faoliyat sifatini oshirishda ko‘rsatkichlardan foydalanish.

Nazorat boshqaruv qarorlarini amalga oshiruvchi dastur, reja, topshiriqlar hamda me’yoriy hujjatlarning talablariga muvofiq ish ko‘rilishi bilan bog‘liq. Nazoratni tashkil etish rejalarning bajarilishini tekshirishga yo‘naltirilgan doimiy va tartibli jarayon sifatida e’tirof etish mumkin.

Nazorat quyidagi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

1) ta’lim rejalarini amaliyotga tadbiq etish yuzasidan monitoringni tashkil etish va natijalarning tahlili;

2) qo‘lga kiritilgan hamda rejalashtirilgan natijalarni o‘zaro taqqoslash va ular o‘rtasidagi farqlarni aniqlash;

3) vujudga kelgan vaziyatlar oqibatlarini oldindan aytib berish;

4) jarayonga muayyan tuzatishlarni kiritishga qaratilgan harakatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbanov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. – T. “Turon-Iqbol”, 2006. – 590 b.

2. Григораш О.В. Организация и оценка качества учебного процесса по агроинженерным специальностям: Учебное методическая пособие. Краснодар: КубГАУ, 2009. – . 395.

3. Калней В.А., СҲишов С.Э. Мониторинг качества образования. – М.-Вологда: ИП-КиППК, 1998. – .189.

4. Ковалева Г.С. Международный опыт оценки качества образования // Материалы коллегии по еГЕ /ТСентр оценки качества образования ИОСО РАО. – М., 2001. – . 375.

5.“Образ Японии”. Урбан Конекшн Инкорп, Токио. Изданий ИИ, март 2000, – С.13-16.

Ma’mura XUSHNAZAROVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dosent

MAKTABGACHA TA’LIMNI MODERNIZASIYALASH JARAYONIDA BOSHQARUV KADRLARI VA PEDAGOG-TARBIYACHILARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’limni modernizasiyalash jarayonida boshqaruv kadrlari va pedagog-tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi boshqaruv samaradorligini oshirish, zamonaviy kompetensiyalarga ega menejer-mutaxassislarni tayyorlashning dolzarb muammolari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Modernizasiyalash jarayoni, boshqaruv kadrlari, kasbiy faoliyat, boshqaruv samaradorligi, zamonaviy kompetensiya, menejer-mutaxassis, kasbiy rivojlanish, pedagogik jarayon.

В процессе модернизации дошкольного образования в статье раскрываются актуальные проблемы развития профессиональной деятельности управленческих кадров и педагогов-воспитателей, повышения эффективности управления в организациях дошкольного образования, подготовки руководителей-специалистов, обладающих современными компетенциями.

Ключевые слова. Процесс модернизации, управленческий персонал, профессиональная деятельность, эффективность управления, современная компетенция, менеджер-специалист, профессиональное развитие, педагогический процесс.

In the process of modernizing preschool education, the article reveals the actual problems of developing the professional activities of managerial personnel and educators, improving management efficiency in preschool education organizations, and training specialist leaders with modern competencies.

Key words. Modernization process, management personnel, professional activity, management efficiency, modern competence, specialist manager, professional development, pedagogical process.

Xalqaro miqyosda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida shaxsga yo‘naltirilgan erkin-ijodiy muhitni yaratish, ota-onalar va jamoatchilik nazorati asosidagi ta’lim sifati menejmentini yo‘lga qo‘yish, maktabgacha ta’lim menejmentini rivojlantirish va bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish borasida tizimli tadqiqiotlar, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy-izlanishlar natijalari asosida, maktabgacha ta’limning xalqaro talablarga javob beradigan yagona tizimini yaratish, ta’lim va amaliyotni integratsiyalashtirgan holda xalqaro ta’lim standartlari, o‘quv-metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoli-vaziyatli o‘qitish usullari va treninglari, ilg‘or axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’limni modernizasiyalash jarayonida boshqaruv kadrlari va pedagog-tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi boshqaruv samaradorligini os-

hirish, zamonaviy kompetensiyalarga ega menejer-mutaxassislarni tayyorlash dolzarb yo‘nalishlardan sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish dolzarb masaladir.

Respublikamizda maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tizimiga maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazmunida ham boshqaruv va pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi va ularning professionalizmini rivojlantirish, strategik boshqaruv, moliyaviy va NR-menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Maktabgacha ta’limning yangi sifatini nafaqat uning mazmuni ta’minlaydi, balki ta’lim tashkiloti faoliyatini boshqaradigan pedagogning shaxsiyati, kasbiy kompetentligi va menejerlik ko‘nikmalari alohida o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta’lim tashkilotlari boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, mazkur jarayonning tanqidiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan metodikalarni joriy etishni taqozo etadi.

Ta’lim menejmenti, uzluksiz ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, boshqaruv kadrlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar respublikamiz olimlaridan U. Inoyatov, Sh. Qurbonov, U. Begimqulov, M. Yuldashev, S. Turg‘unov, Z. Karabayeva, Ya. Ismadiyarov, M. Mirsoliyeva, N. Djamilovalarning ilmiy izlanishlarida keng yoritib o‘tilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish masalalari P. Yusupova, F.R. Qodirova, Sh. Shodmonova, Sh. Sodiqova, D. Babeva, G.E. Djanpeisova, N. Abdullayeva, M. Berdiyeva, N. Rejametova kabi pedagog, psixolog va faylasuflar tomonidan tadqiq qilingan.

Maktabgacha ta’limni modernizasiyalash jarayonida boshqaruv kadrlari va pedagog-tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish talab qilinadi. Buning uchun maktabgacha ta’lim dasturlarining tarkibiy tuzilishini davlatning ta’limni mazkur bo‘g‘ini oldiga qo‘ygan talablari asosida takomillashtirish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sifatli ta’lim bilan ta’minlash uchun ta’lim jarayonini modernizasiyalash nihoyatda zarur hisoblanadi. Buning uchun bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashga xizmat qiladigan barcha pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish va o‘zaro mujassamlashtirish talab etiladi.

Maktabgacha ta’limning sifati ta’limning keyingi bosqichlarida bolalarning bilimlar-

ni sifatli o‘zlashtirishlarini kafolatlaydi. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarini modernizasiyalashga oid yagona talablarni ishlab chiqish, ushbu talablar sifatli ta’lim va tayanch ko‘nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Bu talablar asosida bolalarga ta’lim berish erta bolalik davridan boshlanadi va uzluksiz davom etadi.

Demokratiya va insonparvarlik prinsiplariga tayangan holda tashkil etiladigan maktabgacha ta’lim jarayoni nafaqat bolaning tashqi holati, balki uning ichki dunyosi, mayllari, intilishlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda muassasa rahbarlari va pedagog-tarbiyachilarning asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, intellektual taraqqiyotlarini ta’minlash vositalari, usullari, metodlari va yo‘llarini izlab topishdan iboratdir. Buning uchun esa ular, eng avvalo, bolalarning muammolarini tushunishlari, o‘zlari kiritgan qoidalarni bajarishga ularni majbur qilmasliklari lozim. Chunki o‘sib, rivojlanib kelayotgan insonni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash asosida rivojlantirish g‘oyasi ko‘pgina pedagoglar va psixologlar tomonidan ilgari surilgan. Jumladan, E.G‘oziyev A.Davletshin R.G.Safarova, I.P.Ivanov, Sh.A.Amonashvili, A.V.Mudrik va boshqalarning ishlari bunga misol bo‘la oladi. Ular o‘zlari ilgari surgan didaktik nazariyalarda bolalarning qiziqishlarini himoya qilish nuqtai nazariga tayanganlar.

Bugungi kunda O‘zbekiston jamiyatining eng dolzarb muammosi – intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirishdir. Buning uchun o‘quv-tarbiya jarayoni ta’lim oluvchilarning aynan o‘zlariga yo‘naltirilishi lozim.

Hozirgi o‘zgaruvchan sharoitda qanday qilib bolalarni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish mumkin? degan savolga nazariyotchilar va amaliyotchilar tomonidan birday javob izlanmoqda. Buning uchun eng dolzarb masala ta’lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirish, bu jarayonda ularga yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash vositalari va shakllarini izlab topishdan iboratdir. Bolalarning rivojlanishi uchun yordam ko‘rsatish va ularni pedagogik qo‘llab-quvvatlashni maktagacha ta’lim jarayonidan boshlab, uzluksiz davom ettirish lozim. Pedagoglar ta’lim oluvchilarning har bir holatini e’tibordan chetda qoldirmasliklari kerak. Ular yordamga muhtoj bolalarni izlashlari va aniqlay olishlari lozim. Pedagoglar ta’lim oluvchilarni kashf etishlari, ularning muammolari va layoqatlarini aniqlay olishlari talab etiladi. Bu sohada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagogik jamoalarini boshqarishning yangi mexanizmlarini izlab topish va amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Pedagoglarni, birinchi navbatda, bolalarning shaxsiy muammolarini yechish orqali ularni intellektual rivojlantirishga tayyorlash bugungi kunning eng dolzarb muammolari sirasiga kiradi. Bunday vazifa, dastavval, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida amalga oshirilishi kerak.

Ta’lim tashkiloti rahbarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi muayyan tarkibiy qismlarga ega bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va oliy pedagogik ta’lim jarayonida muntazam rivojlanadi. Bo‘lajak rahbarning oliy ta’lim tashkilotida egallagan bilim, ko‘nikma, malaka hamda kasbiy kompetensiyalari uning amaliy pedagogik faoliyatlarida takomillashadi. Shuning uchun ham bo‘lajak rahbarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini ta’minlash oliy ta’lim jarayonida alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ансофф И. Стратегическое управление. – М.: Экономика, 1989. – С. 221.

2. Ahmadxo‘jaev H. T., Mirdadaev K.M., Qozoqov O.S. Menejment va strategiyani boshqarish. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2004. – 36-39-b.

Shuxrat NAMAZOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti stajyor-tadqiqotchisi

O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, ularga huquq va erkinliklarini tushintirish, hayotda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarda o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishni va boshqalarning huquqini ham hurmat qilishni o'rgatish, shuningdek, yoshlardagi huquqiy immunitetni va huquqiy bilimlarni shakllantirish, qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqatni rivojlantirish borasida so'z borgan.

Kalit so'zi. Huquq, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy erkinlik, huquqiy immunitet, qonun, odob-axloq, milliy qadriyat.

В данной статье речь идет о развитии правовой культуры учащихся подросткового возраста, разъяснении им своих прав и свобод, учении защищать свои права и свободы возникающих в жизни общественных отношениях, также уважении к правам других, а также о формировании у молодежи правового иммунитета и правовых знаний, воспитании уважения к законам и этикету, приверженности национальным ценностям.

Ключевые слова. Право, правовая культура, правосознание, правовая свобода, правовой иммунитет, право, мораль, национальная ценность.

This article spoke about developing the legal culture of teenage readers, instilling in them their rights and freedoms, teaching them to protect their rights and freedoms in social relations that arise in life and respect for the rights of others, as well as the formation of legal immunity and legal knowledge in young people, respect for laws and etiquette, the development of loyalty.

Key words. Law, legal culture, legal consciousness, legal freedom, legal immunity, law, etiquette, national value.

Jahon hamjamiyati jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida insonparvar fuqarolik jamiyatini barpo etishda ko'plab mamlakatlar tomonidan ta'lim tizimi orqali fuqarolarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinishining asosiy maqsadlaridan biri ham aynan "insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish" dir. Ta'lim tizimi eng rivojlangan ko'plab mamlakatlarda ushbu maqsadni amalga oshirish uchun siyosiy elita tomonidan aniq maqsadli strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Xususan, Finlandiyaning "100 ta ijtimoiy innovatsiya" dasturida ham ta'lim tizimi orqali chinakam vatanparvar fuqaroni tarbiyalashga e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 09.01.2019-yildagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmonida ham huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilishi lozimligi, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashish zarurat[1] ekanligi ta'kidlanib, bunda ta'lim

[1] O'zbekiston Respublikasinining Konstitutsiyasi Muqaddimasi

muassasalari, xususan, maktab ta’limida ham huquqiy savodxonlikni oshirish masalasi uchun alohida bob ajratilgan. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizda huquqiy fanlarni o‘qitish tizimi orqali aholining huquqiy madaniyatini rivojlantirishda, hozirgi kunning eng dolzarb masalasi - inson qadrini ulug‘lashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu maqsadlarni amalga oshirishda, tabiiyki, voyaga yetmagan shaxslarning, xususan, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Chunki kelajakda chinakam huquqiy-demokratik davlat qurish uchun hozirdan bu masalaga alohida e’tibor qaratish, ularning huquq va erkinliklarini tushintirish, hayotda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarda o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilishni va o‘z navbatida boshqalarning huquqini hurmat qilishni o‘rgatish yangi va chuqurlashtirilgan huquqiy madaniyatni rivojlantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tan olish kerakki, qariyb 30 yil davomida ta’lim tizimida huquqiy fanlarning samaradorligiga juda kam e’tibor qaratildi. Faqat 2019-yilga kelibgina mamlakatimizda yagona bo‘lgan mutaxasisligi huquqiy fanlar o‘qitiladigan Toshkent davlat yuridik universiteti “monopoliyasi”ga barham berilib, joylarda huquqiy fanlarni chuqurlashtirib o‘qitilishiga ruxsat berildi. Bu esa tez orada o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsata boshladi. Aholining huquqiy madaniyati oldingiga nisbatan asta-sekin ko‘tarilib bordi, huquqiy fanlarga nisbatan qiziqish yanada ortdi, o‘zgalarning huquqini hurmat qilish jamiyatda sezilarli darajada namonyon bo‘la boshladi.

Asosiy maqsadi demokratik davlat barpo etish hisoblangan har qanday mamlakatning huquqiy madaniyatini rivojlantirilishi yuqori sifatli ta’limga asoslanadi. Bu yo‘lda davlat organlari, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ta’lim muassasalari bilan hamkorlik o‘rnatishini talab qiladi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarning kichik (maishiy) va katta (siyosiy) huquqlarini vitagen yondashuv – hayotiy tajribalar asosida o‘rgatish, o‘zlarini shaxsiy ravishda rivojlantirishlari va ijtimoiy hayotga faol qatnashishlarini rag‘batlantirish hozirgi kundagi dolzarb masala hisoblanadi. Bu mavzu o‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun ularning jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy sohalarda qanday huquqlari mavjudligini bilishlari hamda huquqlari buzilgan taqdirda o‘z-o‘zini himoya qila olish ko‘nikmasining shakllanishi bilan juda muhimdir. Huquqlari bilan tanishgan o‘smir yoshdagi o‘quvchilar sodiq va samarali fuqarolar sifatida to‘g‘ri yo‘nalishni tanlaydilar, o‘zgalarning huquqlarini hurmat qiladilar. Bu esa jamiyatning umumiy sifatini yaxshilashga yordam beradi.

O‘quvchilar huquqlariga e’tiborni yo‘naltirib, ularni rivojlantirishi uchun maktab, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar zamonaviy texnologiyalarga ega bo‘lish lozim. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishda ta’lim muassasalarida huquqiy fanlarning mavjudligi, ularning amaliyotda qo‘llanishi, huquqiy madaniyatning rivojlanishida vitagen yonashuv asosida kazuslar yechimini o‘rgatish va huquqiy madaniyatni tashkil etishga ko‘maklashuvchi o‘quv-uslubiy texnologiyalarning zamonaviyligi muhim omil hisoblanadi.

Bu mavzu haqida ko‘p narsalarni o‘rganish, amaliyotda qo‘llash va huquqiy bilimlarni rivojlantirish ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarning olibgina qolmay, yosh o‘quvchilarning jamiyat taraqqiyotiga ko‘proq hissa qo‘shilishiga yordam beradi.

Rivojlangan davlatlarda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarida huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi

1. Huquqiy bilimlarni oshirish: o‘quvchilarga huquqiy tushunchalarini o‘rgatish va ijtimoiy masalalarda qo‘llashga qodir bo‘lishlari uchun huquqiy darslarga alohida e’ti-

bor qaratishadi.

2. Qonun ustuvorligini hurmat qilish: O‘quvchilar qonunga bo‘ysunish, og‘ir jazolardan qo‘rqishga emas, qonunlarga rioya qilishga, o‘zgalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilishga tayyorlanadi.

3. Huquqiy tadqiqotlar amalga oshirish: O‘quvchilar huquqiy tadqiqotlar amalga oshirib, ijtimoiy muammolarga yechim topish ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.

4. Huquqiy diskussiyalar tashkil qilish: O‘quvchilar huquqiy masalalar yuzasidan o‘zaro muloqotlar olib borish, muhokama va muzokara tashkil etishadi.

5. Amaliy mashqlar: Huquqiy tarbiya davomida amaliy mashqlar tashkil etilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tashriflar amalga oshiriladi, sudlarda ishtirok etishadi.

6. Huquqiy xizmatlar: Huquqiy madaniyatni rivojlantirishning bir qismi sifatida huquqiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarda jarayonlar bilan tanishishadi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda huquqiy madaniayatni rivojlantirish uchun bu usullar va boshqa ko‘nikmalar foydali hisoblanadi. Bu, ularni jamiyat a’zolari sifatida huquqlarini kafolatlashga va muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari jamiyatda turli sohalarda parallel ravishda rivojlantirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi: bir nechta mavzulari mavjud:

1. Ma’naviy-axloqiy soha: ta’lim muassasalaridan tashqari oilada, jamoat joylarida o‘quvchilarga o‘zining va boshqalarning huquqlariga hurmat ko‘rsatish, yaxshi axloq va madaniyatli turmush tarziga ega bo‘lish. Masalan, o‘zbek millatiga xos bir salbiy odat bor, oilada maishiy ishlarni ko‘proq kichik yoshlilarga, hattoki bolalarga bajartirishadi. Ayrim hollarda favqulotda tamaki yoki alkogol mahsulotlariga ehtiyoj sezilganda ham katta yoshlilar o‘rniga voyaga yetmaganlar do‘konga borishiga to‘g‘ri keladi. Sotuvchi esa, qonunchilikda mumkin bo‘lmasa-da o‘z manfaati yo‘lida ushbu tovarlarni hatto yosh bolalarga ham tutqazadi. Bu bolalar ruhiyatiga salbiy ta’sir etibgina qolmay, uning qiziqishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Bunga faqat ta’lim muassasasi, mahalla mas’ullarigina emas, balki jamiyatda hamma bir bo‘lib kurashishi lozim.

2. Ijtimoiy soha: Afsuski, ayrim hollarda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning sha’ni, qadr-qimmatiga, hattoki hayotiga bo‘lgan tajovuzlar ham uchrab turmoqda. O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi haqida OAV orqali aholi o‘rtasida targ‘ibotlarni kuchaytirish, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy roliklarni ko‘paytirish, buzilgan huquqlarni qayta tiklash va ushbu tajribalarni ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda amaliyotga tadbiq etish kerak.

3. Iqtisodiy soha: Mehnat faoliyatida bolalar mehnatidan to‘liq voz kechish. Yaqin yillarga qadar bolalar huquqi qo‘pol ravishda buzilib, paxta mavsumida majburiy mehnat orqali ularning mehnatidan foydalanildi. Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari ham buni ko‘rib ko‘rmaslikka majbur bo‘lishdi. Qo‘shtirnoq ichidagi “vatanparvarlik” hissini namoyon etish uchun ham ayrim xonadonlar oilaviy ushbu ishlarga o‘zini bag‘ishladi. Bu, aslida, bolalar huquqining qo‘pol ravishda buzilishi ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasinining Konstitutsiyasi Muqaddimasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 09.01.2019-yildagi PF-5618-sonli farmoni.

Nurmaxan ABDUKARIMOV,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Jismoniy madaniya" fakulteti dotsenti
Eldor XOJMATOV,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Jismoniy madaniyat" fakulteti magistranti

O'QUVCHILARNI JISMONIY SOG'LOM QILIB TARBIYALASHDA MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy harakatli o'yinlarning o'quvchilarni jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, milliy harakatli o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar. Milliy harakatli o'yinlar, sport, jismoniy tarbiya, o'quvchi, murabbiy, yosh avlod, jismoniy sog'lom, sog'lom avlod, kelajak, ma'naviy qadriyatlar.

В данной статье рассматривается роль и значение национальных подвижных игр в воспитании учащихся физически и психически здоровыми. Также освещены специфические черты национальных игр.

Ключевые слова. Национальные подвижные игры, спорт, физическое воспитание, студент, тренер, молодое поколение, физически здоровое, здоровое поколение, будущее, духовные ценности.

This article discusses the role and importance of national outdoor games in educating students physically and mentally healthy. The specific features of national games are also highlighted.

Key words. National outdoor games, sports, physical education, student, coach, younger generation, physically healthy, healthy generation, future, spiritual values.

Milliy harakatli o'yinlar xalq ma'naviy qadriyatlariga daxldor bo'lib, sog'lom avlodni tarbiyalash yo'lidagi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi pandemiya sharoitida o'quvchilarni jismoniy sog'lom, aqliy va ruhiy jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalash muhim masala sifatida yanada dolzarbligi bilan ahamiyatli bo'lib bormoqda. Chunki sog'lom avlod – sog'lom kelajak deganidir.

Milliy an'analar, urf-odatlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular negizida yoshlarni jasurlik, zukkolik, chaqqonlik, mehnatsevarlik o'zaro hurmat, mehr-muruvvat va boshqa xislatlar ruhida tarbiyalab, xalqimizning kuch-qudratini jahonga ko'rsatish va undan faxrlanish, tinchlik-barqarorlik, ona-Vatanga sadoqat, o'z kasbini e'zozlash kabi tuyg'ular bilan uyg'unlashib ketadi. Shuningdek, hozirgi davrda turli xil sport an'analari, milliy bayramlar, marosimlarimiz kirib kelmoqda va sog'lom avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda butun jahonni tahlikaga solgan karonavirus O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Aholimiz, jumladan, yoshlarni salomatligini asrab-avaylash eng dolzarb masalaga aylandi. Va bu borada bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda har bir fuqaroning salomatligini ta'minlashda ularning jismoniy tarbiya bilan

shug‘ullanishi talab etildi. Hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Oilada, mahallada, ishxonada sport bilan shug‘ullanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham “Sport-sog‘liq garovi” shiori ostida o‘qituvchi va o‘quvchilarni sportga keng jalb qilinmoqda. O‘quvchilarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ham sport turlaridan keng foydalanilmoqda. Shu o‘rinda milliy harakatli o‘yinlarning ham o‘ziga xos jihatlari mavjud. Ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan xalq o‘yinlarining o‘rni beqiyos. Bu o‘z navbatda bolalarda ham tarixiy an’analariga sodiqlikni va ularning jismoniy jihatdan barkamol bo‘lib etishishlarida muhimdir.

Bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan mutaxassis “Ma’naviy qadriyatlar va sog‘lom turmush madaniyati” nomli risolaning muallifi O. Jamoldinovaning o‘zbek xalq o‘yinlarining ahamiyati, vazifasi, hayotimizda tutgan o‘rni haqidagi so‘zlari bu boradagi fikrimizni aniq ifodalaydi: “Ming yillar davomida ajdodlarimizning jismoniy, ma’naviy, ruhiy va aqliy rivojanishi uchun vosita bo‘lib kelgan, madaniy merosimizning uzviy va ajralmas qismi bo‘lgan, avlod-ajdodlarimizga asrlar mobaynida ruh, jon xalq o‘yinlarini tiklash va ulardan samarali foydalanish milliy qiyofamiz, ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni yuksaltirish demakdir. Zero, xalq o‘yinlari o‘zining ommabopligi, tarbiyaviy ahamiyati, yoshlarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi hamda ma’naviy-ahloqiy tarbiyasiga ta’siri nuqtayi nazaridan bugungi kunda yangi texnologiyalar bilan boyib bormoqda”.

Milliy harakatli o‘yinlar pedagogik-psixologik va jismoniy jihatdan tarbiyaviy ahamiyati katta. Milliy xalq harakatli o‘yinlaridan “Quvlashmachoq” o‘yinini oladigan bo‘lsak, bu o‘yin bolalarda qat‘iyatlilik ko‘nikmalarini hosil qilish, sabr-chidamga o‘rgatish, topqirlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Chillak” o‘yini esa o‘tloq va sport maydonchasida o‘tkaziladi. Bu o‘yinni o‘ynashda bolalarning yosh xususiyatlariga e‘tibor berish lozim. “Ko‘z boylash” xalq harakatli o‘yinida bolalarning ko‘proq psixologik hissiyotlari yanada mustahkamlanadi. “Oq terakmi, ko‘k terak” milliy harakatli o‘yinida bolalar jamoa uchun harakat qilishi lozim. Bu o‘yinlarning barchasi tabiat qo‘ynida, toza havoda hamda qish faslida tashkil etiladi. Bu harakatli o‘yinlar bolalarning nafas olish sistemasining ish faoliyatini yaxshilaydi. Qon aylanish sistemasi mustahkamlanadi. Bolalarning harakat organlari yaxshi rivojlanadi, qaddi – qomati chiroyli bo‘lib o‘sadi. Bolalar uchun xonada yoki sayr qilish chog‘ida o‘tkaziladigan harakatli o‘yinlar va mashqlar ularning harakat faoliyatini oshiradi, o‘rganib o‘zlashtirganlarini mustahkamlashga zamin yaratadi va eng muhimi tarbiyalanuvchilar sog‘ligini yaxshilaydi. Milliy harakatli o‘yinlar bolalar xotirasi, fikrlash qobiliyatining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘yinda ro‘y bergan vaziyatga qarab darhol tegishli javob harakatini amalga oshirishi yutuq yoki mag‘lubiyatga olib keladi. Bu hayotda ziyraklik va tezkorlik bilan aniq javob tayyorlashga o‘rgatadi.

Milliy o‘yinlarning ko‘pchiligi bilan 3-4 yoshdan boshlab shug‘ullanish mumkinligi nazarda tutilsa, o‘yinlar orqali yoshlarni har tomonlama kamolotiga buning ta‘siri qanchalik erta boshlanishini tasavvur qilish mumkin. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari yoshlarning bo‘sh vaqtidan oqilona foydalanishni ta‘minlashi, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazilishi uchun muhimdir. Buning natijasida sog‘liq mustahkamlanadi va ish qobiliyati oshadi. Jismoniy tarbiya aqliy tarbiya bilan chambarchas bog‘langandir, chunki intellektual ravishda inson ma‘naviy kuchlarining qaror topishi, uning sog‘lig‘i, chidamli ekanligi, asab tizimining mustahkamligi bilan ham belgilanadi. Mahallalar, bolalar bog‘chalari, umumta‘lim maktablari va boshqa turdagi o‘quv yurtlarida milliy o‘yinlarni o‘rgatish jismoniy tarbiyani aholi orasida, eng avvalo mahalliy xalq orasida

ommalashuvga keng yo‘l ochadi. Milliy o‘yinlarning kelajakda yosh avlodni sog‘lom, barkamol qilib tarbiyalashdagi roli beqiyos. Milliy o‘yinlar hammabop, maxsus sport maydonlari va inshoatlarni talab etmaydi. O‘yin jihozlari oddiy, shug‘ullanuvchilar o‘zlari qiyinchiliksiz tayyorlab oladilar.

Milliy o‘yinlar bebaho qadriyatlarimizdir. Sportning milliy turlari va shaklarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish, ayniqsa, milliy sport o‘yinlari haqida ma‘lumotlar yig‘ish, ularni boyitish va shular asosida yoshlarimiz o‘rtasida keng targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish ham dolzarb masala hisoblanadi. Chunki milliy harakatli o‘yinlar ham xalq qadriyatlariga daxldor bo‘lib, ularni boyitish sog‘lom avlodni tarbiyalash yo‘lidagi muhim va zaruriy vazifalardan biridir. Sog‘lom naslni, jismonan baquvvat, shu bilan birga ruhi, fikri toza, iymon e‘tiqodi butun, bilimi, ma‘naviyati yuksak, mard va jasur, vatanpavar avlodni kamolga yetkazish ajdodlarimizdan bizga qolgan meros, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir.

Jismoniy madaniyat harakatining boshqa tarmoqlarida esa turli an’anaviy bayramlar, sport musobaqalari jarayonida u yoki bu shaklda harakatli o‘yinlardan foydalaniladi.

Milliy harakatli o‘yinlarning beqiyos ko‘pligi turli tarmoqlardagi ommaviy tadbirlarning mazmuniga qarab qo‘llanilishini ta’minlaydi. Masalan: qishloq sharoitida kurashlar, ot o‘yinlari, “chillik”, “oq suyak”, “cho‘pon”, “orqang kuydi”, “qirq tosh”, “quloq cho‘zma”, “xo‘rozlar jangi”, “piyoda ko‘pkari” “tortishmachoq” kabi harakatli o‘yinlarga alohida e’tibor beriladi.

Shaharlar sharoitida esa ko‘proq to‘pli o‘yinlar, estafetalarga qiziqish kuchli bo‘ladi.

Harakatli o‘yinlar sport mashg‘ulotlarida (trenirovka) ham maqsadli ravishda ko‘p qo‘llaniladi. Ya’ni sport turlariga qarab, jismoniy sifatlarni rivojlantirishda xizmat qiluvchi harakatli o‘yinlar tanlab olinadi. Masalan: og‘ir atletika, kurash va boks kabi sport turlarida kuch, tezlik, epchillikni ta’minlovchi harakatli o‘yinlar mos keladi. Masalan: “Arqon tortishish”, “Bilak kuchini sinash”, “Arqonda osilib chiqish”, “Xo‘rozlar jangi” va h.k.

Sport o‘yinlari turlari, yengil atletika, gimnastika, suvda suzish kabi sport turlari mashg‘ulotlarida tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik kabi jismoniy sifatlar asosiy mazmunlarni tashkil etadi. Shu sababdan bu sohalarda “kim chaqqon”, “to‘pni savatga tushir”, “qopqon”, “qarmoq”, “ovchilar va o‘rdaklar” kabi o‘yinlar va estafetali o‘yinlardan maqsadli foydalanadilar.

Xulosa qilib aytganda harakatli o‘yinlar mazmun va mazmunan ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida xalq ommasini jismoniy jihatdan rivojlantirishda xizmat qiluvchi e’tiborga molik bo‘lgan tarbiyaviy omillardan biridir. Shu sababdan jismoniy tarbiya va sport olamidagi mutaxassislar, jamoatchi faollar harakatli o‘yinlarni tashkil qilishda ijodiy yondoshishlariga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. – T.,19.05. 2020 y.

2. Sh.M. Mirziyoyev, Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovan bo‘ladi. – T.:“O‘zbekiston” - 2019 y.

3. Abdullayev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. darslik. – T.; 2013 yil

4. O.Q. Davulov., B.I. Xo‘janiyozov. Jismoniy madaniyat va sport. – T., 2020 y.

5. Axmedov F.Q Harakatli uyinlar, ularni tashkil kilish va o‘tkazish usullari. T. 2008 yuquv qo‘llanma – 186 b.

Gulnora KAXAROVA,
Namangan davlat universiteti
tayanch doktoranti

XALQ QO'SHIQLARI VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif boshlang'ich maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi o'quv jarayonining asosini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Xalq qo'shiqlari, intellektual salohiyatini rivojlanish, qobiliyat, iste'dod, rivojlantirish muammosi, xalq og'zaki ijodi.

В статье рассматривается роль врожденных способностей и одаренности младших школьников в развитии их интеллектуального потенциала. Также автор указал на то, что проблема развития творческих способностей младших школьников лежит в основе образовательного процесса.

Ключевые слова. Народные песни, проблема развития интеллектуального потенциала, способностей, одаренности, развития, устного народного творчества.

The article reflects on the role of their innate ability and talent in the development of the intellectual potential of Primary School students. The author also mentioned the basis of the educational process of the problem of developing the creative abilities of Primary School students.

Key words. Folk songs, development of intellectual potential, ability, talent, problem of development, folk oral creativity.

Yurtimizda qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar yangilanayotgan O'zbekiston qiyofasini jahondagi nufuzi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan mamlakat ekanligini yaqqol namoyon etib kelmoqda. Mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida ikki yarim oy muddatda qurib bitkazilgan "O'zbekiston bog'i" va "Mustaqillik monumenti"ning o'ziyoq badiiy arxitekturasi, salobati, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati bilan juda katta ramziy ma'no kasb etdi. Monumentda yurtimizning 3 ming yillik tarixi, ya'ni "Avesto"dan to hozirga qadar bo'lgan taraqqiyot namunalari, ayniqsa, Yangi O'zbekiston fenomeni ifodasini topgan. Unda o'tmish va bugunni tutashtirgan tarixni, shu bilan birga istiqbolli kelajakni ko'rish mumkin.

Istiqlol mafkurasi bugungi kunda Respublikamizda yashovchi har bir fuqaroning har tomonlama kamol topishiga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Necha asrlar mobaynida mudrab yotgan ongimiz uyg'ondi, milliy merosimizdan ozuqa olishga zamin yaratildi, uning eng yaxshi sahifalarini o'rganishga imkoniyat ochib berildi. Xalq odobnomasi va ibratnomasining teran, boy, serma'no, mazmunli sohasi-xalq og'zaki ijodi va xalq pedagogikasi an'analari-insonni har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, ma'naviyatimizning ustivor, iymon-e'tiqodlarimizning butun bo'lishini, qadriyatlarimizning qadrlanish garovidir.

O‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq og‘zaki ijodining qimmatli xazinasidan foydalanish yo‘llarini, metodikasini ishlab chiqish pedagogikadagi dolzarb vazifalar qatorida turibdi.

Xalq og‘zaki ijodining yorqin sahifalari – “Alpomish”, Guro‘g‘li”, “Barchinoy” kabi xalq tomonidan yaratilgan dostonlar, qo‘shiqlar, aytishuvlar, ulanlar, maqollar, topishmoqlar, ertaklar o‘quvchilarni tarbiyalashda kuchli manba bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, ulardagi milliy qadriyatlarning ulug‘lanishi, milliy iftixor hissining mavjudligi bolalarga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, shu narsani ta’kidlash joizki, 5-6-sinf o‘quvchilariga xalq og‘zaki ijodi na’munalaridan foydalanish orqali ularga milliy qadriyatlarni singdirish masalasi to‘laqonli o‘rganilayapti.

Xalq og‘zaki ijodi asarlari to‘plovchilarini ham birinchi navbatda alla qo‘shiqlari qiziqtirib kelgan. Folklorshunos, lingvist, psixolog, antrapolog va etnograflarning qator tadqiqotlari ana shu masalaga bag‘ishlangan. Bu qiziqish bora-bora o‘quvchilar folklorshunosligiga ham tasir etgan. Keyingi paytlarda o‘lkashunoslikka bag‘ishlangan kitoblarda o‘quvchilar o‘rganishi lozim bo‘lgan xalq og‘zaki ijodiga ham o‘rin ajratildi. Rus folkloristikasida o‘quvchilar og‘zaki ijodi materiallarini qardosh xalqlar o‘quvchilar og‘zaki ijodi bilan qiyoslab o‘rganish bo‘yicha ham qator ibratli ishlar qilindi. Ammo bugungi kunga qadar ingliz xalqi tomonidan yaratilgan folklor va o‘zbek xalq ijodini qiyosiy o‘rganish sohasida hali tadqiqotlar nihoyatda kam. Maktabda o‘quvchilar og‘zaki ijodi materiallarini o‘rganishning muvaffaqiyati, eng avvalo ularning o‘quv dasturlari va darsliklariga, sinfdan tashqari ishlar va rejalariga, mustaqil o‘qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilishiga bog‘liqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug‘ma qobiliyat va iste’dodining o‘rni muhim ahamiyatga ega. Tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta’limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta’limotlarini tez ilg‘ab oladilar va tez o‘zlashtirib hayotga tadbiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va iste'dod, barcha yoshlarimizga tug‘ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste’dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga, ya’ni oila, mahalla, o‘quv muassasalari zimmasiga tushadi. Bolalar o‘zidagi turli faoliyatlarga bo‘lgan tug‘ma layoqatlarni jamoada, o‘z ustida tinmay ishlash jarayonida ro‘yobga chiqaradilar. Maktablardagi sinf hamda jamoa, guruhlar, to‘garaklar, fan olimpiadalarida ishtirok etish tug‘ma layoqatlarning imkoniyatlaridir. Shuningdek, o‘quv va mehnat faoliyatida bolalarning layoqatlari uyg‘onadi va qobiliyatlari o‘sadi. Iste’dod tushunchasining asosiy mazmuni “qobiliyat”, degan tushunchani ham anglatadi.

Shuni aytish mumkinki, qobiliyat tushunchasini insonning tabiiy xususiyati deb qabul qilmay, biroq biz ko‘p hollarda qobiliyat rivoji asosida ba’zi insonlarda tabiiy hususiyat, ya’ni iste'dod ham mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida “haqiqiy”, “tabiiy”, “tabiatdan berilgan” va shunga o‘xshash so‘zlar bilan aytilganda – “tabiiy” tushunchasi, - qobiliyat tushunchasi bilan amaliy tahlilda bir-biriga bog‘liq. Ko‘p hollarda biz tabiiylikni iste'dod rivoji asosida yotgan qobiliyatni tushunamiz. Balki kimdir biror joyda amaliy so‘z ishlatishda, u yoki boshqa biror narsani – tabiiy xususiyatni qobiliyat deb ta’kidlashi mumkindir. Go‘dak tug‘ilgan vaqtda mavjud bo‘lgan “garmonik his” yoki “musiqaga bo‘lgan tuyg‘u” haqida o‘ylash dargumon. Ehtimol, har qanday idrokli inson, tug‘ilgan daqiqadan boshlab, musiqaga bo‘lgan yoki shunga o‘xshash tuyg‘u mavjud, deb o‘ylashi mumkin. Shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, tabiiy iste’dod nishonalari haqida gap ketganda, biz hali meros bo‘lib qolgan iste’dod nishonalari haqida so‘zlaganimiz yo‘q.

Musiqa darslarida o‘quvchilarga musiqadagi yuksak badiiylikni tushuntirish, musiqa asarlarining mazmun va mohiyati bilan tanishtirish, musiqiy didini tarbiyalash hamda musiqiy his-tuyg‘usini rivojlantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi. O‘quvchilarda dastlabki his-tuyg‘u va fikrlarni rivojlantirish va shakllantirishda albatta ta’limning dastlabki bosqichlaridan boshlab, o‘quvchilarning yosh va psixologik-fiziologik xususiyatlariga e’tiborni qaratmoq muhimdir. Birinchi sinfda musiqa darslari ta’limotining poydevori qo‘yiladi. Shuning uchun, avvalo 1-sinfdan boshlab ularni darsga faol qiziqtirish, musiqani idrok eta bilish, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqa savodini o‘rgata borish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o‘qituvchi bolalarni sevishi, darsga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi, barcha metod va prinsiplardan to‘g‘ri foydalana olishi, so‘z mahoratiga usta bo‘lishi, bolalarga xos bo‘lgan qo‘shiqlarni chiroyli, mayin, bolalar ovoziga moslab, kuylar mazmunini ochib berishi zarur. 1-sinf o‘quvchilari psixologik-fiziologik xarakterga ko‘ra ma’lum darajada xotirasi to‘liq rivojlanmagan, diqqat-e’tibori, ovoz apparati to‘lla shakllanmaganligi sababli, ovoz pardalari nozik, kuchsiz bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar san’at bilan bolalar bog‘chasidan televideniye, radio, qo‘g‘irchoq teatri va multfilmlar orqali tanish bo‘ladilar. Shu bilan birga ular serharakat, o‘yinga moyil, taqlidchan bo‘ladilar. Repertuarga kiritilgan musiqaviy asarlar ana shu xususiyatlarini nazarga olgan holda, mazmuni va mavzusi jihatidan, xilma-xil bo‘lmog‘i kerak. Ushbu asarlar ularni his-tuyg‘ularini ifodalash bilan birga kundalik turmushni va tabiatni aks ettirishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning hayotiy tajribalariga asoslangan holda har bir musiqa zamirida ma’lum his-tuyg‘u va fikrlar aks ettirilishi haqida tushuntirishi kerak, birinchi darslardanoq musiqa asarlarini o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmasligi, uni kimdir katta ijodiy mehnat qilib, yaratishi haqida suhbat o‘tkazadi. Buning uchun “Musiqani kim yaratadi?”, “Kim ijro etadi?”, “Kim tinglaydi?”- degan savolni o‘rtaga tashlaydi. O‘rganiladigan asarning xarakteri obrazli qilib ifodalansa, bolalar uni tushunib, mazmunini aniq qilib ochib beradilar. Ma’lumki, 1-sinf o‘quvchilari musiqa haqida har xil darajada umumiy tushunchaga, bilimga ega bo‘ladilar. Ammo, ularning kundalik musiqaviy hayotdan olayotgan taassurotlari va musiqaviy tajribalari bir-biriga yaqin turadi. O‘qituvchi sinf jamoasini birlashtirishda aynan shundan foydalanmog‘i lozim.

Dars mazmunini hayot bilan bog‘lashda bolalarning taassurotlari va tajribalarining boyitib borilishi asosida, musiqaning eng oddiy qonuniyatlari haqida bilim darajalari kengaytirilib boriladi. 1-sinf o‘quvchilari musiqa haqida quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

1. Bolalarning diqqat-e’tibori musiqaning ifoda vositalari kuy, registr, temp, janr va ladlarga jalb etiladi.

2. Ashula aytish qoidalariga doir bilimlar, chapak va cholg‘u asboblarida chalish qoidalari; musiqaga mos harakatlar, qo‘shiqlar janri xarakteri va tuzilishiga doir bilimlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari lozim.

3. Musiqa idroki kompozitor ijrochi, tinglovchi haqida qisqacha tanishishlari kerak.

Keyingi sinflarda mazkur bilimlar nisbiy tushunchadan aniq tushunchaga aylanadi. Shunday qilib, 1-sinfda bolalar musiqasining xarakteri va obrazlari haqida, uning oddiy qonuniyatlari haqida umumlashma bilim va nisbiy tushunchalarga ega bo‘ladilar, bu shartli ravishda notagacha bo‘lgan davr deb ataladi. Musiqa elementlari asosan qo‘l bilan kuy harakati, tovushlar baland-pastligi, uzun-qisqaligi; qo‘shiq haqida o‘qituvchining kirish so‘zi (mualliflari, ayrim tarixiy xususiyatlar, hayotiy ahamiyatlar va boshqalarni hikoya, suhbat yo‘li bilan qisqacha bayon etish); qo‘shiqni ijro etish yoki gramm yozuvida eshittirish; suhbat yo‘li bilan qo‘shiqning musiqa xarakteri, uning ifoda vositalari

va mazmunini aniqlash, ayrim ijro uslublarini belgilash; qo‘shiqni musiqali jumlalarga bo‘lib o‘rgatish, ijrochilik sifatlari ustida ishlash; qo‘shiqni ijro etish va qo‘shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqacha suhbat o‘tkazish, ya’ni ummlashtirish.

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi o‘quv jarayonining asosi, poydevori bo‘lib, “abadiydir” pedagogik muammo vaqt o‘tishi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi, doimiy, yaqin e'tibor va yanada rivojlanishni talab qiladi. Bugungi kunda jamiyatda tashabbuskor, ijodkor, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni topishga tayyor, yangi demokratik jamiyatda yashashi va shu jamiyat uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan odamlarga, ayniqsa talab katta. Shu munosabat bilan shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosi bugungi kunda alohida dolzarblikka ega. Ijodiy shaxslar har doim sivilizatsiya taraqqiyotini aniqladilar, moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratdilar, yangilik, g‘ayrioddiylik bilan ajralib turdilar, odamlarga odatiy ko‘rinadigan hodisalarni g‘ayrioddiy narsalarni ko‘rishga yordam berishdi. Ammo aynan bugun ta’lim jarayoni oldida ijodiy shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Ushbu vazifa muqobil ta’lim dasturlarida aks ettirilgan innovatsion jarayonlar zamonaviy maktabda bo‘lib o‘tmoqda. Ijodiy faoliyat ijodiy xarakterga ega bo‘lgan faoliyat jarayonida rivojlanadi, bu o‘quvchilarni o‘rganishga va hayratga solishga, nostandart vaziyatlarda yechim topishga majbur qiladi. Shu sababli, bugungi kunda pedagogika fanida va amaliyotida o‘qitishning yangi, nostandart shakllari, usullari va usullarini izlash jadal davom etmoqda. An’anaviy bo‘lmagan dars turlari, muammoli o‘qitish usullari, yosh o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan sinfdan tashqari ishlarda jamoaviy ijodiy ishlar keng tarqalmoqda,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmatullayeva N.B. Ernazarova M.S Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqini, muloqatini rivojlantirish. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal-(3) III/2020. ISSN 2181-063X.-6 s.

2. Ochilov F.I. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida boshlang‘ich sinflarda dars samaradorligini oshirish xususiyatlari. Zamonaviy ta’lim / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2016. 5. -7 s.

Jaxongir BEGIJONOV,
Andijon davlat universiteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

BADIIY KULOLCHILIK MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kulolchilik mashg’ulotlari jarayonida kreativlik, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, talabalarning innovatsion faoliyati, interfaol ta’lim, innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Kulolchilik, kreativlik, naqqoshlik, qobiliyat, interfaol metodlar innovatsiya, ta’lim.

В данной статье описаны факторы, развивающие креативность, творческую компетентность педагогов, инновационную деятельность учащихся, интерактивное обучение, инновационные образовательные и информационно-коммуникационные технологии, творческие способности учащихся на занятиях по гончарному делу.

Ключевые слова. гончарство, творчество, живопись, умение, интерактивные методы, инновации, образование.

This article describes factors that develop creativity, creative competence of pedagogues, innovative activities of students, interactive education, innovative education and information and communication technologies, and creative abilities of students during pottery classes.

Key words. Pottery, creativity, painting, ability, interactive methods, innovation, education

Badiiy kulolchilik yo‘nalishi talabalarni yuqori bilimli, malakali o‘qituvchi bo‘lib etishishida juda katta rol o‘ynaydi. Badiiy kulolchilik mashg‘ulotlarida yuksak badiiylik milliy an’anani rivojlantirishga, undan foydalanish, undagi kreativ amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, talabalarda qunt va chidam, qadriyat, xalq amaliy san’atining qiziqarli, o‘ziga xos turlariga jalb etish maqsadga muvofiqdir. O‘rta asr badiiy kulolchiligini o‘rgangan talabalar an’anaviy lagan, guldon va yangi shaklli bezak idishlar, portretlar, sovg‘a buyumlar yaratadilar. Ularni bezashda o‘simliksimon naqshlar bilan bir qatorda xayvon shakllari va yozuvli tasvirlardan mohirona foydalanadilar. Sopol material va bo‘yoqlarni o‘rganish yilidagi izlanishlar samarasi sifatida bir qator asarlar maydonga keladi.

Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug‘ullanadi. Ular o‘ziga xos tomonlari bilan bir–biridan farq qiladi. O‘zbek badiiy kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an’analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlar sodda bo‘lsada, uning ko‘rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi, saqlanishi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunning birligi, uyg‘unligi o‘zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan piyola, kosa, tovoq, ko‘za kabilarni tayyorlaydigan soha bo‘lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o‘ta qizdirganda toshsimon bo‘lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan bilganlar. Ular avval loydan idishlar yasab, gulxanda qizdirib pishirganlar.

Tuproq jahonning hamma erlarida bo‘lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo‘lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug‘ullanganlar. Kulolchilik tarixi miloddan avvalgi 3

ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug‘ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish–tovoqlarni maxsus o‘choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Hozirgi kunda kulolchilik faniga yanada e’tibor kuchaymoqda. Poytaxtimizning barcha qo‘shimcha ta’lim muassasalarida to‘garaklar ishlab turibdi. O‘zbekiston Badiiy Akademiyasiga qarashli Respublika rassomlik kollejida, K.Behzod nomidagi rassomchilik va dizayn institutida, Nizomiy nomli TDPU “San’at” fakultetining amaliy san’at kafedrasida bu fan sirlari talabalarga o‘rgatilib kelmoqda. Bu ustalar yaratgan kulolchilik san’at asarlari ham muzeylardan joy olishiga ishonchimiz komildir.

Rishton O‘zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimiy markazlardan biri. XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholisining deyarli hammasi kulollardan iborat edi. Farg‘ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta’siri ostida bo‘lgan. Ushbu tumanda har qanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo‘lgan, alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo‘la oladi.

Qizg‘ish-sarg‘ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun hududida 1–1,5 m chuqurlikda qatlam bo‘lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatliligi mahalliy ustalarning uni O‘zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab, boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan holda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog‘lardan har xil bo‘yoqlar, kvarsli xum va olovbardosh gillarni qazib olishgan.

Kreativ shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot – bu belgilangan xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish emas, balki to‘liq namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratish va shunga mos ravishda talabalar shaxsiyatining ijodiy funksiyalarini rivojlantirish. Ta’lim falsafasi kreativ yondashuvni mavzu toifalari, erkinlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, muloqotning yaxlitligi, shaxsning o‘zini namoyon qilish shakli sifatida o‘rganadi. Bizning tadqiqotimizda ushbu yondashuv pedagogika fani doirasida ta’limning maqsadi va mazmuni toifalari, dekorativ-amaliy san’atni o‘qitish usullari, xususan badiiy kulolchilik va ularga kiritilgan o‘ziga xos texnologiyalar, ta’lim jarayonining samaradorligini, talabaning kreativ kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan mezonlar orqali ko‘rib chiqiladi.

Kreativ shaxsni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim o‘z maqsadlariga insonning mustaqil rivojlanish kuchlari va kreativ ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish uchun talab qilinadigan vaziyatni yaratadigan darajada erishadi. Biz kreativ kompetensiyani rivojlantirish deb belgilagan funksiyalar spektri ijodkorlik, erkinlik, mustaqillik, turli xil hayot va ijodiy to‘siqlar bilan raqobat, individuallikni rivojlantirish, hayotning ma’naviy darajasini ta’minlash va h.k.larni o‘z ichiga olishi mumkin.

Shaxsning ushbu asosiy shaxsiy kompetensiyalari ularning rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik vositalarning ma’lum asosiy xususiyatlarini nazarda tutadi. Kreativ kompetensiyani rivojlantirish uchun ijodiy erkinlik va raqobatbardoshlik uchun sharoit yaratish kerak, refleksiv funksiya shaxs va unga ochiladigan madaniyat va san’at olami o‘rtasidagi o‘zaro muloqot sharoitida talab qilinadi va rivojlanadi. Kreativ shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikaning mohiyati – sharoit, imkoniyat, tanlov maydonini yaratish va natijada shaxsning kreativ ehtiyojlarini namoyon etish va rivojlantirishdan iborat.

Pedagogikada muammoli ta’limning uchta asosiy shakli mavjud:

- muammoli taqdimot;
- qisman-qidiruv faoliyati;

- mustaqil tadqiqot faoliyati.

Birinchi tur – bu muammoli taqdimot bo‘lib, o‘qituvchi o‘z oldiga vazifa qo‘yib, uni hal qilish mantig‘ini – qarama-qarshiliklar va ko‘zlangan maqsaddan chetga chiqish bilan yangisini kashf etishning qiyin usulini munozarali ravishda ochib beradi. Taqdimotni kuzatib boradigan talabalarda savollar, shubhalar, e’tirozlar bor, ba’zida ular ishning keyingi bosqichini kutishadi yoki uni boshqacha, o‘ziga xos tarzda qurishadi. Tanqidiy fikrlash, muammoni tushunish va uni hal qilishda muqobillar shu tarzda rivojlanadi.

Ikkinchi tur – qisman-qidiruv faoliyati muammoli vazifa katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarganda mumkin bo‘ladi. Talaba ularni o‘zi engib chiqa olmaydi, o‘qituvchi unga yordam berib, muammoni saqlab qoladi. U muammoni hal qilishda navbatdagi qiyin qadamni taklif qiladi, shunda talabalar qolgan qadamlarni o‘zlari o‘ylab topadilar yoki bolalar o‘zlari amalga oshiradigan echim rejasini beradilar. Natijada, talabalar butun muammoni bir butun sifatida emas, balki uning bir qismini hal qiladilar, kreativ faoliyat tajribasini to‘playdilar, tadqiqot izlashning individual elementlarini o‘zlashtiradilar. Ushbu usulning eng samarali shakli evristik suhbat bo‘lib, unda o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan savollarning aniq tizimi umumiy muammoni hal qilish yo‘lidagi kichik vazifalarni ifodalaydi.

Uchinchi tur – tadqiqot usuli. U talabalar tomonidan har xil turdagi muammoli masalalarni tizimli hal qilishni ta’minlaydi, ularning kreativ faoliyatini tashkil qiladi va qo‘yilgan muammoni o‘rganishning butun kursini o‘zlashtirishga imkon beradi.

Darslar davomida turli xil o‘qitish usullari va texnikalarining kombinatsiyasidan foydalanish kerak. Usullarni, o‘quv vazifalari va maqsadlarining tabiatini o‘zgartirib, o‘qituvchi talabalarning kognitiv jarayonlarini boshqaradi, ularni aqliy va amaliy harakatlarga undaydi. Talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan asta-sekin murakkab o‘quv va kreativ vazifalar tizimini ishlab chiqish qobiliyatiga bog‘liq.

Badiiy kulolchilik mashg‘ulotlarida muammoli ta’limdan foydalanish hissiy jihatdan mazmunli, texnik yoki boshqa har qanday o‘quv va amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Badiiy kulolchilik mashg‘ulotlarida muammoli usullardan foydalanish zarurati, sinfda kognitiv qiyinchiliklar holatini yaratish orqali o‘qituvchi talabani aks ettirish zarurligiga jalb qilishi bilan asoslanadi. Talabani muayyan aqliy operatsiyalarni hal qilishga ongli ravishda jalb qilib, uni taqqoslashga, umumlashtirishga, tahlil qilishga va h.k.larga majbur qiladi, bu kreativ kompetensiyani rivojlantirishni faollashtiradi.

Muammoli o‘qitish usullarining umumiy xususiyati talabaning muammoni hal qilish bo‘yicha mustaqil faoliyati bo‘lib, uning davomida yangi bilimlar egallanadi, ko‘nikmalar shakllanadi, tajriba to‘planadi, kreativ kompetensiyani rivojlantirishni faollashtirishga yordam beradigan ma’lum qiziqishlar tizimi shakllanadi. Kreativ kompetensiyani rivojlantirish va kreativ faoliyatni faollashtirishning eng maqbul shakli bo‘lgan muammoli ta’lim munozara shakllarida amalga oshiriladi, uning davomida muammoli vaziyat shakllanadi va uni hal qilish yo‘llari ko‘rsatiladi. Kreativ faoliyat natijalarini sarhisob qilish jarayonida raqobat elementlari kreativ faollikni oshirishga yordam beradi. Bunday elementlar odatda ma’lum bir o‘qish davri oxirida o‘tkaziladigan turli tanlov va ko‘rgazmalarda amalga oshirilishi mumkin.

Muammoli vazifalarni bajarish natijasida talabalar diqqat, vizual, xotira, kuzatishni rivojlantiradilar; aqliy operatsiyalar ko‘nikmalari shakllanadi, makonni uzatish, ma’lum bir materialda shakllantirish, tabiatni umumlashtirish va h.k. rivojlanadi.

Badiiy kulolchilikni o‘qitish jarayonida talabaning tasvir ob’ektiga bo‘lgan munosabati

orqali ichki va tashqi aloqalarni tahlil qilish va sintez qilish tizimiga tobora murakkab vazifa kiritilishi kerak. Badiiy kulolchilik mashg‘ulotlarida siz bir qator tobora murakkab vazifalarni qo‘yishingiz mumkin. Talabalarning kreativ faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining amaliy topshiriq ustida ishlash jarayonida ularga uslubiy yordam ko‘rsatish qobiliyati bilan belgilanadi. SHu bilan birga, talabalarga individual yondashuv tamoyilini hisobga olish kerak.

Badiiy kulolchilik bo‘yicha mashg‘ulotlarning o‘ziga xosligi ularning xulq-atvorining kombinatsiyalangan tabiatidan foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Bu bir xil dars davomida turli xil o‘qitish usullarini birlashtirish mumkinligini taxmin qiladi. SHu bilan birga, kulolchilik mashg‘ulotlarida kreativ kmpetensiyalarni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyati maqsadlarni tanlashda, aniq vazifalarni belgilashda va ularni hal qilish yo‘llarini topishda mustaqillikni kengaytirish imkoniyatidir. Amaliy ishlarni bajarishga kreativ munosabat ehtimoli talabaning asosli o‘zini o‘zi qadrlash darajasini oshiradi, bu esa oxir-oqibat shaxsning kreativ kompetensiyasi rivojlanishini faollashtiradi.

Faoliyatning har xil turlaridan badiiy kulolchilik mashg‘ulotlarining o‘ziga xosligi talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida eng muhimlaridan biri hisoblanadi, chunki u turli xil shaxsiy fazilatlarni faol shakllantirish va takomillashtirishga yordam beradi, o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Kulolchilik mashg‘ulotlari badiiy fikrlash va vizual ko‘nikmalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi, estetik didni shakllantirishga va go‘zallikni tushunish qobiliyatiga hissa qo‘shadi. Tarix va xalq ijodiyoti asoslarini o‘rganish talabalarda vatanparvarlik, milliy tarix va madaniyatga daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalashga yordam beradi va natijada talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishni faollashtirishga qaratilgan tashabbuskorlik, kreativ faoliyatni rag‘batlantiradi.

Tushuntirish va illyustrativ usulning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, o‘qituvchi faol pozitsiyani egallaydi, yangi bilimlarni etkazadi. O‘qitishning ushbu usuli nihoyatda zarurdir, chunki u ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, voqelikka estetik munosabatni, badiiy didni takomillashtirish, milliy madaniyatga hurmatni rivojlantirish uchun mustahkam axborot bazasini yaratishga yordam beradi. Talabalarga yangi bilimlarni etkazishning asosiy shakllari – bu hikoya, suhbat, ekskursiya. O‘qitishning tushuntirish va illyustratsion usullaridan foydalanishda ko‘rinishning turli shakllari muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu usullar har bir talaba uchun muvaffaqiyat holatini yaratishga, o‘quv faoliyatining individual shakllariga o‘tish uchun shart-sharoitlarni yaratishga, samarali ishlash usullarini ishlab chiqishga yordam beradi, shaxsning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – 43 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz

3.Azimov I.M. O‘zbekiston naqshu nigorlari. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. - 142 b.

4. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. – T.: Mehnat, 1991. – 384 b.

5.Bulatov M.S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv.

6. Zohidov P.SH. Zeb ichra ziynat. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985. - 118 b.

Zulfiya MO'MINOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA GENDER YONDASHUV

Annotatsiya

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda gender yondashuvi masalasi maqola muallifi tomonidan eng muhim masala sifatida ko'rib chiqilgan. O'yin – maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining bir turi. Bu o'rinda bolalar o'yinchoqlarining o'rni beqiyos. Maqolada kattalar va bolalarning birgalikda o'yinlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar. Gender, gender ta'limi, gender barqarorligi, axborot va uslubiy yordam, havaskor o'yin, qo'lda yasalgan o'yinchoq.

Автор статьи считает, что важнейшим вопросом в воспитании дошкольников является гендерный подход. Игра является видом деятельности для детей дошкольного возраста. Роль детских игрушек в этом месте несравнима. В статье даны рекомендации по организации совместных игр для взрослых и детей.

Ключевые слова. гендер, гендерное образование, гендерная стабильность, информационно-методическая поддержка, любительская игра.

The author of the article believes that the most important issue in the education of preschoolers is the gender approach. Play is an activity for preschool children. The role of children's toys in this place is incomparable. The article gives recommendations on organizing joint games for adults and children.

Key words. Gender, gender education, gender stability, information and methodological support, amateur game.

Yosh avlodni gender asosida tarbiyalash muammosi eng dolzarb murakkab va ziddiyatli muammolardan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalik – bu o'qituvchilar va ota-onalar uchun bolani tushunishi va unga noyob imkoniyatlarni ochishga yordam berishining qulay payti ekanligini anglab yetish davridir.

Gender ta'limi – bu qiz va o'g'il bolalarning gender ijtimoiylashuvi jarayoniga nisbatan ijtimoiy boshqariladigan rivojlanish jarayoni – gender munosabatlar madaniyati asoslarini tarbiyalash, tegishli xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini o'zlashtirishdir.

Gender tengligiga intilayotganda, ijtimoiy va psixologik xususiyatlarni belgilovchi biologik determinantlar mavjudligini unutmasligimiz kerak. Tabiat nafaqat ayol va erkak o'rtasidagi jinsiy farqni belgilab qo'ygan, balki ular bir-biridan psixofiziologik jihatdan farq qiluvchi ikki xil turdagi odamlar bo'lib, bolalar bog'chasida ham, oilada ham, ta'limda ham turli xil pedagogik yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi. Yaratiladigan muhit qizlardan ayollik fazilatlarini, o'g'il bolalardan esa ma'lum erkaklik fazilatlarini talab qiladi. Bunga haddan tashqari qaramlik yoki o'ziga xos munosabat bolalikda ham, kattalarda ham turli xil og'ishlarga olib keladi.

Ma'lumki, ta'lim taraqqiyotining belgilovchi ko'rsatkichlaridan biri gender tenglik indeksidir, chunki ta'lim qizlarga ham, o'g'illarga ham foyda keltiradi va bu bilan pirovardida erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqli munosabatlarning rivojlanishiga

xizmat qiladi.

Bu farqlar ham biologik, ham ijtimoiy omillarga bog‘liq.

Qizlar va o‘g‘il bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalashning optimal jarayonini tashkil etish uchun pedagog bu farqlarni aniq tushunishi kerak.

Intellektual rivojlanishda ikki jins vakillari turlicha darajaga egaligi fanda o‘z isbotini topgan: qizlar odatdagi vazifalarni yaxshiroq bajaradilar; tafsilotlarni diqqat bilan ishlab chiqadilar; qoidalarni osonroq o‘rganishadilar; darsga tezda qo‘shilishadilar; ko‘proq e’tiborli bo‘ladilar.

O‘g‘il bolalarda fazoviy fikrlash rivojlangan; ular qidiruv vazifalarini yaxshiroq bajaradilar; yangi g‘oyalar ishlab chiqishni yoqtiradi; monotonlikni yoqtirmaydi; ko‘p bosqichli vazifalarni bajarish qiyinroq; bir vaqtning o‘zida bir nechta muammolarni hal qilishda qiynaladi; eng yuqori samaradorlik ish oxirida sodir bo‘ladi.

Ommaviy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda maktabgacha ta’lim tizimida gender ta’limi bo‘yicha jiddiy muammolar mavjud. Bugungi kunga qadar butun dunyo bo‘ylab maktabgacha ta’lim tizimi kamdan-kam holatlardan tashqari, asosan “jinssiz” hisoblanadi. Bunga quyidagi faktlar dalildir:

– O‘zbekistondagi maktabgacha ta’lim muassasalarini dasturiy va uslubiy ta’minlash gender xususiyatlarini hisobga olmaydi, natijada tarbiya va ta’lim mazmuni ma’lum bir o‘g‘il va qiz bolalarga emas, balki bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlariga qaratilgan.

– gender barqarorligi shakllanishining eng muhim davrida, maktabgacha ta’lim muassasasida qizlar va o‘g‘il bolalar uzoq vaqt davomida (8-12 soat) faqat ayollar e’tiborida bo‘ladi, natijada ko‘plab o‘g‘il bolalarda erkaklar ishtirokisiz gender barqarorligi shakllanadi;

– maktabgacha ta’lim muassasasida genderga asoslangan o‘yin uslublarini to‘liq amalga oshirish mumkin emas, agar faqat tarbiyachilar ayollar bo‘lganligi sababli va odatda qizlarning xotirjam o‘yinlarini rag‘batlantirsa va aksincha, o‘g‘il bolalarning shovqinli faol o‘yinlarini cheklab qo‘yishadi va hatto taqiqlashadi;

– bolalar bog‘chasida qo‘llaniladigan o‘qitish strategiyasi, bolalar bilan ishlash shakllari va usullari ko‘pincha qizlar uchun mo‘ljallangan.

– odatiy kunlik tartib har xil harakatlarga bo‘lgan ehtiyojni, o‘g‘il bolalar va qizlarning faoliyatini, dam olish almashinuvini hisobga olmaydi;

– gigienik, uxlash, o‘yin va yechinish xonalari barcha bolalar uchun umumiydir;

– tenglashtiruvchi pedagogika, gender o‘ziga xosligini e’tiborsiz qoldirish, shaxsning o‘zini o‘zi anglashi va bolaning individualligini rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar, maktabgacha ta’lim muassasalari amaliyoti muammolari, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash, o‘qitish, rivojlantirishda gender yondashuvi masalalarida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda gender yondashuvini joriy etish muammosi hamda bolalarni gender tarbiyalash jarayonining samaradorligini ta’minlash uchun bir qator shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Ushbu qoidalarni ishlab chiqishda quyidagi shartlarni hisobga olish mumkin:

1. Gender muvozanatli ta’lim maydonini yaratish – qisman gender ta’lim dasturlarini amalga oshirish;

– ta’lim jarayoniga gender ta’lim usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

– o‘g‘il bolalar va qizlarning o‘zini o‘zi anglashi uchun qo‘shimcha joylarni yaratish;

– teng shartlar asosida o‘g‘il bolalar va qizlarning birgalikdagi faoliyatida hamkorlik tajribasini tashkil etish;

– o‘g‘il bolalarning hissiy o‘zini namoyon qilishidagi an’anaviy madaniy taqiqlarni olib tashlash, ularni his-tuyg‘ularini ifoda etishga undash;

– qizlarda o‘z-o‘zini rag‘batlantirish va o‘zini o‘zi qadrlash tajribasini yaratish;

– gender sezgirligini o‘rgatish uchun sharoit yaratish (mashqlar va o‘yinlar, sahnalashtirish, rol almashish orqali).

2. Tarbiyachilarning bolalarni ganderli tarbiyalash faoliyatiga kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish.

3. O‘g‘il va qiz bolalarning o‘z jinsini aniqlash hamda o‘zini o‘zi anglash masalalari bo‘yicha tarbiyachilar va ota-onalarni axborot-metodik ta’minlash.

4. Bolalarning gender ta’limi muammosini amalga oshirishda ikkala jinsdagi ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlar tizimini takomillashtirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning gender ta’limini pedagogik qo‘llab-quvvatlashning asosiy shartlaridan biri tabaqalashtirilgan predmetli-makonli va o‘yin muhitini yaratish hamda bolalarni erkin o‘yin faoliyatiga jalb qilishdir.

Mavzuni rivojlantiruvchi muhit nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli xil faoliyat turlarini (jismoniy, o‘yin, aqliy va boshqalar) ta’minlabgina qolmay, balki gender xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil faoliyatining asosi hisoblanadi.

Guruhda o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun sharoit yaratishda, o‘g‘il va qizlar boshqacha qarash va ko‘rish, tinglash va eshitish, gapirish va sukut saqlash, boshqacha his qilishlarini unutmaslik kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘g‘il bolalarga qizlarga qaraganda ko‘proq joy kerak. Qizlar va o‘g‘il bolalar uchun u har xil bo‘lishi va har bir yosh bosqichida o‘zgarishi kerak, har ikkala jinsdagi bolalarga mo‘ljallangan o‘yin jihozlarining ulushi kamaymasligi zarur.

Ushbu muammoning holati va amaliy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi o‘yin faoliyatidagi farqlar ayniqsa sezilarli. Olimlar va amaliyotchilar turli xil tarkib va o‘yin uslublarini ta’kidlashadi, bu ko‘pincha ayol tarbiyachilar oila va kundalik mavzularda qizlarning tinch o‘yinlariga yaqinroq bo‘lganligi sababli amalga oshiriladi. O‘g‘il bolalarning shovqinli, harakatli o‘yinlari pedagoglarni asabiylashtiradi, chunki ular bunday o‘yinlar shunchaki ma’nosiz yugurish va jarohatga olib kelishi mumkin, shuning uchun ularga guruh hayotida o‘rin yo‘q va ularni to‘xtatish kerak, deb hisoblashadi. Natijada, o‘g‘il bolalar “erkak o‘yinlari” dan mahrum bo‘lib, ularning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Katta yoshdagi odamlarning asosiy vazifasi – bolalar bilan atrofdagi dunyoni idrok etish uchun qalblarini ochish, har bir bolada ijodiy faollik, o‘ziga xoslik, ularning har birida o‘ziga bo‘lgan ishonchni uyg‘otish, o‘z jinsiga muvofiq rivojlanishlariga ko‘maklashish, yaxshilik va go‘zallik qilish, odamlarga quvonch keltirish kabilardan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.I. Yosh davrlar psixologiyasi. Moliyachi. 2015.

2. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1999.

3. Yusufbekova N. Pedagogik innovatsiyalar. – T., 2009.

S.X. XOLTO‘RAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga har tomonlama sifatli tayyorlash va uyg‘un rivojlantirish bugungi kunning asosiy maqsadi qilib olingan. Ushbu maqolada maktabgacha ta’limning sifat samaradorligini oshirishda, bolani erta yoshdanoq maktabga tayyorlashda tayanch kompetensiyalarni integratsion shakllantirish, pedagogik, psixologik jarayonlarga zamonaviy yondashish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar. Bola, maktabgacha ta’lim, kompetensiya , ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, shaxsiy, bilish, rivojlantirish, qiymat, natija, samaradorlik.

Качественная подготовка и гармоничное развитие детей к школе в дошкольных образовательных организациях принято считать главной целью сегодняшнего дня. В данной статье рассматривается интеграционное формирование базовых компетенций в повышении качественной эффективности дошкольного образования, подготовке ребенка к школе с раннего возраста, современный подход к педагогическим, психологическим процессам.

Ключевые слова. Ребенок , дошкольное образование, компетентность, социально-эмоциональная, коммуникативная, личностная, познавательная, развивающая, ценностный, результат, результативность.

High-quality preparation and harmonious development of children for school in preschool educational organizations is considered to be the main goal of today. This article discusses the integration formation of basic competencies in improving the quality effectiveness of preschool education, preparing a child for school from an early age, a modern approach to pedagogical, psychological processes.

Key words. Child, preschool education , competence, socio-emotional, communicative, personal, cognition, development, value, result, efficiency.

Bugungi kunda xorijiy tajribalar maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida hayotiy yo‘nalishlarini tanlash uchun shart-sharoitlarni ta’minlash zarurligini ko‘rsatmoqda. Rivojlangan davlatlarda ta’limga e’tibor va unga sarmoya kiritish davlatni mustahkamlashning eng muhim omili ekanligi o‘z isbotini topdi. Maktabgacha yosh davri o‘ziga xos ijtimoiy madaniy hodisa ekanligi, uning bola hayotidagi ta’siri, butun umri davomida mustahkam zamin yaratishini tushunish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Jahonda ta’lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha ta’lim tizimini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, dunyo miqyosida bolalarni psixofiziologik, intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim muhitini tashkil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida maktabgacha ta’limning sifat mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy-ama-

liy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqotlarda maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot metodik

tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, ta’lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv va muammoli-vaziyatli o‘qitish usullarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tizimi pedagoglarining kasbiy innovatsion kompetentliligini rivojlantirish va baholashning samarali shakl va metodlarini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Maktabgacha ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilib, bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib borilmoqda. 2016-2020 yillar mobaynida sohada jadal sur’atlar bilan o‘sish, hamda ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. 2019-yilning 8-mayida davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘grisida”gi PQ-4312-sonli qarori tasdiqlandi va bu qarorlarning tub zamirida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama uyg‘un rivojlantirish, maktab ta’limiga sifatli tayyorlash ko‘zda tutilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalarni shakllantirish kelajakda ularni maktab ta’limida qiynalmay o‘qishlari uchun zamin yaratadi. Bolaning asosiy kompetensiyalari kommunikativ, ijtimoiy kompetensiya, bilish, shaxsiy kompetensiyalar bo‘lib hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va odob-ahloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o‘rganadilar.

Shaxsiy kompetensiya (“Men” konsepsiyasini yaratish). Shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog‘lom turmush tarzini amalda qo‘llash mahoratini o‘z ichiga oladi.

Bilish kompetensiyasi bilim olish, o‘qish va o‘rganish, mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shunday ekan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash jarayonida tayanch kompetensiyalarini integratsion tarzda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘pgina psixologik va pedagogik adabiyotlarda “maktabga tayyorlik” tushunchasi insonning shaxs sifatida rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, u boladagi psixologik, psixologik aqliy xususiyatlarning ko‘lami bilan ifodalanadi va ularsiz maktabda o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish mumkin emas.

V.V. Davidovning ta’kidlashicha, “maktabga tayyorlik – bu katta maktabgacha yoshdagi bolaning morfofiziologik va psixologik xususiyatlari to‘plami bo‘lib, uni tizimli tashkil etish va maktabga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlaydi”.

Maktabgacha ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilar natijasida belgilanadi:

1) qiymat – kompetensiyani egallash va namoyon qilish, maktabgacha ta’lim mazmunini o‘zlashtirish jarayonida sodir bo‘ladi;

2) maqsad – kompetensiya intellektni rivojlantirish va ko‘nikmalarni (bilim, ko‘nikma, tajriba, munosabatlar) birlashtirganda, ta’limni ijtimoiylashtirish va individuallashtirishni amalga oshirish.;

3) natija – kompetensiya harakat va faoliyat sohasidagi bir-biriga yaqin bo‘lgan bir qator ko‘nikmalarni (kommunikativ, axborot, til, ijtimoiy, shaxsiy va boshqalarni) o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatini rivojlantirishda maktabgacha yoshdagi bolaning butun hayoti va uning keyingi ta’limi uchun muhim asos sifatida qaraladi. Maktabga tayyorlash jarayonida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ, ijtimoiy-madaniy, bilish, shaxsiy kompetensiyasini shakllantirish juda muhim, bu bolaning jamiyatda yashash uchun zarur bo‘lgan dastlabki kompetensiyalar hisoblanib, kelgusida bolalarni maktab ta’limi jarayoniga muammolarsiz o‘tishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PQ-4312-sonli Qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son)

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ T., 2022-y.

3. “Bolangiz maktabga tayyormi?” O‘z. Res. Xalq ta’limi vazirligi Respublika ta’lim markazi, Ma’rifat-Madadkor nashriyoti.

M.A. MAXMUDOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti,
"Informatika" kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)

TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK KOMPYUTER MUHITINI YARATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim jarayonini va uning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan didaktik kompyuter muhitini yaratishda raqamli texnologiyalarni tutgan o'rni va ahamiyati, shunungdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash faolligini oshirish, mas'uliyatli, ijodkor va erkin shaxsni tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Axborotlashtirish, kompyuter, texnologiya, vosita, dastur, erkinlik, kreativlik, ijodkorlik, tarmoq, didaktika, shaxs, mutaxassis.

В данной статье представлена информация о роли и значении цифровых технологий в создании дидактической компьютерной среды, направленной на повышение образовательного процесса и его эффективности, а также о совершенствовании механизмов повышения активности самостоятельного и критического мышления обучающихся, развития навыков воспитания ответственной, творческой и свободной личности.

Ключевые слова. Информатизация, компьютер, технология, среда, программа, свобода, креативность, креативность, сеть, дидактика, личность, специалист.

This article presents information about the role and importance of digital technologies in creating a didactic computer environment aimed at improving the educational process and its effectiveness, as well as improving the mechanisms for increasing the activity of independent and critical thinking of students, developing the skills of educating a responsible, creative and free personality.

Key words. Informatization, computer, technology, vospita, program, freedom, creativity, creativity, comb, didactics, chess, specialist.

Respublikamiz ta'lim muassalarida axborotlashtirish darajasini oshirishda axborot texnologiyalari, apparat-dasturiy vositalarni intellektual boshqarish tizimlari asosida elektron axborot resurslarining bilimlar bazasini shakllantirishda milliy kontentni yaratish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. O'quvchilarning kompyuter savodxonligini, darslarda ijodkorligini, ilmiy yechimlarni izlashga qodir, mustaqil fikrlay oladigan o'z nuqtayi nazarini bayon qiladigan, individual yondashuv orqali didaktik ta'minot vositasida muhim xulosalar chiqara oladigan o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish vazifalarini qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimi tarkibiga kiruvchi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, "Informatika va axborot texnologiyalari" kabi talabi yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish"[1] vazifalari belgilangan. Bu esa ta'lim tizimining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qarala-

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

digan zamonaviy texnik vositalar nafaqat ma'lumotga ega bo'lishni yengillashtiradi, uning individual yondashuvni yangicha talqin etish, ijobiy ma'nodagi "Men-konsepsiya-si"ni shakllantirish va farqlanishini o'rganish uchun imkoniyatlar eshigini ochib beradi, ta'lim oluvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash faolligini oshirish, mas'uliyatli, ijodkor va erkin shaxsni tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Demak, yosh avlodni rivojlantirishdagi ijtimoiy vaziyatni tubdan o'zgartiradi, tez o'zgaruvchan axborot jamiyatida o'z hayotini maqbul tarzda qo'rishga qodir, mas'uliyatli, ijodkor va erkin shaxsni tarbiyalash zarurligini belgilaydi. Ushbu ehtiyoj, ayniqsa, yorqinligi bilan global telekommunikatsiya tizimlari, internet va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jarayonida o'zini namoyon qila boshladi.

Bugungi kunda o'quvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini jadal tadbiq etish, darslarda multimedia vositalari, zamonaviy kompyuterlar va Internet tarmog'idan foydalanish, interfaol mashqlar, virtual topshiriqlarni yaratish, ta'lim sifatini baholash va nazorat qilishning raqamlashtirish tizimini yaratish va amaliyotda qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Internet axborot muhitida bilishga doir materiallarni anglash va tushunish bilan bog'liq vazifalarga yechim topish nafaqat ma'lum bir fanga doir tayyorgarlikka ega bo'lish, balki Internet brauzerlaridan foydalanish, axborotni izlash, blog-texnologiyalar, viki-texnologiyalar, sinxron-asinxron muloqotdan foydalanish uchun zarur bilim va ko'nikmalar, ya'ni AKT kompetentligining muayyan darajasini egallashni talab etadi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchining AKT-kompetentlik darajasi zamonaviy Internet-texnologiyalari vositasida universal o'quv faoliyatini rivojlantirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizning pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan raqamli texnologiyalarini yaratish va ularni tadbiq etishga intilmoqdalar.

O'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zarurligi quyidagilarda yaqqol ko'rinadi:

– jamiyatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi hamda aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida;

– o'qituvchi faoliyatiga faqatgina o'quv jarayonining tashkilotchisi emas, balki nufuzli bilimlar manbai sifatida qaralayotganligi;

– fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning jadal ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga yetkazish uchun vaqtning chegaralanganligi;

– kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

– yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilayotganligi.

Axborot texnologiyalar oqimi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqaldi va hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli o'zlashtirilmoqda. Ta'limni raqamlashtirishning asosini ta'lim jarayoni va uning samaradorligini oshirish hamda ta'lim oluvchilarning berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayo-

tgan o‘quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to‘liq boshqarish g‘oyasi tashkil etildi. Ta’lim texnologiyasining predmeti ta’lim tizimining konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarini qo‘yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o‘quv materiallarini tanlash va strukturalashtirishdan, ta’lim modulini tanlashdan ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha bo‘lgan tizimni loyihalashtirishdan tarkib topgan. Axborot texnologiya pedagogning o‘qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko‘rsatilgan tizimli ta’sir natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarning paydo bo‘lishini intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta’riflash mumkin. Ta’lim texnologiyasi ta’lim modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlash tizimidir. Ta’lim jarayoni ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ma’lum maqsadlar asosida belgilangan bilim va ko‘nikmalarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sirlashuv jarayonidir. Bu jarayonni bir tizim deb qaraydigan bo‘lsak, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchidan tashqari unga quyidagi tashkil etuvchi elementlarni ham kiritish mumkin: ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijalar, ta’lim mazmuni, ta’lim metodi, ta’lim shakli, ta’lim vositalari, monitoring va baholash. Ta’lim jarayonini tashkil etishda yuqorida sanab o‘tilgan elementlarning barchasi muhimdir.

Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo‘lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo‘yiladigan didaktik talablardan yana biri shuki, beriladigan o‘quv materiali tizimli ravishda osondan - qiyinga, oddiydan - murakkabga, o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. O‘qituvchining darsga bevosita tayyorlanishi har bir darsda qo‘llaniladigan mavzuni rejalashtirishda konkretlashtiradi.

Multimedia o‘quv jarayonida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda, natijada o‘qitishning an’anaviy usullaridan tashqari yangicha usullar ham mavjudligi namoyon bo‘ldi. An’anaviy passiv o‘qitish usullaridan iborat model aktiv-o‘qitish modeli bilan almashtirildi. Ba’zi hollarda o‘qituvchilar yo‘naltiruvchi vazifasini bajarishi kerak bo‘lmoqda. Bunday o‘qish va o‘rganish jarayoni asosini o‘qituvchi o‘rniga o‘quvchi tashkil qiladi. Elektron ta’lim jarayonining kuchli siyosati bo‘lib, o‘qituvchilar an’anaviy o‘qitish usullarini o‘rnini bosadi demay, balki -boyitilgan ko‘rinishi, deb atadilar.

Ta’lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko‘plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda ta’limni «raqamlashtirish» muammolari, uning shakllanishiga ta’siri bo‘yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so‘rovnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligi ham muhimdir. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta’sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma’ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Ta’limda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun quyidagilarni amalaga oshirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

– mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa, yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘ngi yutuqlarini o‘zlashtirishiga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratish;

– o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiya-

larini rivojlantirish, ijodkor o‘qituvchilarni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan, maktab tizimi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha maktablarida qo‘llash;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratib berish;

– interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma’ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun oliy ta’lim bilan hamkorlikda kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish;

– real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferensiya aloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish;

– bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta’lim modellarini qo‘llash uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta’lim sifatini tushirmagan holda o‘quvchilarga bugungi kun talab darajasida bilim olishlariga erishamiz. Biz ta’lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik. Qachonki, planshet ta’lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o‘qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi. Bu o‘yin bilan klassik ta’limni birlashtirishga tengdir. Natijada o‘qish jarayoni yaxshilanadi, o‘zlashtirish, ta’lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar – bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida’’gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni // Xalq so‘zi gazetasi, 2017-yil 9- fevral.

2. Maxmudova M.A., Nasirova Sh.N. Kompyuter dasturlari vositasida o‘quvchilarning bilim egallashga qiziqishlarini rivojlantirish “Mug‘allim hem uzluksiz bilimlendirio‘” Ilmiy-metodikalıq jurnal №5 2019 jıl. Nukus – 2019, – 25-27 b.

3. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от личностно ориентированной Smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1

4. Maxmudova M.A., Nasirova Sh.N. The importance of electronic education resources in the effectiveness of the lesson Electronic journal of actual problems of modern science, education and training December 2019-V ISSN 2181-9750, Urganch, 2019.–S.1-8.

5. Maxmudova M.A. Nasirova Sh.N., Abdullaeva D.A. Efficiency of computer technology in teaching foreign languages ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13, p 1443-1450.

Yu.I. MAVLONOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti,
“Texnologik ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi

TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilar dars jarayonida didaktik materiallar yaratish uchun raqamli texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Bugungi raqamlashib borilayotgan ta’lim tizimida bulutli texnologiyalar xizmatlaridan Google, LearningApps, Thing Link, Kizoa, Smore, Photo Peach kabi ilovalari asosidagi yangicha elektron ta’lim muhitini shakillantirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli, didaktik materiallar, interaktiv materiallar. ta’lim, axborot texnologiyalar, samaradorlik, texnologiya, tizim, interfaol, elektron ta’lim muhiti.

В данной статье освещается информация о возможностях использования цифровых технологий учителями будущего технологического образования для создания дидактического материала в процессе урока. Сегодняшняя оцифрованная система образования демонстрирует потенциал для формирования новой среды электронного обучения на основе таких приложений, как Google, LearningApps, ThingLink, kizoa, Smore, photo Peach, из сервисов облачных технологий.

Ключевые слова. Цифровые, дидактические материалы, интерактивные материалы. образование, информационные технологии, эффективность, технологии, системы, интерактивная среда электронного обучения.

This article covers information about the possibilities of future technological education teachers to use their digital technologies to create didactic materials in the course of the lesson. The education system that is being digitized today shows the possibilities of shaping new e-learning environments based on applications from cloud technology services such as Google, LearningApps, ThingLink, Kizoa, Smore, PhotoPeach.

Key words. Digital, didactic materials, interactive materials, education, information technology, efficiency, technology, system, interactive, e-learning environment.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’limga oid qaror va farmonlarda o‘z aksini topib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6106-sonli Farmonida O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan. Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, globallashuv jarayonlari rivojlanishi bilan oliy ta’lim oldiga jahon bozorining o‘zgargan sharoitida samarali ishlay oladigan professional kadrlar tayyorlash kabi yangi maqsadlar qo‘yilmoqda.

Zamonaviy oliy ta’lim bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi va ta’lim mazmuni va mohiyatida ma’lum o‘zgarishlarni talab qiladi. O‘zgarishlarni tezlatuvchi asosiy

omil – bu tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan axborot oqimidir. O'zlashtirilgan bilimlar hajmining ortib borishi o'qitish yuklamasining haddan tashqari ko'payishiga olib keladi. Bunday o'zgarish tezligida bilim shunchalik tez yangilanadiki, talabalar institutni tugatguniga qadar olgan bilimlari eskirishga ulguradi. Ko'pgina mutaxassislarning fikricha, dunyoda yuz berayotgan jarayonlar bilan bog'liq holda, axborot texnologiyalarining zamonaviy rivojlanish darajasini inobatga olgan holda, oliy ma'lumotni tubdan o'zgartirish zarur.

Bugungi kunda internet jamiyatning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Jahon globallashuvi sharoitida axborot texnologiyalarining rivojlanishi internetdan foydalanishning yangi usullarini shakllantirishga olib keladi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, ta'lim maqsadi har bir ta'lim oluvchining shaxsiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'lsa, asosiy xususiyatlari interaktivlik va ijtimoiylashuviga asos bo'layotgan raqamli texnologiyalari ta'lim sifatini oshirish jarayonni optimallashtirishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalari ta'lim jarayonini interfaol, multimedia mahsulotlarini yaratish; kompyuter vositalaridan foydalanish, talabalarning birgalikdagi ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish uchun masofaviy ta'lim platformasining funksional imkoniyatlarini almashtirib bo'lmaydigan tarkibni yaratishga yordam beradi. Hozirgi kunda turli xil raqamli texnologiyalarning xizmatlari mavjud va qyidagi samarali va bepul xizmatlarga ega:

Google (www.google.com) ilovalari internet texnologiyasi asosidagi yangicha elektron ta'limni shakillantirishni taklif etmoqda. Microsoft kompaniyasining Word, Excel, Power Point, kabi mashxur dasturiy vositalariga bugungi kunda Google kompaniyasinng Google Apps(Disk), Google Hujjatlar, Google elektron table, Google Taqdimot kabi ilovalari raqabatdoshlik qilib, ularning ommabopligi o'sib bormoqda. Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalarini qo'llashdan maqsad yanada egiluvchan infrostrukturadan foydalanuvchilarni qo'llashlarini ta'minlash, yanada qo'llashga qulay bo'lgan servislardan, elektron resurslardan foydalanishni amalga oshirishni maqsad qilib oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

LearningApps (www.LearningApps.com) Ta'lim jarayonida ishlatilishi mumkin bo'lgan har qanday xizmat va vositalar mavjud, masalan: multimediali interaktiv mashqlarini yaratish uchun LearningApps xizmati, Google platformalarida amaliy interaktiv vazifalar va ijodiy ishlarni bajarish mumkin. LearningApps yordamida multimedia ilovalarini yaratish va ishlatish imkonini beradi. Bu multimedia ilovada mashqlarni bajarish natijasida talabalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmasi rivojlanadi. Yuqoridagi kabi elektron ta'lim resurslaridan, innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida olib borilgan darslarda talabalarning fan bo'yicha mustaqil izlanishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortganligini ko'rish mumkin. O'rganilgan materiallarning mujassamlashuvi muayyan materialni o'zlashtirish haqidagi ma'lumotlarning ishonchliligini oshiradi va boshqarish jarayonining imkoniyatlarini kengaytiradi.

ThingLink (www.thinglink.com) – bu interfaol fotosuratlar yaratish bo'yicha eng ommabop onlayn platformadir. Dars jarayonida qo'llash orqali siz katta mavzuni bitta fotosurat bilan ko'plab tafsilotlarni berish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Interfaol fotosuratlar ma'lum bir statistik ma'lumotlarga biriktirish effektini beradi. Yangi ma'lumotlarni vizual ko'rish, ta'lim tizimini turli usullarda o'qitish va o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha barcha g'oyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Quizlet (www.quizlet.com) – interaktiv didaktik kartalar yaratish mumkin. Quizlet - o‘zingizning fleshkartalaringizni yaratish yoki boshqa talabalar tomonidan yaratilgan millionlab kartalardan tanlab foydalanishingiz mumkin. Quizletda Flashcard ilovasi bilan siz: o‘quv rejimida imtihon va testlarga tayyorgarlik ko‘rish, kartalar yordamida o‘rganish, yozish rejimida xotirangizni sinab ko‘rish, do‘stlaringiz, kursdoshlaringiz bilan kartalarni baham ko‘rish, ingliz va boshqa xorijiy tillarni o‘rganish, 18 tildagi matnlarning to‘g‘ri talaffuzini tinglash, matematika, tarix, dasturlash tillari va boshqa fanlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

Kizoa (www.kizoa.com) – slayd-shou yaratish mumkin. Video ko‘rinishida istalgan mavzuda slayd-shou yaratish imkonini beradi. Ushbu xizmat ko‘plab funktsiyalar va vositalarni taklif etadi: grafik animatsiya, musiqa, matn, fotosuratlar, rasmlar, obyektlar va boshqalarni qo‘shish. Yangi material bilan tanishish bosqichida talabalarni ma’lum bir mavzu bo‘yicha video tomosha qilishni va topshiriqlarni bajarishni taklif qilishingiz mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, agar siz nafaqat rasmlar, balki bir nechta videolarni ham o‘z ichiga olgan slayd-shou yaratish imkoniyatiga ega bo‘lasiz.

Smore (www.smore.com) – matnlar, audio va video fayllar, fotosuratlar va illyustratsiyalar, tashqi resurslarda yaratilgan interaktiv topshiriqlarga havolalar va giperhavolalarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan multimedia varaqalari, plakatlar yaratish uchun mo‘ljallangan. Ushbu platformadan axborot plakatlar, tadbirlar uchun taklifnomalar, multimedia e’lonlar, o‘quv tadbiri bo‘yicha ijodiy hisobotlar, loyihaning tashrif qog‘ozlarini yaratish, loyiha yoki tadqiqot faoliyati natijalarini taqdim etish uchun foydalanish mumkin. Pedagogik amaliyotda ushbu xizmatdan interfaol ish varaqlari, vizual ko‘rsatmalar – o‘quvchilar harakatlarining algoritmlari, turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha mavzularni o‘rganishda ma’lumotnomalar yaratishda ham samarali foydalansa bo‘ladi.

PhotoPeach (www.photopeach.com) – viktorinalar yaratish mumkin. Ushbu xizmat sizga video ko‘rinishida viktorinalar yaratish imkonini beradi: siz topshiriqlar uchun bir nechta variantni (savol yoki bir nechta javobli savol) joylashtirishingiz mumkin bo‘lgan rasm tanlanadi, shuningdek, musiqa, javob vaqtini qo‘shishingiz mumkin.

Umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalar xizmatlaridan foydalanish o‘qituvchiga zamonaviy elektron ta’lim vositalaridan foydalangan holda darsda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasi rivojlanadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida olib borilgan darslarda talabalarning o‘zlashtiriladigan fan bo‘yicha mustaqil izlanishga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortganligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6106-sonli Farmoni. T., 2020.

2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Nihol nashriyoti, 2016. – 279 b.

3. Ажель Ю.П. Использование технологий ВЕБ 2.0 в преподавании иностранных языков / Ю.П. Ажель // Молодой ученый. - 2012. - № 6. – С. 369-371.

4. Maxmudova M.A. Effectiveness of opportunities in the use of electronic resources in education ACADEMICIA:An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 10 Issue 5, May 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13 1081-1085 page no., DOI number 10.5958/2249-7137.2020.00463.2

Zaxro SAIDOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

MASOFAVIY TA’LIM SHAROITIDA RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada masofaviy ta’lim muhitida o‘qitish va ta’limni avtomatlashtirish, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi usul va materiallarni loyihalash hamda qo‘llash yo‘li bilan ta’lim jarayonini optimallashtirish tamoyillari, shuningdek, masofaviy o‘qitishdagi axborot texnologiyalarining asosiy elementlaridan foydalanish masalalari o‘rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, masofaviy ta’lim, onlayn ta’lim, interaktiv ta’lim, axborot texnologiyalari, texnik vositalar, axborot uzatish vositalari.

В данной статье рассмотрены и проанализированы принципы автоматизации обучения и обучения в среде дистанционного обучения, оптимизации образовательного процесса путем проектирования и применения методов и материалов, служащих повышению эффективности обучения, а также вопросы использования основных элементов информационных технологий в дистанционном обучении.

Ключевые слова. Образование, дистанционное обучение, онлайн-обучение, интерактивное обучение, информационные технологии, технические средства, средства передачи информации.

This article explores and analyzes the principles of optimizing the educational process through the automation of teaching and learning in the distance learning environment, the design and application of methods and materials that serve to improve the effectiveness of education, as well as the use of basic elements of Information Technology in distance learning.

Key words. Education, distance education, online education, interactive education, information technology, technical means, means of information transmission.

Respublikamizda ta’lim jarayonini xalqaro miqyosda o‘qitish maqsadida AQSh, Buyuk Britaniya, Koreya, Xitoy, Rossiya va boshqa davlatlarning o‘qitish tizimidan foydalanish va ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli Qarorida “Oliy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan”ligi keltirilgan[1].

Masofaviy ta’lim va unda ishlash bo‘yicha respublikamiz olimlaridan A. Abduqodirov, M. Aripov, U. Begimqulov, D.N. Mamatov, M. Mamarajabov, B.M. Suropov, M. Fayzieva, I.X. Ro‘zimurodov, S.S. Beknazarova, Sh.B. Bekchanova boshqalar, MDH olimlari A.L. Abramovskiy, A.A. Andreev, V.I. Slobodchikov, Ye.B. Mambekov, T.G. Vezirov, O.A. Ilchenko, A.V. Lyamin, xorijlik olimlar B. Aguti, J.A. Snart, E. Simon, A.M. Patxon va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Bugungi kunda masofaviy ta’lim muhitida o‘qitish ta’limni avtomatlashtirish, ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi usul va materiallarni loyihalash va qo‘llash yo‘li bilan ta’lim jarayonini optimallashtirish tamoyillari asosida takomillashtirishdan iborat.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarori. URL: https://lex.uz/docs/5085887

A. Artyuxov tomonidan **“**Masofaviy o‘qitish (DL) – bu o‘quv jarayonida talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilmasdan, talab qilinadigan ma’lumotlarning asosiy qismini o‘zlashtirish imkoniyatini berishga qaratilgan telekommunikatsiya texnologiyalari majmuasidan foydalaniladigan o‘quv jarayoni va asenkron shakl), bu ham mustaqil mashg‘ulot shakli, ham boshqa an’anaviy o‘qitish shakliga qo‘shimcha bo‘lishi mumkin (kunduzgi, sirtqi, sirtqi yoki sirtqi o‘qishlar), agar kerak bo‘lsa, odamga odatiy turmush tarzini o‘zgartirib yubormasdan, kerakli fanlar bo‘yicha o‘qitish, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursini o‘qish imkoniyati” ekanligi ta’kidlanadi[2].

E.A. Kolganov tomonidan “Masofaviy ta’lim – keng ko‘lamli an’anaviy, yangi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanishga asoslangan ta’limning universal gumanistik shakli bo‘lib, talaba standartlarga javob beradigan ta’lim fanlarini erkin tanlash, o‘qituvchi bilan muloqot qilish, shu bilan birga o‘qituvchi bilan muloqot qilish uchun sharoit yaratadi. o‘quv jarayoni talabaning makon va vaqtdagi joylashuviga bog‘liq emas”, deb ta’rif beradi[3].

Masofadan o‘qitish – mustaqil ta’lim shakli, masofaviy o‘qitishdagi axborot texnologiyalari yetakchi vosita[4].

Zamonaviy masofaviy o‘qitish quyidagi asosiy elementlardan foydalanishga asoslangan:

• axborot uzatish vositalari (pochta, televidenie, radio, axborot kommunikatsiya tarmoqlari),

• axborot almashishning texnik muhitiga bog‘liq usullar.

XXI asrda talabalar bilan axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali o‘zaro muloqot qilish istiqbolli bo‘lib, undan Internet foydalanuvchilari muhiti juda ajralib turadi. 2003-yilda ADL tashabbuskor guruhi Internet texnologiyalaridan keng foydalanishni o‘z ichiga olgan SCORM masofaviy interaktiv ta’lim standartini ishlab chiqa boshladi. Standartlarning joriy etilishi masofaviy o‘qitish tarkibiga qo‘yiladigan talablarning ham, dasturiy ta’minotga qo‘yiladigan talablarning ham chuqurlashishiga yordam beradi.

A. Artyuxov masofadan o‘qitishda quyidagilarga alohida ajratib ko‘rsatadi:

• masofaviy o‘qitish narxi an’anaviy ta’limga qaraganda ancha past, chunki sinflar uchun binolarni ijaraga olish uchun ijara haqi bo‘lmasligi mumkin, darslarni o‘zlari tashkil etish xarajatlari kamayadi, har bir o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida biroz ko‘proq o‘qish imkoniyatiga ega. O‘quvchilar va ta’limning umumiy xarajatlariga bevosita yoki bilvosita ta’sir etuvchi boshqa omillar:

• mashg‘ulot vaqtini qisqartirish (yig‘ish, sayohat vaqti);

• masofaviy o‘qitish individual bo‘lishi mumkin, shuning uchun o‘quv jarayonini yanada samarali sozlash imkoniyatini beradi, bu esa o‘quvchiga o‘zi uchun qulay vaqt va tezlikni tanlash imkoniyatini beradi;

• zamonaviy asbob – uskunalar, katta hajmli elektron kutubxonalar va boshqalarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish.

• yagona ta’lim muhitini yaratish (ayniqsa korporativ o‘qitish uchun muhim);

• bu o‘quv formasi nogironlar uchun juda qulay;

---

[2] А. Артюхов. Некоторые аспекты теории и практики организatsii «дистанционного обучения» при изучении географии в основной школе // Международный научно-исследовательский журнал. — 2021. — Т. Выпуск 5. — С. 51.

[3] Колганов Е.А. Дистанционное образование в системе высшего профессионалного образования региона: социологический аспект. тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 22.00.04, кандидат социологических наук. Уфа. 2010. – С.190 .

[4] Полат Е. С. Педагогические технологии дистанционного обучения / Е. С. Полат, М. В. Моисеева, А.Е. Петров; под ред. Е. С. Полат. — М.: Академия, 2006.

• bir kishi bir vaqtning o‘zida bir nechta ta’lim tashkilotida va / yoki bir necha yo‘nalishda qisqa vaqt ichida o‘qishi mumkin;

• o‘z malakasi darajasini doimiy ravishda yaxshilash imkoniyati mavjud;

• o‘quv materialida tasvir, matn, ovoz va videodan faol foydalanish yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish sifatini sezilarli darajada oshiradi;

• muhim omil mamlakatlar hududida yagona ta’lim makonini rivojlantirishda yordam amalga oshirish mumkin[5].

18 -asrning oxirida Evropada pochta aloqasi muntazam va qulay bo‘lishi bilan “muMasofaviy ta’lim kabi uyda o‘zini-intizom va nazorat qilish murakkabligi kabi omillar bilan xalaqit bo‘ladi [1] va ishonchsiz aloqa [1] [16] , o‘qituvchi va talabalar uchun ixtisoslashtirilgan saytlarga dasturlari va obunalarni nisbatan yuqori baho , shuningdek, dasturiy ta’minotni ishlab chiqish uchun yuqori malakali IT-mutaxassislarni yollashning yetishmasligi yoki yuqori xarajati.

2019-2020-o‘quv yilining to‘rtinchi choragida yangi formatdagi ta’limga to‘satdan majburiy o‘tish. qator qo‘shimcha qiyinchiliklarni ochib berdi. Ular orasida quyidagilar bor:

1. Maktab yoshidagi bolalari bo‘lgan oilalarni kompyuter va boshqa uskunalar bilan ta’minlash darajasining yetarli emasligi;

2. Ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash uchun platformalar yaratishga qaratilgan saytlar ma’lumotlarini tekshirish darajasining yetarli emasligi;

3. Alohida saytlarda darslarning ba’zi parallellari uchun topshiriqlarning yo‘qligi [18];

4. Katta yoshli o‘qituvchilar uchun zamonaviy kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirishda qo‘shimcha qiyinchiliklarning paydo bo‘lishi;

5. Talabalar bilimini baholashning xolisligini kamaytirish. Bilimlarni masofadan turib baholash amalga oshirildi va ko‘pincha o‘qituvchi talabaning u yoki bu vazifani bajarishi mustaqilligini aniqlash imkoniyati bo‘lmasligi mumkin edi;

6. Talabalar motivatsiyasining pasayishi. Kunduzgi o‘qish sharoitida nisbatan yuqori natijalarni ko‘rsatgan bolalar, o‘zgargan sharoitda, o‘qish qobiliyatini keskin pasaytirishi mumkin;

7. O‘qituvchilar uchun masofali o‘qish jarayonini ta’minlash uchun platformalar yaratishga qaratilgan bir qator saytlarda pulli obuna bor edi;

8. O‘qituvchilar masofadan o‘qishning asenkron shaklidagi topshiriqlarni bajarishni taklif qilgan ta’lim saytlarida foydalanuvchilar oqimining keskin ko‘payishi tufayli, bunday saytlar qizg’in vaqtlarda ishlashini to‘xtatishi mumkin edi, chunki serverlar yuk ko‘tarilishiga bardosh bera olishmadi.

“Masofaviy” ga keskin o‘tish – bu majburiy va shoshilinch choradir, hamma oliy o‘quv yurtlari ham axborot infratuzilmasini rivojlantirishning turli darajalariga, fanlarni elektron ta’lim manbalari bilan ta’minlanishiga va o‘qituvchilarning tayyorligiga asoslangan o‘quv jarayonini tubdan qayta qurishga tayyor emas edi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, onlayn kursni ishlab chiqish uchun o‘rtacha 6-9 oy vaqt ketadi va o‘qituvchining onlayn platformadagi malakasi kursning dastlabki ikkita ishga tushirilishida shakllanadi.

Agar raqamli kompetensiyalar bo‘yicha eng ilg‘or o‘qituvchi darslarni onlayn muhitga o‘tkazish uchun hamma narsani qilsa ham, yuqori natijalarni kutmang: ular bir nechta onlayn ma’ruzalarni yozadilar, matnli materiallarni joylashtiradilar va testlarni

[5] А. Артюхов. Некоторые аспекты теории и практики организации «дистанционного обучения» при изучении географии в основной школе // Международный научно-исследовательский журнал. — 2021. — Т., Выпуск 5. — С. 51.

platformaga yuklaydilar – mo‘jiza bo‘lmaydi.

Shunday qilib, biz “onlayn ta’lim” tushunchasi bilan nimani nazarda tutayotganimizni va hozirda minimal sarmoya va resurslar bilan qisqa vaqt ichida amalga oshirmoqchi bo‘lganimizni farqlashimiz kerak. Ikkinchisi, o‘ta og’ir sharoitlarda masofaviy o‘qitish, deb nomlanadi.

Yangi ta’lim texnologiyasi yoki o‘qitish modelining samaradorligini baholaganda, ushbu texnologiyadan foydalangan holda o‘quvchilarning ta’lim natijalarini an’anaviy yuzma-yuz o‘qitish modeli bilan solishtirish jozibali bo‘ladi. Biroq, bunday taqqoslash tahlili, qoida tariqasida, statistik jihatdan muhim xulosalar bermaydi, chunki:

• qattiq eksperimental dizayn;

• mazmuni bir xil va shakli har xil bo‘lgan tarkib;

• bir xil nazorat – o‘lchash materiallari va yakuniy sertifikatlash shartlari;

• har bir o‘quv modeli (texnologiyasi) uchun tasodifiy ishlab chiqarilgan yetarlicha katta namuna;

• eksperiment natijalariga tashqi omillarning ta’sirini istisno qilish, bu tajribaning haqiqiyligini pasaytiradi.

Bundan tashqari, ushbu tahlil samaradorlikni talabalarning yutug’i sifatida belgilaydi va muvaffaqiyatning boshqa omillarini hisobga olmaydi.

Shu bilan birga, muvaffaqiyat mutlaq kategoriya emas va uni o‘quv jarayonida turli ishtirokchilarning manfaatlaridan kelib chiqib o‘lchash mumkin.

O‘qituvchilar uchun bu, albatta, o‘quvchilarning ta’lim natijalari, talabalar uchun esa, akademik ko‘rsatkichlardan tashqari, motivatsiya va o‘quv jarayoniga jalb qilish muhim rol o‘ynaydi, bu esa o‘quvchilarning yutuqlariga bevosita ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarori. URL: https://lex.uz/docs/5085887

2. Артюхов А. Некоторые аспекты теории и практики организации “дистанционного обучения” при изучении географии в основной школе // Международный научно-исследовательский журнал. — 2021. — Т., Выпуск 5. — С. 51.

3. Колганов Е.А. Дистанционное образование в системе высшего профессионалного образования региона: социологический аспект. тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 22.00.04, кандидат социологических наук. Уфа. 2010. – С. 190.

4. Е.С. Полат. Теория и практика дистанционного обучения: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учебн. заведений / Е.С. Полат, М.Ю. Бухаркина, М.В. Моисеева; Под ред. Е.С. Полат // М.: Издательский центр «Академия», 2004. — С. 416.

5. Полат Е.С. Педагогические технологии дистанционного обучения / Е. С. Полат, М.В. Моисеева, А.Е. Петров; под ред. Е.С. Полат. — М.: Академия, 2006

A.X. MAXMUDOV,
T.N. Qori Niyozi nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, “Aniq fanlar va raqamli ta’lim texnologiyalari” bo‘lim mudiri, p.f.d.

MAKTAB TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINING METODOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Maqolada maktab ta’lim jarayoning transformatsiyasiga sabab bo‘luvchi omillar, didaktik tamoyilar va raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalashuv xususiyati ochib berilgan. Raqamli didaktik tamoyilari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Maktab, ta’limning raqamli transformatsiyasi, raqamli ta’lim, raqamli texnologiya, didaktik tamoyilar, ta’lim jarayoni.

В статье раскрываются факторы, порождающие цифровую трансформацию образовательного процесса, дидактические принципы цифрового образования и особенности интеграции в учебный процесс. Рассмотрены принципы цифровой дидактики.

Ключевые слова. Цифровая трансформация, цифровое образование, цифровые технологии, дидактические принципы, дидактические принципы, учебный процесс.

The article reveals the factors that cause the transformation of the school educational process, didactic principles and the nature of the integration of digital technologies into the educational process. Digital didactic principles have been considered.

Key words. School, digital transformation of education, digital education, digital technology, didactic principles, educational process.

Raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelishi mavjud ta’lim paradigmasini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu xolat, ayniqsa, maktab ta’lim tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda va istiqbolda raqamli maktabga o‘tishni ta’qozo etmoqda.

Ko‘p hollarda raqamli maktab ta’lim jarayonini kompyuter texnologiyalari bilan jihozlash va o‘quv kontent(ta’lim mazmuni)ni elektron shakllarga o‘tkazish bilan chegaralanadi. Aslida, raqamli maktab deganda, barcha jarayon raqamlashtirilgan, ta’lim maqsadiga erishishga yo‘naltirilgan yagona avtomatlashtirilgan tizim tushunilishi kerak. Bu tizim bir nechta qo‘yi tizimlardan iborat bo‘lib har bir tizimning natijalari boshqa tizimga ta’sir qilishi bilan muhimdir.

Raqamli maktabning yana bir muhim jihati, bu avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini borligi, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayoni markazlashtirilgan tizim orqali boshqariladi. Boshqaruv tizimi qo‘yidagi prinsiplarga asosan ishlaydi: ochiqlik, uzluksizlik, tizimlilik, shaffoflik, texnologik.

Raqamli maktab – axborot-kommunikativ texnologiyalari bilan to‘liq jihozlangan ta’lim muasasasi bo‘lib, unda ta’lim jarayoni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi orqali yagona ta’lim natijaga yo‘naltirilgan.


Raqamli maktabga o‘tish mavjud ta’limning raqamli transformatsiyasi natijasidir. Raqamli maktabga o‘tishdan maqsad har bir o‘quvchi Davlat ta’lim standartlarida belgilangan tayyorgarlik darajasiga erishishini ta’minlashdan iborat.



1-rasm. Raqamli maktab boshqaruv tizimi

Raqamli maktab ta’lim muammolarini hal qilishda raqamli texnologiyalardan eng samarali foydalanish hisoblanadi. Raqamli transformatsiya o‘qitish amaliyotining o‘zgarishiga olib keladi. Raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalashuv xususiyatiga ko‘ra, SAMR (The Substitution-Augmentation-Modification-Redefinition Model) modeliga muvofiq bunday o‘zgarishlar to‘rt bosqichda amalga oshiriladi (2-rasm):

– an’anaviy pedagogik vositalarni almashtirish;
– an’anaviy pedagogik vositalarni takomillashtirish;
– o‘qitish amaliyotidagi o‘zgarishlar;
– o‘qitish amaliyotini qayta shakllantirish(yangilash).




2-rasm. Raqamli texnologiyalarni joriy etish bosqichlari

SAMR modelining birinchi va ikkinchi bosqichlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq o‘qitish amaliyotidagi o‘zgarishlar ta’lim ishlarining asosiy modella-

rini o‘zgartirmaydi va ta’lim natijalariga erishishda sifat o‘zgarishlariga olib kelmaydi. Raqamli maktab – bu ta’lim natijalariga erishishda sifat o‘zgarishlariga olib keladigan SAMRning 4-bosqichidagi pedagogik amaliyotning tizimli o‘zgarishi natijasidir.

Raqamli transformatsiya – ta’lim jarayonining asosiy komponentlarini tizimli yangilash, jumladan: tarbiyaviy ish natijalari, ta’lim mazmuni, o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’lim natijalarini baholash(3-rasm).



3-rasm. Raqamli transformatsiya raqamli ta’lim muhitida ta’lim jarayoni komponentlarini tizimli va sinergetik yangilash sifatida

Raqamli maktabga o‘tish raqamli muhitda amalga oshiriladi, bu orqali o‘quv jarayoni raqamli o‘quv materiallari, vositalari va xizmatlari bilan ta’minlanadi. Bunda muhim bo‘lgan bosqichi bu raqamli didaktikani yaratish.

Raqamli didaktika an’anaviy didaktikaning asosiy tushunchalari va tamoyillarini raqamli muhit sharoitlariga nisbatan o‘rganish, to‘ldirish va o‘zgartirish haqidagi fan sifatida ketma-ket qo‘llaniladi. Raqamli didaktikani ilmiy bilimlarning transfer-integrativ sohasi sifatida qarashimiz mumkin. Ilmiy bilimlarning transfer-integratsion sohasi ma’lum ilmiy g‘oyalar va yondashuvlarni bir sohadan ikkinchisiga o‘zaro o‘tkazish va ularning integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi. Bunda bir tomondan, pedagogika; ikkinchi tomondan, kompyuter fanlari va raqamli texnologiyalarni o‘rganadigan boshqa fanlar kiradi. Raqamli didaktika turli ixtisoslashtirilgan yo‘nalishlar, fanlar va modulli kurslarda o‘qitish usullari va o‘rganish strategiyalarini yaratish uchun asosdir.

Raqamli didaktika rivojlanishining omillari quyidagilar o‘rtasidagi ziddiyatlardir:

– ta’limning ommaviylashuvi va sifat talablarining oshishi sharoitida ta’lim qiymatining doimiy o‘sishi;

– ta’lim mijozlarining to‘lov qobiliyati pasayishi;

– kelajakning noaniqlik darajasini oshishi, talaba hayoti va kasbiy o‘rnini o‘zi belgilashini pedagogik qo‘llab-quvvatlash jarayonida amalga oshiriladigan noaniqlik darajasini kamaytirishning ta’lim funksiyasi;

– raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyot tomonidan qo‘yilgan kasb-hunar ta’limi tizimi bitiruvchisining ijtimoiylashuvi va kasbiylashuviga qo‘yiladigan talablar – raqamli

avlodning tipik vakillarini virtual (tarmoq, o‘yin) dunyosiga qulflash tendensiyasi;

– kasb-hunar ta’limi tizimi bitiruvchisiga qo‘yiladigan iqtisodiyot talablaridagi o‘zgarishlarning tez va doimiy ravishda o‘sib borishi – ta’lim jarayonini ushbu talablarga moslashtirishning sekinlashishi.

Raqamli ta’lim jarayoni quyidagi asosiy didaktik tamoyilariga tayanish kerak: boshqaruv tamoyili; shaxsiylashtirish tamoyili; maqsadlilik tamoyili; moslashuvchanlik tamoyili; o‘rganishdagi muvaffaqiyat tamoyili, hamkorlik va o‘zaro hamkorlikka o‘rganish tamoyilari.

Keltirilgan tamoyilarni qisqacha mazmuni va mohiyatini ko‘rib chiqamiz.

Ustunlik tamoyili raqamli ta’lim muhitida talabaning mustaqil ta’lim faoliyatiga urg‘u berilganligini bildiradi. O‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil qilishi, o‘quv jarayonida o‘quvchini qo‘llab-quvvatlashi va yordam berishi kerak.

Shaxsiylashtirish tamoyili. Ushbu tamoyil o‘quvchining ta’lim maqsadini mustaqil ravishda belgilash, ta’lim jarayoni strategiyasini, ta’lim dasturining rivojlanish sur'ati va darajasini tanlash qobiliyatini nazarda tutadi. Bu esa o‘qituvchiga shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari va o‘quvchilarning ta’lim natijalarini kuzatish imkonini beradi.

Maqsadga muvofiqlik tamoyili talabalarning ta’lim jarayonida qo‘yilgan maqsadlarga maksimal darajada erishishni ta’minlaydigan raqamli texnologiyalardan foydalanish talab etilishini bildiradi.

Moslashuvchanlik tamoyili raqamli ta’lim jarayonining shartlariga qarab individual yondashuvni ishlab chiqish imkonini beradi. Raqamli o‘quv jarayoni o‘quv materialini taqdim etish tartibi, usuli va sur'ati kabi jihatlarni hisobga olgan holda har bir talaba uchun dasturni avtomatik ravishda sozlash imkonini beradi. Bu tamoyil o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash darajasi va xususiyatini ham hisobga oladi.

Ta’limda muvaffaqiyat tamoyili raqamli ta’lim jarayonida “tushuntirish – mustahkamlash – nazorat” didaktik zanjirining yakuniy elementi hisoblanadi. Materialni mustahkamlash uchun qo‘shimcha o‘quv soatlari ajratiladi, o‘qituvchilar va talabalarning yuzma-yuz uchrashuvi tez-tez tashkil etiladi. O‘qituvchi mustahkamlashning guruh va individual shakllarining optimal nisbatini diqqat bilan kuzatib boradi. Raqamli vositalar bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi va uni kamroq muntazam qiladi.

Hamkorlik va o‘zaro hamkorlikda o‘rganish tamoyili o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faollikni ko‘p tomonlama - real va tarmoqli aloqa asosida ta’lim jarayonini qurishni talab qiladi. Ushbu tamoyil tarmoqni o‘rganishda guruh shakllaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Ta’limni hayot bilan bog‘lashning an’anaviy didaktik tamoyili bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan amaliyotga yo‘naltirilganlik tamoyili maqsad va aniq natijalarni aniq belgilashni talab qiladi.

Mavjudlik, tizimlilik va izchillik didaktik tamoyili bilan bog‘liq bo‘lgan murakkablikni oshirish tamoyili izchil o‘tishni nazarda tutadi: oddiydan murakkabga va murakkabdan oddiyga; umumiydan xususiyga va xususiydan umumiyga; individualdan guruhga va guruhdan individual va boshqa ta’lim jarayonlari.

Ta’lim muhitining to‘yinganligi tamoyili individual ta’lim strategiyasini qurish uchun ortiqcha axborot resurslarini talab qiladi. Bunday ortiqchalik tarmoq ta’lim resursi - yagona axborot ta’lim muhiti yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Polimodallik (multimedia) tamoyili ko‘rishning batafsilroq didaktik tamoyili bo‘lib, o‘quv jarayonida idrok etishning vizual, eshitish va harakatlantiruvchi (kinestetik) usullarini o‘z ichiga oladi. Buning uchun sensorlar, simulyatorlar, shuningdek, to‘ldirilgan

reallik vositalari kabi turli xil qurilmalar qo‘llaniladi.

Hamkorlik asosida baholash tamoyili butun o‘quv jarayoni davomida o‘quvchilarning muvaffaqiyatini doimiy ravishda baholashni taqozo etadi. Raqamli texnologiyalar tezkor qayta aloqani ta’minlaydi, o‘qituvchiga topshiriq natijalari bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni doimiy ravishda uzatadi. Buning yordamida o‘qituvchi o‘quvchining kuchli va zaif tomonlari to‘g‘risida xulosa chiqaradi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar muayyan vazifaning bajarilishini yakuniy baholashning xolisligi va shaffofligini ta’minlaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotini tubdan o‘zgartirib borayotgan raqamli texnologiyalar maktab ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu esa o‘z o‘rnida maktab ta’lim mazmuni, maqsadi, vazifalari va o‘qitish vositalarini yangillashni ta’qozo etadi. Raqamli texnologiyalarning afzalliklarini ta’lim jarayonining ishtirokchilari anglay boshladilar va o‘z pedagogik faoliyatini takomillashtirishga kirishdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шумская, О.А. Цифровая трансформация в образовании: вызовы современного общества / О.А. Шумская, И.Г. Придворева, Е.Г. Татарникова. // Молодой ученый. — 2021. — № 7 (349). — С. 76-77. — URL: https://moluch.ru/archive/349/78631/

2. Маниковская М.А. Цифровизация образования: вызовы традиционным нормам и принципам морали // Власть и управление на Востоке России. 2019. № 2 (87). С. 100-106. DPI 10.22394/1818-4049-2019-87-2-100-106_

3. https:// iite.unesco.org/ru/publications/

4. Maxmudov A.X., Anarbayeva F.U. Raqamli ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – S. 476.

5. A.X. Maxmudov, Z.B. Abduraxmonov, Ta’limda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanishning yutuqlari va muammolari // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference3. S. 97-99.URL: https://cyberleninka.ru/article/n/talimda-zamonaviy-ra-qamli-tehnologiyalaridan-foydalanishning-yutu-lari-va-muammolari

6. Maxmudov A.X. Zamonaviy ta’limni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni //Academic research in educational sciences. – 2021. – T.: 2. – №. NUU Conference 1. – 235-237 b.

7. Махмудов А.Х., Фефелов В.С., Камилова А.Б. Инновационные пути педагогического прорыва //Современное образование (Узбекистан). – 2019. – №. 6 (79). – С. 3-9.

D. POLVANOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, “Pedagogika va psixologiyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

TALABALARNING MUHIM IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida talabalik davrining o‘rni ochib berilgan. Talabalarning muhim ijtimoiy psixologik xususiyatlari tavsiflangan. Ta’lim jarayonida talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning o‘quv motivlarini takomillashtirishga doir chora tadbirlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiylashuv jarayoni, talabalar guruhi, ijtimoiy tajriba, ijtimoiy motivlar, o‘quv faoliyati motivlari, ijobiy (musbat, pozitiv) va salbiy (manfiy,negativ) motivasiya, pedagogik ta’sir, yordamchi faktorlar, muvaffaqiyatli ta’lim.

Статья посящина к нетрадиционной подхода к обучению студентов в независимых и творческого мышления, улучшыть их мотивацию и отражение в мерах по преодолению проблем, возникающих в процессе образования.

Ключевые слова. Мотив, мотивы учебной деятельности, позитивные и негатевные мотиве, мотивация, социальные мотивы, педагогический помогательные факторы, успешное образование.

In this article through a non-traditional approach to teaching students in department and creative thinking skills, improve their academic motivation and reflected in measures to overcome the problems encountered in the process of education. Problem solution of the search process.

Key words. Motive, educational activity motives, positive and negative motivates, social motives, pedagogical influences, factors, successful education.

Talabalik davri shaxsda ijtimoiy hamda kasbiy o‘zligini anglash sifatining shakllanishi bilan boshqa rivojlanish davrlaridan farqlanadi. Ushbu davrda yigit va qizlar o‘ziga xos ruhiy inqiroz va tanglik holatini ham boshidan kechiradi. Jumladan, talaba katta yoshdagi yetuk kishilarning har xil ko‘rinishdagi rollarini tezroq o‘zida sinab ko‘rishga intiladi. Ijtimoiy hayot va mikro muhitdagi yangi holatlar va jihatlarga moslasha boshlaydi. Voyaga yetgan odamlarning turmush tarziga o‘tish jarayoni shaxsning rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ichki ziddiyat va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda bir tomondan o‘spirin talaba mustaqil mehnat faoliyatida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritib, katta yoshdagi odamga o‘xshab, ijtimoiy statusga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa unda turmush tajribasi yetishmasligi tufayli bir qator fazilat va malakalarni egallash muammosi ko‘ndalang turadi. O‘spirin ruhiyatini atroflicha tahlil qilishning ko‘rsatishicha, bu davrga kelib, unda aqliy, axloqiy, g‘oyaviy – siyosiy jihatdan muayyan bosqichga ko‘tarilish, ya’ni yetuklik ko‘zga tashlanadi. Shunga qaramasdan, talabaning oldida mutaxassislikni egallash bilan uzviy bog‘liq bir qancha vazifalar turadi. Shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, internet tizimi, internet jurnalistikasi, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bir tomondan axborotlar, ma’lumotlar, xabarlarning tezkorligi va mo‘l-ko‘lligini vujudga keltirgan bo‘lsa, boshqa bir tomondan esa mutaxassislikka oid bilimlarga nisbatan talabalarda barqaror qiziqish yo‘qolishiga olib kelmoqda. Chunki aksariyat bo‘lg‘usi ixtisos egalarida qat’iylik, ijodiy

izlanish, irodaviy zo‘r berish o‘rniga, asosiy maqsadlardan chalg‘ish, normal hulqdan og‘ish, adashib turli oqimlar ta’siriga tushib qolish kabi holatlarga duch kelmoqdalar. Bugungi kunda internet tarmog‘ida istalgan mavzu yuzasidan tayyor ma’lumotlarning mavjudligi tufayli talabalar “tayyor axborot”lar quliga aylandilar. Ko‘p holatlarda kompyuterlar, displeylar, EHM, kalkulyatorlar inson aqliy mehnatini keskin darajada yengillashtirish oqibatida, talabalar aqliy zo‘r berish holatidan mustasnolar.

Shu sababli, talaba-yoshlar guruhining o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini o‘rganish va ta’lim jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu davrda samarali natijalarga erishish imkonini yaratadi. Professor E. G‘oziev talabalik davrini o‘spirinlikning ikkinchi bosqichi, ya’ni 17-22 (25) yosh deb ko‘rsatadi. Biroq bugungi kunda oliy ta’limda o‘qish yoshining chegaralanmaganligi va oliy ma’lumot olish istagining yuqoriligi bois katta yoshli talabalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, talabalik davri ijtimoiylashuvdagi alohida davr bo‘lib, shaxsda kasbiy sifatlarning shakllanishi, o‘zlikni anglash jarayonlarining faollashuvida hamda shaxs rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shaxsning ijtimoiylashuvi (individdan to‘laqonli shaxsga aylanish jarayoni) bosqichma-bosqich amalga oshirilib, bu jarayonda u jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq-atvorning me’yor va qoidalari haqidagi turli bilimlarni hamda jamiyatga ko‘nikishiga yordam beruvchi turli ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradi.

Ijtimoiy tajribani o‘rganish, guruh (jamoa)larning maishiy va hayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruhdagi o‘z-o‘zini boshqarish faoliyatini rag‘batlantirish va norasmiy mikroguruhlarga ta’sir etish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tajriba deyilganda, keng ma’noda turli ko‘nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me’yori va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek, o‘z-o‘zini anglash, o‘ziga ishonch, o‘z ijtimoiy hayot yo‘lini belgilash va shu yo‘ldan borish tushuniladi.

Malumki, akademik litsey va kollej bitiruvchilari, oliy ta’lim muassasasiga, o‘ta kuchli xohish, qiziqish, yuksak ezgu niyatlar bilan qadam qo‘yadilar. Ularning barchasida tevarak-atrof va ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini shaxs sifatida egallash ehtiyoji mavjud bo‘lib, yangi vaziyatda muayyan faoliyatni amalga oshirish ishtiyoqini keltirib chiqaradi. Yangicha vaziyat, o‘ziga xos talab, qoidalar, munosabatlar muhitida o‘qishga qiziqib, masuliyat sezib, vijdonan, ijobiy munosabatda bo‘ladi. Ammo ta’lim jarayonida talabalarning ayrimlarida o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat asta-sekin so‘na boshlaydi. Yangi muhit, ilm dargohlaridagi majburiyatlar, pozitsiyalar, qonun-qoidalar o‘z ahamiyati va nisbiy yangilik xususiyatini yo‘qota boradi, his-tuyg‘ularga serob, quvnoqlar davrasida tasavvur etilgan auditoriya g‘ayritabiiy ko‘rinish kasb etadi.

O‘qishga nisbatan saboq oluvchilar munosabatini aniqlashga harakat qilgan o‘qituvchi qanday o‘zgarishlar yuz berayotganini qayd qilish uchun ayrim mezonlarni ta’kidlay boshlaydi:

– xayolparishonlik vujudga keldi;
– ba’zi topshiriqlarni shunchaki bajarishga odatlandi;
– vijdonan yondashish yo‘qoldi;
– boshqalardan ko‘chirib olishni odat qildi;
– yolg‘on so‘zlash va bahona qidirishga o‘rgandi;
– darslarni qoldiradigan bo‘lib qoldi;
– mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo‘ydi va boshqalar.

O‘qituvchi, guruh murabbiyi yoki o‘qituvchilar jamoasi yuqorida taxmin qilingan,

talabalardagi salbiy o‘zgarishga nisbatan ananaviy tartib-intizom usullarini tatbiq qiladi. Bizningcha, jazo choralarini ko‘rishga shoshilishdan ko‘ra, “Mazkur muammoni keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?” , “Nega shunday hodisa yuz berdi?” degan savollarga javob qidirish odilona yondashishdir.

Odatda qattiqqo‘llik (qat’iy tartib-intizomlilik, talabchanlik), adolatsiz jazolash (qaysiki o‘qish motivi noaniq, o‘rganilmagan bo‘lsa) shaxsning psixikasiga zarar keltiradi, bilim olishga hech qanday yordam ko‘rsatmaydi. Qattiqqo‘llik, hattoki qatiyatlilik eng muhim fazilat bo‘lib hisoblanadi, agarda shaxsdagi u yoki bu xususiyatli xulq-atvor turtkisi, yaqqol vaziyat sabablari chuqur tahil qilinsa, asoslansa. Biroq, ta’lim jarayonidagi mashg‘ulotlar, yani bilimlar, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-yu, lekin ular “o‘rtamiyona” shaxsga mo‘ljallansa, u taqdirda bir necha xususiyatli psixologik holatlarni yoki subyektiv kechinmalarni keltirib chiqaradi. Oradan muayyan vaqt o‘tishi bilan mashg‘ulotlardan qiziqroq, ilmiyroq malumotlarni kutish turadi.

Psixologiyada shaxsni aqliy, amaliy harakatga va hulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bog‘liq sababiyatlar motivlar deb ataladi. Tarifdan ko‘rinib turibdiki, motivning asosiy funksiyasi insonni harakatga, xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi sabablar (omillar), ichki yoki tashqi turtkilar vazifasini o‘tashdan iboratdir. Bu holatni o‘quv faoliyatiga ko‘chirish uchun quyidagi voqelikni izohlab berish ayni muddaodir: matematika darsi bormoqda, deb tasavvur qilaylik: bu jarayonda barcha talabalarning diqqat-e’tibori daftarga, berilgan topshiriqni bajarishga yo‘naltirilgan, unga to‘plangan va markazlashtirilgandir. Ularning barchasining maqsadi yagona, u ham bo‘lsa qo‘yilgan topshiriq (masala)ni yechishdir. Lekin maqsadning umumiy bo‘lishiga qaramay, ularda o‘quv faoliyatining motivlari turli-tuman ko‘rinishga egadir, chunonchi:

– “alo” yoki “yaxshi” baho olish;
– o‘qituvchining maqtoviga, tahsiniga sazovor bo‘lish;
– o‘zining aynan shu masala yuzasidan aqliy salohiyatini sinab ko‘rish;
– ota-onasini o‘zi erishgan yutuqlaribilan xursand qilish;
– qo‘yilgan topshiriq (masala) unda qiziqish uyg‘otganligi;
– savodxon bo‘lish istagining mavjudligi;
– o‘quv predmetining ijtimoiy va amaliy ahamiyatga molikligi;
– kasbiy xislatlarni shakllantirishdagi o‘rni sababli;
– topshiriqni yechishga ra’yi yo‘q, lekin uni bajarishdan boshqa iloji yo‘qligi va boshqalar .

Mana shu va shunga o‘xshagan holatlar har qanday o‘quv predmeti materiallarini o‘zlashtirish faoliyatida uchrashi ehtimoldan xoli emas.O‘qitish samaradorligini oshirishni bosh maqsad qilib qo‘ygan o‘qituvchi uchun talabalarning o‘quv motivlariga nisbatan befarq bo‘lishi aslo mumkin emas. Har qaysi saboq oluvchining his-tuyg‘usi, ichki ruhiy kechinmalari, xohish va istaklari to‘g‘risida muayyan o‘qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jahon psixologlari ularni ikki kategoriyaga yoki guruhga ajratib tekshirishni lozim topadilar.

Birinchi kategoriyaga taalluqli motivlar o‘quv faoliyatining mazmuni, mohiyati hamda uning jarayonlari, sharoitlari bilan bevosita uyg‘unlashgandir.

Ikkinchi kategoriyaga kiruvchi motivlar tizimi talabalarning atrof-muhit bilan keng ko‘lamdagi o‘zaro munosabatlariga, ularning begona, o‘zga kishilar bilan muomalaga kirishish ehtiyojiga, ijtimoiy turmush voqeligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog‘liqdir.

O‘quv faoliyati mazmuni bilan uzviy bog‘liq motivlar tizimini shartli ravishda ikki

guruhga ajratib, ularni ijobiy (musbat, pozitiv) va salbiy (manfiy, negativ) deb nomlash mumkin. Bunday atamalarni qo‘llashdan asosiy maqsad mahalliy anana, ijtimoiy tajriba (stereotipizasiya darajasidagi tasirchan kuchli tashqi omil) ekstremal holat tasirida keskin ruhiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir.

Odatda salbiy (negativ) motivatsiya shunday vaziyatda vujudga kelishi mumkinki, qachonki talaba bilimlarni o‘zlashtirmaslik oqibati qanday ko‘ngilsiz holatlarga olib kelishini anglab etib, (baho ololmaslik, moddiy jazolanish, ya’ni stipendiyadan ma’lum muddatga mahrum bo‘lish, kursdoshlari, qolaversa o‘quv muassasasining rahbar shaxslari va o‘qituvchilarda salbiy taassurot qoldirish va boshqalar) ana shunga muvofiq sa’y-harakatlarni amalga oshirishga intilsa. Jumladan, salbiy motivasiyaga ega bo‘lgan talaba kamroq musibatli (mushkul ahvol) yo‘lni tanlab ta’lim jarayonida qatnashishda davom etadi. Bunday o‘qish motivatsiyasiga aloqador talabalar va o‘quvchilar yuqori ko‘rsatkichlarga, muvaffaqiyatli o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar, chunki, ishtiyoqsiz mashg‘ulotga, darsga qatnashish tuyg‘usi, bilim va o‘quv predmetiga nisbatan qiziqishi mavjud emasligi, bunga ma’naviy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Buning natijasida bo‘sh o‘zlashtiruvchi, sust talabalarning safi tobora kengayib boradi, bu narsa kundalik odatga aylanib boraversa, u stereotip darajasiga o‘sib o‘tishi mumkin.

Talabalik yillarining muhim xususiyatlaridan yana bittasi shuki, bunda o‘qish faoliyati jarayonida anglashiladigan ongli motivlar keskin ravishda ko‘payadi. Axloq jihatdan rivojlanish sust sur’atlar bilan borsa-da, lekin uning tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik, qunt, qadr-qimmatlilik kabi sifatlari sezilarli darajada takomillashib boradi. Ijtimoiy holatga, voqelikka, axloqiy normalarga qiziqish va ularni anglashga intilish tuyg‘usi kuchayadi.Turmush tajribasini ortib borishi natijasida talabada o‘zligini anglash (o‘zini o‘zi anglash) hislati yuzaga keladi. Bu narsa uning shaxsiy hayot mazmunini anglash, oqilona turmush rejalarini tuzatish, bo‘lajak katta hayot yo‘lini oldindan bashorat qilishda o‘z ifodasini topadi. Bu davrga kelib, talaba notanish mikromuhit sharoitlariga ko‘nikib boradi, o‘zining huquq va majburiyatlarini egallay boshlaydi, shaxslararo munosabatga yangi vosita va usul qo‘llaydi, uning oldida ko‘ndalang turgan ijtimoiy rollarni amaliyotda sinab ko‘rishga intiladi.

Talabalik davrida ijtimoiy motivlar anglashinilgan ahamiyat kasb etuvchi bosqichda bo‘ladi. Bunday motivatsiyani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish bilan birga va bir vaqtning o‘zida bilishga qiziqishga aloqador boshqa o‘quv faoliyati motivlarini shakllantirish lozim. Ana shundagina ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichi oshib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2002

2. Мормужева, Н.В. Мотивация обучения студентов профессиональных учреждений: материалы IV Междунар. науч. конф. Челябинск: Два комсомольца, 2013.

3. Меламед Д.А. и др. Социально-психологические особенности учебно-профессиональной мотивации студентов //Психолого-педагогические исследования. – 2011. – Т. 3. – №. 2. – С. 1-16.

4. Щелина Т.Т., Беганцова И.С., Маркеева М.В. Социально-психологические особенности студентов в контексте современных проблем воспитания в вузе //В мире научных открытий. – 2014. – №. 11-11. – С. 4446-4461.

B. BOLTAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
‘‘Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti’’ kafedrasi dotsenti, f.f.d (PhD)
X. TOJIBOYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi magistranti

MATNNI TUSHUNISH JARAYONINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni tushunish jarayonining pedagogik-psixologik jihatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, tushunish jarayoni, uning psixologik, fiziologik jihatlari, matnni o‘qib tushunish jarayoni va uning o‘ziga xos bosqichlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish malakalarining matnni tushunishda tutgan o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qish, yaxshi o‘qish malakalari, bilish, tushunish, matn ustida ishlash.

В данной статье рассматриваются педагогико-психологические аспекты процесса понимания текста учащимися начальных классов. Также проанализировано процесс понимания, его психологические и физиологические аспекты, процесс чтения и понимания текста и его отдельные этапы, роль навыков чтения младших школьников в понимании текста.

Ключевые слова. чтение, хорошие навыки чтения, знание, понимание, работа над текстом.

This article discusses the pedagogical and psychological aspects of the process of understanding the text in primary school students. Also, the process of understanding, its psychological and physiological aspects, the process of reading and understanding the text and its specific stages, the role of reading skills of primary school students in understanding the text are analyzed.

Key words. Reading, good reading skills, knowing, understanding, working on the text.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining 2023-yil uchun Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2023-yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qildi hamda kelgusi yilda bajarilishi lozim bo‘lgan muhim yo‘nalishlar qatorida boshlang‘ich ta’limga nisbatan shunday munosabat bildirdi: “2023-yildan maktab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida butunlay isloh qilishni boshlaymiz”. Agar yaqin vaqtgacha eng muhim vazifa o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish bo‘lgan bo‘lsa endilikda maktablarga boshqacha vazifa qo‘yilmoqda, ya’ni “o‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur”. Xalqaro ta’lim dasturlari esa o‘z talablari va xususiyatlari bilan bizda mavjud bo‘lgan an’anaviy ta’limdan anchayin farq qiladi.

PIRLS bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi-yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

O‘zbekiston ham bu dasturda ishtirok etar ekan, demak dastur talablarini, uning tarkibidagi matnni tushunish jarayonlari, ularni baholash mezonlarini ham alohida yondashuv asosida o‘rganishimizga to‘g‘ri keladi.

Bola go‘daklik davrida asta-sekinlik bilan tajriba to‘plab boradi va shu bilan birga uning idroki va tasavvurlari paydo bo‘la boshlaydi. Odatda 5-6 oylik bola o‘tiradi, sekin-sekin emaklaydi, tik yurishga harakat qiladi, 1-2 yoshda esa yura boshlaydi. Bola yarim yoshdan oshgach, g‘uldirab so‘zlaydi va atrofidagi insonlarning gaplarini tushuna boshlaydi. Olti yoshga qadar bola dunyoni va ijtimoiy borliqni to‘laligicha tushunadi, ya’ni idrok etadi. Kichik maktab yoshi o‘quvchilari esa ro‘y berayotgan voqea- hodisalarning mohiyatini bilishga qiziqadi. Bilish va tushunish bir-biriga bog‘liq hodisa hisoblanadi. Tushunish va bilishning o‘zaro farqi, bog‘liqligi ko‘pdan beri muhokama qilinadi. Tushunish qanday hodisa?

Tushunish – bu yangi mazmunni o‘zlashtirish, uni o‘rnatilgan g‘oyalar va tasavvurlar tizimiga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan universal fikrlash jarayonidir.

Tushunish o‘z o‘rnida o‘quvchida tanqidiy yondashuvni shakllantiradi, ya’ni qabul qilgan tushunchalarini tahlil qilishga va taqqoslashga o‘rgatadi. Tushunish – muayyan doirada qabul qilingan hodisa va uni to‘g‘ri idrok etuvchi psixologik holat sanaladi. Tushunish keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uni psixologiya, pedagogika, mantiq, sotsiologiya, tarix fanlari o‘rganadi. Pedagogikada tushunish va tushuntirish bola kognitiv rivojlanishining asosiy omili sifatida talqin qilinadi.

Maktab yoshigacha bolalarning dunyoni bilishga intilishi “nima uchun?”, “bu nima?” kabi savollar bilan atrofidagi voqea-hodisalarni bilishga va tushunishga intilishi deyarli tabiiy hol albatta. Tushunishni idrok qilish, sezgi deb ataladigan tushunchalar bilan aralashtirib yubormaslik kerak, garchand bu hodisalar tushunish jarayonida sodir bo‘lsa ham.

Tushunish – bu yangi mazmunni o‘zlashtirish, uni belgilangan g‘oyalar va tushunchalar tizimiga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan tafakkurning universal operatsiyasi. Psixolingvistikada esa tushunish asosan nutqiy xabarni semantik idrok etish natijasida talqin qilinadi.

Tushunish jarayonini ikki xil talqin qilishimiz mumkin, ya’ni grammatik va psixologik. Grammatik talqin deganga, asosan grammatik qoidalar yordamida amalga oshirish tushunilsa, psixologik talqinda esa matn muallifining hayotidagi voqea-hodisalarga, uning ma’naviy dunyosiga alohida e’tibor berib, individual xususiyatlarini bilishga intiladi. Matnni chinakam tushunish esa har bir o‘quvchi uchun muallifning ma’naviy olamiga kirib borishi, boshidan o‘tkazganlarini his qilishi demakdir. Tushunishning o‘ziga xos xususiyati ham mavjudki, inson o‘zi idrok qilayotgan matnning ichki murakkab aloqalari, bog‘lanishlarini aniq sezadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshimiz o‘tgani sari bizning kognitiv, ya’ni, idrok qilish, eslash, tushunish va tushuntirish kabi funksiyalarimiz pasayar ekan. Bijizga ota-bobolarimizdan qolgan naqlda “Yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqshdir”. Demak, bolalarga to‘g‘ri tushuntirish, ularda to‘g‘ri tushunish jarayonlarini yo‘lga qo‘yish orqali ularni ko‘plab ma’lumotlar va bilimlar bilan qurollantirish imkoniyati katta.

Hozirda ko‘pgina adabiyotlarda tushunishning turi, tipi, darajalari xususida so‘z boradi. G.I.Ruzavin tushunishni uch turga bo‘ladi:

Birinchisi – bu dialogda til vositasida aloqa qilish jarayonida yuzaga keladigan tushunish. Tushunish yoki tushunmaslik natijasi bu yerda suhbatdoshlarning o‘z so‘zlariga qanday ma’no yuklashlariga bog‘liq. Ko‘rinadiki, mazkur tushunish og‘zaki nutq

jarayonida fikr almashish holatidagi axborotni anglab, idrok etishga to‘g‘ri keladi.

Ikkinchisi, bir tildan boshqa tilga tarjima qilish bilan bog‘liq tushunish. Bu yerda o‘zga tilda ifodalangan ma’noni ona tili so‘zlari va gaplari bilan ifoda etish va yodda saqlash nazarda tutiladi. Bunda o‘quvchining tushunishi so‘zni qanchalik to‘gri tanlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Uchinchisi esa matnlarni, badiiy adabiyot va san’at asarlarini tushunish, shu bilan birga insonlarning turli qilmishlari va harakatlarini tahlil qilish bilan bog‘liq tushunishdir. Bunda turli matn ko‘rinishidagi ma’lumotlarni o‘qib tushunish, idrok etish va tasavvur hosil qilish nazarda tutiladi.

Matn – bu vaqt o‘qi bo‘ylab joylashtirilgan, ma’lum bir mazmunni ifodalovchi va prinsipial jihatdan tushunish mumkin bo‘lgan, ma’noga ega bo‘lgan izchil, ixcham, takrorlanadigan belgilar yoki tasvirlar ketma-ketligi. Ushbu ta’rif ostida turli xil hikoya matnlari o‘quvchilarga taqdim etilishi mumkin. Har qanday ko‘rinishdagi ma’lumotlarni tushunish uchun inson doimo ma’lum bir aqliy muammoni hal qilishi zarur, chunki yangi ma’lumotlarni tushunish aqliy faoliyat jarayonida sodir bo‘ladi va uning natijasi ham bo‘ladi.

O‘qib tushunish – bu matnni qayta ishlash, uning ma’nosini tushunish va o‘qiyotgan shaxs oldindan bilgan narsalar bilan bo‘g‘lab anglay olish qobiliyatidir. So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini bilish, so‘zlarning kontekstual ma’nosini bilish, matn mazmuniy qismlarining o‘zaro bog‘lanishini anglash, matn tarkibidagi parchalar asosida xulosa chiqarish, matndagi asosiy fikrni anglash, berilgan savollarga matn asosida javob bera olish, vaziyatning holatini (tasdiq, inkor, so‘roq qilish, buyruq berish), muallifning maqsadi va nuqtayi nazarini aniqlash va muallif to‘g‘risida xulosalar chiqarish qobiliyatlari o‘qilgan matnni samarali tushunish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar hisoblanadi. Matnni o‘qib tushunish qobiliyatiga o‘quvchining yuqoridagi ko‘nikmalari hamda ma’lumotni qayta ishlash qobiliyati ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘quvchi so‘zning ma’nosini bilmasa, u matnnni qayta ishlash uchun juda ko‘p vaqt sarflaydi, chunki u matndagi tusunilmagan so‘zlarni individual tarzda anglashga urinadi, bu esa tushunishga ham halal beradi. O‘qib tushunish malakasini rivojlantirishning ko‘plab omillari bo‘lib, bular o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, matnni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish, yaxshi o‘qish malakasini rivojlantirish.

O‘qish texnikasida tushunishning ahamiyati juda katta. Mutaxassislar quyidagi keng tarqalgan va samarali usulni tavsiya etishadi:

1. Dastlabki o‘qish yoki to‘g‘ri o‘qish;
2. Tez o‘qish;
3. Keng qamrovli o‘qish;
4. Asosiy g‘oyalar ostiga chizish;
5. Sxemasini tuzish;
6. Yodlash;
7. Rezyume;
8. Ko‘rib chiqish.

Dastlabki uch bandda matnni tushunish uchun asosiy vazifalar amalga oshiriladi va u tushunishning samaradorligini ta’minlaydi. Birinchidan, matn to‘g‘ri o‘qish qoidalariga rioya qilgan holda bir maromda o‘qib ketiladi, ya’ni bu to‘g‘ri o‘qish malakasining yordamida maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda, uni tez qayta o‘qib chiqamiz, ya’ni tez o‘qish sifati bilan uni takrorlaymiz. Uchinchi bosqichda, keng qamrovli mushohada qilib, tahlil bilan qayta o‘qiymiz, ya’ni ongli o‘qiymiz.

Ma’lumki, shu uchala bandda o‘qish sifatlari mavjud va aynan shundan so‘nggina o‘quvchi 4-bandda ko‘rsatilganidek asosiy g‘oyalarni ajratib olishi, matnning sxemasini tasavvur qilishi, yoki yodlashi va uning rezyumesini tuzishi mumkin bo‘ladi.

Agar matnning qaysidir qismidagi gaplar tagiga o‘quvchi chiziqcha tortgan bo‘lsa, demak uning asosiy g‘oyalarni ajratib olganligini tushunishimiz mumkin. Matnda chizilgan sxemalar (shakllar, belgilar) aniqlik bilan belgilanishi matndan o‘quvchining xulosalarni chiqara olganligini aks ettiradi. Yodlash bosqichida esa o‘quvchi yaxshi tushungan ma’lumotini uzoq vaqt eslab qoladi va keyinchalik esa u o‘rganganlarini o‘z so‘zlari bilan tushuntirib berishga qodir bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tushunishning ishtirokisiz muloqotni davom ettirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, idrok etilgan xatti-harakatni amalga oshirish va eng asosiysi ta’sir o‘tkazishning imkoni yo‘q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini komil inson qilib tarbiyalashda, kerakli bilimlar bilan qurollantirishda, eng avvalo o‘z-o‘zini anglashda tushunishning o‘rni beqiyos. Bundan tashqari matnni o‘qib tushunish bilangina kerakli bilimlar egallanadi, dunyoqarash kengayadi, so‘z boyligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasi. –T., 2022-yil 20-dekabr.

2.Понимание // Словар по логике. -М.:Туманит, изд.центр ВЛАДОС.А.А. Ивин, А.Л. Никифоров.1997.

3.Г.Риккерт.Границы естественную-научного образования понятий.1896-1902.

4. Брудный А.А. Наука понимать. - Бишкек,1996.

5. Murman D. The impact of age on cognition. Emin Hear.2015; 36(3):11 1-121.

6. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Kosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. T.: Sharq. 2019.

7. “What is Reading Comprehension?” (en-US). *Reading Worksheets, Spelling, Grammar, Comprehension, Lesson Plans* (29-may 2008-yil); William Grabe*. Reading in a Second Language: Moving from Theory to Practice*. Cambridge University Press, 2009. ISBN 978-0-521-72974-1. „Koda, 2005:4“

8. Maryanne Wolf. *Tales of Literacy for the 21st Century: The Literary Agenda*. OUP Oxford, 2016. ISBN 978-0-19-103613-2.

9. Boltayeva, B. (2021). Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash va matn tuzishga o‘rgatish. Boshlang‘ich ta’limda Innovatsiyalar, (November). извлечено от https://primedu.jspi.uz/index.php/primedu/article/view/4265

Gulnozaxon MUMINOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

TA’LIM JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik–psixologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z ustida maqsadli faoliyat yuritishi, o‘zining kasbiy va ijodiy sifatlarini shakllantirishi, ijodiy yutuqlarga erishish faoliyati muhimligini haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Ijod, ijodkorlik, ta’lim jarayoni, pedagogik-psixologik shart-sharoitlar.

В данной статье освещены педагогико–психологические основы обучения творческому мышлению будущих педагогов в образовательном процессе. В нем также говорится о важности деятельности будущих педагогов по целенаправленной деятельности над собой, формированию собственных профессиональных и творческих качеств, достижению творческих успехов.

Ключевые слова. Творчество, креативность, образовательный процесс, педагогико-психологические условия.

This article highlights the pedagogical and psychological foundations of teaching creative thinking to future teachers in the educational process. It also talks about the importance of future teachers' activities for purposeful work on themselves, the formation of their own professional and creative qualities, and the achievement of creative success.

Key words. Creativity, educational process, pedagogical and psychological conditions.

Hozirgi kunda jahondagi globallashuv va ta’limning integratsiyalashuvi jarayonlarining chuqurlashib borishi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasini dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Yurtimizda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ta’lim oluvchilar, ilmiy-pedagogik kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha bir necha vazifalar belgilab berildi.

Ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy fikrlashga o‘rgatishning pedagogik – psixologik asoslari haqida to‘xtalar ekanmiz eng avvalo, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z ustida maqsadli faoliyat yuritishi, o‘zining kasbiy va ijodiy sifatlarini shakllantirishi, ijodiy yutuqlarga erishish faoliyati muhimligini anglamog‘imiz lozim. Buning uchun esa albatta bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z faoliyatiga ma’suliyat bilan yondashish ko‘nikmasi shakllangan bo‘lishi zarur.

Bo‘lajak pedagoglarda ijodiylik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “ijodkorlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “Ijodkorlik – o‘z qiymatiga ega origi-

nal g‘oyalar majmui” sanaladi.

Ijodkorlik – noodatiy fikrlarni o‘ylab topish, an’anaviy fikrlash doirasidan chetlashish, muammoli masalalarni tezda hal etish qobiliyatidir. U yangi g‘oyalarni yaratishga doimo shaylik bilan xarakterlanadi.

So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida talabalarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman, Ken Robinson, Fisher, Frey, Begetto, Kaufman Ali, Treffinger va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalaridan ko‘rish mumkin.

Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zlarida ijodkorlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o‘qituvchilar ham aslida “ijodkorlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, ijodkorlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar. Ayni o‘rinda shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har bir shaxs tabiatan ijodkorlik qobiliyatiga ega. Xo‘sh, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarida ijodkorlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: “garchi o‘zingizni ijodkor emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni ijodkorlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir” deya ta’kidlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi unda faollik, mustaqillik, mustaqil bilim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish extiyojini vujudga keltiradi. Bu jarayon bevosita o‘quvchilar bilan muloqot asosida pedagogik amaliyot bosqichida amalga oshiriladi. Pedagogik amaliyot jarayonida ijodkor talabalarning mustaqillik darajasi keskin tarzda oshadi. Shuning uchun ham talabalarning o‘z ustida ishlay olish alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadida mustaqil bilim olishga kirishar ekan, birinchi navbatda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olishi kerak. Har bir mutaxassis kasbiy tayyorgarlik jarayonida o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlay olishi lozim. Shunga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

– o‘zining shaxsiy sifatlarini bilishi va baholay olishi;

– o‘z xulq-atvorida nimani o‘zgartirish zarurligini aniqlashi;

– o‘ziga ta’sir qilish yo‘llari va usullarini egallashi kabilar.

Buning uchun o‘qituvchi ijodkor va novator bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z-o‘zlarini ijodiy rivojlantirishlariga erishish gohida dolzarblik kasb etmoqda. Bunda, birinchi navbatda, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida qulay pedagogik-psixologik muhitni vujudga keltirish lozim. Dastlabki pedagogik-psixologik shart-sharoitlar sirasiga:

a) talabalarda o‘z-o‘zlarini kasbiy takomillashtirish ehtiyojini vujudga keltirish;

b) talabalarning mustaqil ijodiy rivojlanishlarini ta’minlash;

v) O‘zbekiston maktablari va xorijiy ta’lim tizimida mavjud bo‘lgan ilg‘or pedagogik tajribalarni muntazam o‘rganish va tahlil qila olishlarni kiritish mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish omili sifatida xizmat qiladi. Bu quyidagilarga bog‘liq:

– bo‘lajak o‘qituvchilarga kasbiy rivojlanish imkonini beradigan qulay pedagogik-psixologik muhitning mavjudligi;

– ishchan hamkorlik muhitini vujudga keltirish uchun birgalikda ishlaydigan ijodiy

guruhning shakllantirilganligi;

– pedagogik hamkorlikning rivojlantirilishi;

– ijodiy innovatsion muhitning vujudga keltirilganligi;

– pedagogik amaliyot jarayonida ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagogik jamoa tomonidan yangi g‘oyalar va pedagogik loyihalarning qo‘llab-quvvatlanishi;

– innovatsion faoliyat ichki va tashki bosimlardan holiligi va mustaqilligining ta’minlanganligi;

– bo‘lajak mutaxassislarning iqtidorlari va layoqatlaridan kelib chiqqan holda ularning maqsadga muvofik tarzda yo‘naltirilganligi;

– bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy ijodkorlikka muntazam yo‘naltirishga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlarning ishlab chiqilganligi va tadbiq etilganligi kabilar.

Oliy ta’lim muassasasida bunday muhitni vujudga keltirish talabalarni ijodiy jihatdan rivojlantirish uchun muhim yo‘naltiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, bo‘lajak o‘qituvchilar shuni yaxshi bilishlari kerakki, o‘quvchilarni ijodiy faollikka undovchi muhim omil shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv muhitini to‘g‘ri tashkil eta olish hamda ularning iqtidori, qiziqishlari, layoqatlarini aniq hisobga olgan holda mazkur jarayonni loyihalashtirish bilan bog‘liq. Navbatdagi beshinchi shart-sharoit – talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Ular o‘zlarining ijodiy faolliklari va bilimdonliklari bilan boshqalardan farqlanib turadilar. Bunday xususiyat talabalar intellektining murakkab tarkibini ifodalaydi. Talabalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘zlari tanlagan kasbni egallashga yo‘naltirilgan ta’limiy faoliyatni amalga oshirishlaridadir. Bunday faoliyatning yetakchi belgilari sifatida kasbiy-o‘quv va ilmiy tadqiqotchilik faoliyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-yildagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Робинсон К., Ароника Л. Школа будущего. Как вырастить талантливого ребенка. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2016. – С. 14.

3. Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – С. 434.

Р.М. СУЛЕЙМАНОВА,
НИИ педагогических наук им.
Т. Н. Кары Ниязи, г.Ташкент, докторант

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ИНФОРМАТИКИ

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilarining funktsional kompetentsiyasini shakllantirishda pedagogika universitetining axborot ta'lim muhitining etakchi roli muhokama qilinadi. Tadqiqot ularning funktsional vakolatlarining mohiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar. Axborot ta'lim muhiti, funktsional kompetentsiya, integratsiya, tendensiya, axborotlashtirish.

В статье рассматривается ведущая роль информационной образовательной среды педагогического вуза в формировании функциональной компетентности у будущих учителей информатики. В исследовании раскрыта сущность их функциональной компетентности.

Ключевые слова. Информационная образовательная среда, функциональная компетентность, интеграция, тенденция, информатизация.

The article discusses the leading role of the information educational environment of a pedagogical university in the formation of functional competence of future teachers of informatics. The study reveals the essence of their functional competence.

Key words. Information educational environment, functional competence, integration, trend, informatization.

Интеграционные процессы, тенденции к германизациии образования и информатизация всех сфер человеческой деятельности, сложившиеся в нашей стране, формируют потребность в педагогах новой формации и предъявляют повышенные требования к функциональной компетентности выпускников педагогических вузов, способных к непрерывному самостоятельному профессиональному росту в развивающейся информационно образовательной среде общества.

В нашем представлении функциональная компетентность выступает как качественно новое, неповторимое, оригинальное и уникальное овладение субъектом высшей формой профессиональной компетентности, проявления которой выражаются в достижении профессионально-педагогического мастерства – уровня сформированности необходимых функциональных элементов профессионально педагогической деятельности.

